ребенка, потому что в его речевой деятельности проявляется работа духа, которая через первые членораздельные звуки свидетельствует о начавшемся формировании этого разделения. Здесь надо отметить, что именно членораздельный звук отличает человека от животного, так как выражает не просто намерение или потребность, но, прежде всего, конкретный смысл произносимого, так как является «сознательным действием создающей его души», что еще раз указывает на действие сознания в процессе проговаривания первых слов ребенка.

Возникая и развиваясь в обществе, в процессе общения людей между собой, язык представляет собой объективное явление. Это значит, что, будучи продуктом, созданным обществом, язык существует независимо от отдельных людей. Каждое поколение застает язык уже выработанным предшествующими поколениями и овладевает им, т. е. учится пользоваться им в общении. Люди воспринимают слова языка так же, как и другие явления окружающей их действительности, т. е. как раздражители, воздействующие на органы чувств. Однако особенность явлений языка заключается в том, что они передают закрепленное в звуках отражение людьми других явлений, результаты познания действительности. Существуя в виде материальных явлений — звуков речи или письменного их изображения, — явления языка в то же время передают знания, понятия, мысли людей, т. е. воплощают в себе явления идеальные, явления общественного сознания.

В процессе развития труда и трудовых общественных связей людей друг с другом вместе с языком возникает, следовательно, особая форма отражения людьми действительности — их сознание. Необходимо различать общественное и индивидуальное сознание. К явлениям общественного сознания принадлежат создаваемые обществом знания о природе, обществе, о человеческом мышлении. Индивидуальное сознание — это высшая форма отражения действительности отдельным человеком, членом общества. Общественное сознание возникает вместе с формированием этой новой, высшей формы психического отражения действительности отдельных людей, членов общества. Таким образом, сознание и язык органически связаны друг с другом. Но единство языка и мышления не означает их тождества.

Действительно, мысль, понятие как значение слова есть отражение объективной реальности, а слово как знак-средство выражения и закрепления мысли, средство и

передачи её другим людям. К этому следует добавить, что мышление по своим логическим законам и формам интернационально, а язык по его грамматическому строю и словарному составу-национален.

Наконец, отсутствие тождества языка и мышления просматривается и в том, что порой мы понимаем все слова, а мысль, выраженная с их помощью, остаётся для нас недоступной, не говоря уже о том, что в одно и то же словесное выражение люди с различным жизненным опытом вкладывают далеко не одинаковое смысловое содержание.

ЛИТЕРАТУРА

1. Кульпина В.Г., Татаринцов В.А. Реф. кн.: Усикова Р.П. Грамматика македонского литературного языка. М.: Муравей, 2003. // Социальные и гуманитарные науки. Отечественная и зарубежная литература. Серия Языкознание. 2004. № 2. С. 170–178 .

2. Кульпина В.Г., Татаринцов В.А. Реф. кн.: Македонско-русский словарь / Сост. Усикова Р.П. и др. М.: Астрель, АСТ, 2003. // Социальные и гуманитарные науки. Отечественная и зарубежная литература. Серия б. Языкознание. 2005. № 3. С. 184–187.

3. Македонско-русский словарь. Македонско-русски речник / Р.П. Усикова., З.К. Шанова, Е.В. Верижникова, М.А. Поварничина / Под общ. ред. Р.П. Усиковой и Е.В. Верижниковой. М.:Астрель, АСТ, 2003.

4. Платонова И.В. Рина Павловна Усикова как организатор и первый заведующий межфакультетской кафедрой славянских языков Московского университета. Stephanos. 2018. № 2. С. 134–140.

**ҒАРБИЙ ЎЗБЕКИСТОНДА ТЕРРИГЕН ЮРА ЁТҚИЗИҚЛАРИНИНГ ГАЗЛИЛИК
ИСТИҚБОЛАРИ (ЧОРДЖОЙ ПОҒОНАСИ МИСОЛИДА)****Маллаев Шамшод Обиджон ўғли***ЎЗМУ Геология ва геоинформацион тизимлар факультети**“Геология” кафедраси магистранти*

Аннотация : *Ҳозирги кунда Ғарбий Ўзбекистон табиий газ қазиб чиқариш бўйича етакчи ўринни эгалайди, бу ерда нефть ва газ уюмлари асосан юқори юра даврининг риф қурилмалари билан боғлиқ. Шу билан бир қаторда қуйи- ўрта юра ва қадимги давр ётқизиқларини геологик тузилишини ўрганиш, буларга янги нефтьгазга самарали объектларни излаш энг долзарб вазифалардан бири бўлиб келмоқда. Сўнги йилларда бу ётқизиқларни нефтьгазга истиқболи эканлигига далолат берувчи метериалар йиғилиб келмоқда.*

Калит сўзлар : *риф қурилмалари, тектоник блоклар, Комплекслар, терриген юра ётқизиқлари.*

*Gaseous prospects of terrigenous Jurassic deposits in
Western Uzbekistan (on the example of Chordjoy stage)*

Mallayev Shamshod Obidjon o`g`li

Annotation : *Today, Western Uzbekistan is a leader in natural gas production, where oil and gas deposits are mainly associated with Upper Jurassic reefs. At the same time, one of the most urgent tasks is to study the geological structure of the Lower-Middle Jurassic and ancient deposits, including the search for new oil and gas facilities. In recent years, metrics have been accumulating that indicate that these fields are promising for oil and gas.*

Keywords : *reef structures, tectonic blocks, complexes, terrigenous Jurassic deposits.*

Дунё амалиётида, фойдали қазилмалар геологиясини ўрганиш тарихининг барча даврларида маъданлашувнинг магматизм билан генетик боғлиқлигини ҳамда қамровчи тоғ жинсларини маъданлашувнинг шаклланиши ва жойлашувидаги ролини аниқлаш муҳим аҳамият касб этади. Жумладан, бутун дунёда фойдали қазилма конларини излаб топиш, қолаверса, юқоридаги масалаларни ҳал этишда кенг қўлланиладиган усуллардан бири минералогик-геокимёвий тадқиқот усуллари ҳисобланади[1].,Эндоген маъданлашувнинг магматизм билан алоқасига оид масалалар кўплаб тадқиқотчиларнинг ишларида кўриб чиқилган. Ҳ.М.Абдуллаев томонидан Ўрта Осиёнинг эндоген нодир металл маъданлашувининг интрузиялар билан генетик алоқаси асослаб берилган. Кейинги йилларда олиб борилган

петрологик, минерал-геокимёвий ва б. тадқиқотлар билан Ҳ.М.Абдуллаев, Ҳ.Н.Боймухамедов, И.Х.Ҳамробоев каби геолог олимларнинг кўплаб ғояларининг тўғрилигини тасдиқлаганлар.

Ҳозирги кунда Ғарбий Ўзбекистон табиий газ қазиб чиқариш бўйича етакчи ўринни эгалайди, бу ерда нефть ва газ уюмлари асосан юқори юра даврининг риф қурилмалари билан боғлиқ. Шу билан бир қаторда қуйи-ўрта юра ва қадимги давр ётқизиқларини геологик тузилишини ўрганиш, буларга янги нефтьгазга самарали объектларни излаш энг долзарб вазифалардан бири бўлиб келмоқда. Сўнги йилларда бу ётқизиқларни нефтьгазга истиқболи эканлигига далолат берувчи метериалар йиғилиб келмоқда. МОГТ сейсмостратиграфик вақтинчалик қирқими чўкинди қопламага кечки палеозой, перм-триас, қуйи-ўрта юра нометаморфлашган ёки кучсиз метаморфлашган чўкинди жинслари кенг тарқалганлигини тасдиқлайди. Чўкинди қоплама стратиграфик диапазонининг кенг тарқалиши катта чуқурликда нефть ва газ конларини излаш юқори самарадорлигини билдиради, асосан қуйи-ўрта юра ётқизиқларида геологоразведка ишларини кенг миқёсда олиб бориш учун асос бўлади. Сўнги маълумотлар бўйича тоюра ётқизиқларининг юзаси булокли тузилиш билан характерланади. Чорджой поғанаси ҳудудида учта— Шимолий-шарқий, марказий ва Жанубий-Шарқий тектоник блоклар ажратилган бўлиб, бу ўз новбатада қуйи тартибли блоклар билан мураккаблашган. Сейсмогеологик қирқимда тоюра ва терриген юра ётқизиқларини тузилмалари режада муносабати кўриниб турибди, бу қирқим Чорджоу поғанаси шимолий-ғарбдан жанубий-шарқ бўйича ўтган. Ғарбдан шарқга қариб тоюра ётқизиқларини 2 км дан 5 км гача тобора қалинлашиб борган. Шу йўналишга терриген юра ётқизиқларининг ётиш чуқурлиги ортиб борган. Бу қирқимида бир қанча қайтарувчи репрлар Т7, Т8 ва Т81 ажратилган бўлиб, бу қайтарувчи репрлар бу қаватни шартли равишда учта Гуруд, Дегибадам ва Байсун свиталарига мувофиқ сейсмастратиграфик комплексга ажратиш имкони беради. Комплекслар қалинлик муносабати бўйича турлича. Қуйи комплекс ҳамма жойда учрамайди тоюра ҳосилаларнинг кўтарилган блокларига қийиқлашган ҳолда учрайди, иккинчи комплекснинг қалинлиги тоюра ҳосилаларининг ер юзасига чиқан жойларига ўзгаради. Учинчи комплекснинг қалинлиги сезиларсиз даражада ўзгаради. Бу комплекс деярли барча жойларда учрайди ва Бухоро поғанасининг шимолий қисмида учрайди. Шимолдан жанубга томон йўналиш бўйича терриген юра ётқизиқларининг қалинлиги нольдан 3 км гача ўзгаради. Т.Л. Бабаджанов, Л.Г. Черкашина, В.В. Руболар томонидан Ғарбий Ўзбекистон терриген юра ётқизиқларини қалинлик схемаси тузилган бўлиб, карбонат тўпланиш бошланишигача юра палео ҳавзаси ривожланган раён ва областларни жадал эгелиши ёритилган. Бухоро тектоник поғанасида (0-300 м) Чорджоу поғанасининг шимолий – шарқий қисмида (50-400 м) бу ётқизиқларнинг минимал қалинлиги келтирилган бўлиб, Қаракўл эгеклиги бундан мустасно, чунки бу ерда биринчи сейсмостратиграфик

комплекс – қирқимнинг қўйи секцияси ҳисобига қалинлиги кескин ортади (2000 м гача). Чорджоу поғанасининг марказий қисмида бу ётқизиқларнинг қалинлиги 100 м дан 1000 м гача ўзгаради. Кушоб эгеклиги ва Узуншор-Тайкир тектоник бузилиш зонасига қалинлик ошиб борган бўлиб, бу элементлар Чорджоу поғанасини марказий қисмини шимолий-ғарбий қисмдан ажратиб туради. Бешкент эгеклиги томонига йўналган Помук кўтарилмасининг шарқий адири бўйича вақтинчалик қирқимда терриген юра ётқизиқлари оралиғида кўп сонли клиноформалар қийид қилинган бўлиб, юқори қалинликдаги остки юза қисмига туташиб турган номувофиқликлар зонасини ҳосил қилган ва Бешкент эгеклигининг марказий қисмида барча учала стратиграфик комплекс учрайди. Ғарбий Ўзбекистон ҳудудида қўйи-ўрта юра даврининг мустаҳкам давомийлик эгекликлари ва катта кўламдаги чўкинди тўпламлари билан характерланадиган йирик областлар жойлашган. Юра терриген ётқизиқларининг қалинлигини таҳлили шуни кўрсатадики терриген юра ётқизиқлари Чорджоу поғанаси ҳудудида жадал ривожланган ва тоюра ҳосилалари осилган блокларида ҳам жадал ривожланган. Юра палео ҳавзаси катта бўлмаган эгеклиги чизиғи Қаракўл эгеклиги, Узуншор-Тайкир тектоник зонаси орқали ўтиб кейин Амударё флексура-узилмали зонасига туташган раён орқали ва Бешкент эгеклигининг ўқ қисмидан ўтган. Ҳозирги вақтда ўрта юра ётқизиқларининг регионал газлилиги ҳақида умумий тасавурлар мавжуд. Ғарбий Ўзбекистонда Терриген юра ётқизиқларига Аккум-Парсанкул-Даяхатин, Мубарек, Дивалкак-Матанат конларига разведка қилинган ва алоҳида қудуқларда жадал газ намаёнлиги кузатилган. Бу ётқизиқларда очилган барча конлар ва газ намаёнлари ўрта юра даврининг ХВИИИ горизонт қумтошларига мансуб бўлиб ХВИИИ горизонт бу конлар ҳудудида яхши ўрганилган. Терриген юра ётқизиқларини очган Кимерек №1 қудуқда унинг максимал қалинлиги 1400 м ни ташкил қилган. Бу ётқизиқларда иккинчи ва биринчи сейсмостратиграфик комплекслари аргиллитлар, қумтошлар, глинали оралиқ қатламчалар билан характерланиб, глина қатламчалари углеводородлар учун ишончли қопқоқ бўлиши мумкин. Чорджой поғанаси ҳудудида МОГТ вақтинчалик қирқимини олдинги сейсмостратиграфик таҳлили натижаси бўйича терриген юра ётқизиқларида бешта турдаги локал объектлар ажратилган. Истиқболи локал объектлар ва конлар юра палео ҳавзасининг борт қисимларида жойлашган, бўлиб, ўқ қисмидан терриген юра ётқизиқлар қалинлигини кескин ошиши бўйича чизиғ ўтган. Терриген юра ётқизиқларининг катта қалинликдаги зонасига битум ҳосил қилувчи қават шакилланиши учун қулий чўкиндилар тарқалганлигини тахмин қилиш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Хамрабаев И.Х., Ражабв Ф.Ш. Основы петрография // Укитувчи, 1964.
2. Егоров П.Ф., Волкова З.В. Отчет о результатах детальных поисков месторождений вольфрама в Ходжадыкском рудном поле и на участках Восточный Камангаран и Катаган. Отчет Гарданской ГПП за 1980-83 г.г.
3. Егоров П.Ф., Стрыгин В.П. Отчет о результатах детальных поисков в пределах Джамскогоскарнового поля (в западном окончании гор Каратюбе на участках Кызылбаш, Аткамар, Сазаган) и поисково-оценочных работ на рудопроявлении Ходжадык. Отчет Джамской ГПП за 1976-80 г.г.
4. Румянцев Е.А. и др. Геологический отчет о результатах поисковых и поисково-разведочных работ на вольфрам в горах Чакыл-Калян и предварительной разведки северо-восточной части месторождения Яхтон в 1968-71г.г.
5. <http://www.meteorologiarnred.com>
6. <http://www.wikiwand.com>
7. <http://uz.warbletoncouncil.org>
8. <http://uz.m.wikipedia.org>

BOSHLANG`ICH SINIF O`QITUVCHILARINING KASBIY SHAKLLANISHIDA PSIXOLOGIK OMILLAR, KASBIY FAOLIYATI VA PEDAGOGIK KOMPITENTLIK.**Ibodullayeva Madina Muzaffar qizi***Guliston davlat universiteti talabasi***Sheraliyev Sarvarbek Jumali o`g`li***Guliston Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti**Amaliy psixologiya yo`nalishi 1-bosqich talabasi*

Tayanch so`zlar: o`z -o`zini rivojlantirish, kasbiy rivojlanish, kasbiy ehtiyoj, uzluksiz malaka oshirish.

Ключевые слова: саморазвитие, профессиональное развитие, профессиональная потребность, непрерывное повышение квалификации.

Keywords: self-development, professional development, professional need, continuous professional development

Annotatsiya: ushbu maqolada sinf o`qituvchilarining metodik tayyorgarlini oshirish va kasbiy rivojlantirishning ilmiy-pedagogik muammo sifatidagi ahamiyati tadqiq qilingan. Maqolada Boshlang`ich sinf o`qituvchilarining kasbiy rivojlantirish tamoyillari, nazariy va pedagogik jihatlarini ilmiy asoslangan.

Аннотация: в данной статье исследуется значение повышения методической подготовленности и профессионального развития классных руководителей как научно-педагогической проблемы. В статье научно обоснованы принципы, теоретические и педагогические аспекты профессионального развития учителей начальных классов.

Resume: In this article, the significance of the methodical training and professional development of classroom teachers as a scientific-pedagogical problem is researched. In the article, the principles of professional development of primary school teachers, theoretical and pedagogical aspects are scientifically based.

Respublikamiz mustaqil davlat sifatida demokratik jamiyat qurish, dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan o`rin olishni o`z oldiga maqsad qilib qo`ygan ekan, bu xalq ta`limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi oldiga ham muayyan vazifalar qo`yadi. Mazkur vazifalar umumiy o`rta ta`lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o`qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish bilan belgilanadi.

O`qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligi ularning kasbiy faoliyatga doir bilimlar, ta`lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, o`z-o`zini rivojlantirish kabi asosiy kasbiy faoliyat sohalarida aks etadi. Bu esa o`z navbatida, o`qituvchining o`z fanini o`qitishga doir bilimlarni mukammal bilishi va harakatga keltirishi, ta`lim jarayonini loyihalash, tashkil qilish va

baholash uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarni egallashi, shuningdek, o'qitish va tarbiyalash jarayonini ta'lim sohasidagi innovatsion ilmiy yutuqlar, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida intensiv tashkil etish, uzluksiz va tizimli o'z-o'zini rivojlantirishni talab etadi.

Asosiysi, o'qituvchini uzluksiz kasbiy rivojlantirish va shu asosda uning kasbiy va metodik tayyorgarligini takomillashtirishga erishish mumkin. O'z-o'zini kasbiy rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj, bir tomondan, o'qitishning o'ziga xos xususiyati, uning ijtimoiy roli, ikkinchi tomondan, pedagogik faoliyatning doimiy o'zgarib turadigan sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan "hayot davomida o'qish" tamoyili bilan belgilanadi. O'z-o'zini rivojlantirish uzluksizlik, universallik, maqsadga muvofiqlik, integrativlik, umumiylik, individuallashtirish, o'zaro bog'liqlik va doimiylik, past darajadan yuqori darajaga o'tishning doimiyliigi, o'zgaruvchanlik kabi tamoyillarga asoslanadi.

O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omilardan biri sifatida ta'lim muassasasida uzluksiz malaka oshirish jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish zaruriyatini keltirish mumkin. Ilmiy asoslarda tashkil etilgan uzluksiz malaka oshirish jarayonlarining ilmiyligi - yangiliklarni izlash, o'rganish va ularga asoslanish hamda ilmiy asoslangan ma'lum otlardan foydalanish, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik, psixologik va ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini o'zlashtirish, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga innovatsion yondashuv texnologiyalarini joriy etish kabi vazifalarni belgilaydi.

Pedagogik tajribalardan ma'lumki, pedagog faoliyati o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, u o'qituvchidan nafaqat oliy ma'lumotga, balki yetarli kasbiy tayyorgarlikka, pedagogik va kasbiy tayyorgarlik yo'nalishida bilim, ko'nikma va malakalarga, shuningdek, ma'lum tajribaga ham ega bo'lishni talab etadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchilarning eng asosiy va muhim ahamiyat kasbiy o'qituvchi funksiyalarini amalga oshirish jarayoni bir qancha vazifalarning bajarilishini, ya'ni pedagogik jarayon sub'yektlariga zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, ularning faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholash, shuningdek, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari bilan qurollantirish kabi qator vazifalarni ham amalga oshirishni nazarda tutadi.

Zamonaviy shart-sharoitlarda pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, ya'ni ularning professionaligi, o'qituvchilarning faoliyatini muvofiqlashtirish va pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlashda kompetentli bo'lishi muhim ahamiyat kasbiy etadi. Chunki pedagogik jarayonlarni ilmiy asoslarda tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi zamonaviy talablar o'qituvchilarning o'z bilimlari, ko'nikma va malakalarini uzluksiz rivojlantirib borishini taqozo etadi. Bu o'z navbatida, o'qituvchilarning faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etishni nazarda tutadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim muassasalari o'qituvchilari muntazam ravishda o'zining kasbiy bilimi, ko'nikma va malakasini rivojlantirib borishi, boshqaruv yo'nalishidagi tushunchalarini kengaytirishi, fan va texnika yutuqlarini,

zamonaviy pedagogik va yangi axborot texnologiyalarini o'zlashtirib borishi zarur. Ta'lim tizimini isloh qilish jarayonlarida qisqa vaqt ichida amalga oshirilayotgan o'zgartirishlar va yangiliklar asosida pedagog xodimlarga belgilanayotgan zamonaviy talablar ta'lim va yoshlar to'g'risidagi hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushunib yetadigan hamda targ'ibot qiladigan; o'z fanini chuqur biladigan, pedagogik jarayonlarda o'quvchilarning sub'yektivligini va faolligini oshirishga alohida ahamiyat qaratadigan; o'zaro do'stona munosabatlarga asoslangan hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalariga ega bo'lgan; pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, o'quvchilar va pedagoglar hamkorligini shakllantirish va muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlarda motivlashtirish, refleksiv faoliyat jarayonlarini tashkil etish asosida refleksiv ta'limiy muhitni shakllantirish yo'nalishlarida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan o'qituvchi shaxsini shakllantirishni taqozo etadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malakasini oshirish tizimida metodik tayyorgarligini takomillashtirish, uzluksiz kasbiy rivojlantirishning ko'p jihatdan nazariy yoritilishiga qaramay, jamiyat, fan va

ta'limning yangi yo'nalishlari o'qituvchini innovatsion metodik tayyorgarligini takomillashtirish, uzluksiz kasbiy rivojlantirish zaruriyatini kuchaytiradi.

Shundan kelib chiqib, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish, uzluksiz kasbiy rivojlantirish muammosini ilmiy jihatdan tahlil qilish natijasida quyidagi qarama-qarshiliklar mavjudligi aniqlandi:

- zamonaviy ta'limni innovatsion jarayonlarga yo'naltirish va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion o'quv jarayonini amalga oshirishga doir nazariy va uslubiy tayyorgarligi o'rtasida;

- boshlang'ich sinf o'qituvchisini uzluksiz kasbiy rivojlantirish zarurati va mavjud holatda bu jarayonga ilmiy-metodik yondashuvlar yetarli darajada rivojlanmaganligi o'rtasida;

- o'qitishning an'anaviy bilimga asoslangan yondashuvi va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish, uzluksiz kasbiy rivojlantirishda kompetentlikka asoslangan, faol va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarni talab qiladigan ta'limdagi zamonaviy innovatsion tendensiyalar o'rtasida;

- o'qituvchilarning innovatsion metodik tayyorgarligi sifatini oshirish zaruriyati va boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish uchun rivojlantiruvchi texnologiyalar va mexanizmni resursli qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi o'rtasida. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish va kasbiy rivojlantirish zaruriyatini belgilovchi bosh mezon bu inson oldiga qo'yilgan maqsad bo'lib, unga erishish uchun vazifalar belgilash, tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini tanlash va loyihalashtirish, maqsad va natijani muvofiqlashtirish zarur hisoblanadi. Demak, har bir o'qituvchi o'z-o'zini kasbiy rivojlantirish uchun ma'lum darajada o'z dunyoqarashiga, tafakkuri, tasavvuri va mavjud bilimiga,

shaxsiy va kasbiy ehtiyojlariga asoslanadi. O'qituvchilarda o'z-o'zini kasbiy rivojlantirish yo'nalishida shakllantiriladigan ehtiyoj davlat va jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqishi lozim. Metodik tayyorgarlikni takomillashtirish va o'z-o'zini kasbiy rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj yetarlicha shakllantirilsa, o'qituvchilarda o'z kasbiga oid yangiliklarni, fan-texnika yutuqlarini o'rganishga qiziqish shakllanadi, bu o'z navbatida o'qituvchilarda mustaqil ta'lim olish ya'ni mustaqil o'rganish, o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirishga, bu orqali o'qituvchilarda metodik tayyorgarlikni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, o'qituvchilarni o'z faoliyatida ma'lum bir ijobiy natijalarga erishish, o'qituvchilar jamoasida obru-e'tibor qozonish, o'zini o'zi boshqarish va rivojlantirish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi. Shuningdek, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etuvchi vositalardan biri muvaffaqiyatga bo'lgan ehtiyoj bo'lib, bu ma'lum bir vazifani mas'uliyat bilan bajarish orqali ko'zlangan natijalarga erishishga xizmat qiluvchi - o'qituvchini o'zini o'zi kasbiy rivojlantirish ehtiyoji hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonlarida o'qituvchilarning faoliyatlarini takomillashtirish va ta'lim-tarbiya jarayonlarining samaradorligini oshirishning eng asosiy shartlaridan biri o'qituvchilarning innovatsion faoliyatini tashkil etish zaruratidir. O'qituvchilarning innovatsion faoliyati - yangiliklarni izlash, o'rganish va ularga asoslanish hamda ilmiy asoslangan ma'lumotlardan foydalanish, pedagogik, psixologik va ijtimoiy-iqtisodiy yangiliklarni o'zlashtirish asosida ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuv texnologiyalarini joriy etish orqali pedagogik jarayoni samaradorligini ta'minlashdir

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ангеловски К. Учителя и инновации. Книга для учителя. -М.: Просвещение, 1991,

2. Арефьев Р.С. Формирование готовности к самопроектированию коммуникативной компетентности у студентов педагогического вуза: дисс....канд.пед.наук. -С.: 2004.

3. Toshpo'latova M.I. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish. ped.f.dok. (PhD) diss. - T.

4. Muslimov N.A. Kasb ta'lim o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: ped.f.dok. ...diss. -T.:2007,

5. Yuldashev M.A. Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirishda ta'lim sifati menejmentini takomillashtirish: ped. fan.dok. ...diss. -T.

6. Ximmataliyev D.O. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi (texnika oliy ta'lim muassasalari "Kasb ta'limi" yo'nalishlari misolida): ped. fan. dokt. ... diss. - T.

ЗАХИРИДДИН БАБУР - ПАТРИОТ, ПОЛИТИК И ПОЭТ**Исламова Зарифа Усмоновна**

*Учитель русского языка общеобразовательной школы
№80 Деновского района Сурхандарьинской области.
Сурхандарья, Республика Узбекистан*

Аннотация: *статья посвящена творчеству Захириддина Мухаммада Бабур. Как и другие тимуридские правители Бабур в своей столице Агре собирает вокруг себя немало выдающихся писателей, поэтов, музыкантов и художников того времени, тем самым, способствуя развитию науки и культуры.*

Ключевые слова: *Бабур, писатель, поэт, музыкант, художник, наука, культура.*

В 2023 году исполняется 540 лет со дня рождения великого полководца Захириддина Мухаммада Бабур. Его имя в истории Узбекистана стоит наравне с такими деятелями политики и военного дела как Джалоддин Мангуберды, Амир Тимур, Мирзо Улугбек, Алишер Навои.

За огромные достижения в военном искусстве и создании империи Бабуридов в Индии его прозвали «Тимуридский царевич».

Бабур родился в семье тимуридского принца Умаршейха -правителя Ферганской области в 1483 году в разгар междоусобной борьбы различных тимуридских правителей в Средней Азии, и в Хорасане за передел обширной территории созданного Амиром Тимуром государства. В возрасте 12 лет после трагической гибели своего отца Бабур становится новым правителем и вступает в борьбу за власть в Мавераннахре. В течение 1494-1496 годов, будучи еще подростком, он участвует в сражениях за Самарканд и впервые встречается на поле боя со своим самым сильным врагом - Шейбаниханом, который оказал огромное влияние

на дальнейшую судьбу З.М.Бабур. Предводитель кочевых узбеков Мухаммед Шейбанихан, умело воспользовавшись неурядицами и политическими междоусобицами среди правителей Мавераннахра и Ферганы, в 1504 году овладевает Самаркандом, Андижаном и Ташкентом, тем самым вынуждает Бабур покинуть эти территории и обосноваться в Кабуле и Бадахшане. Неоднократные попытки Бабур в 1505-1515 годах вернуть «подвластные владения» государства Тимуридов окончились полной неудачей. В результате он направился на Индию. В 1526 году в битве при Панипате, к северу от Дели, делийский султан Ибрахим Лоди потерпел поражение и Бабур стал правителем Северной части этой страны. [1]

Большую часть своей жизни великий полководец провёл в военных походах и сражениях. В последующие годы он упорно стремился создать в Мавераннахре крупное централизованное государство, объединив его разрозненные области и создать новое великое государство Тимуридов, но планы полководца не увенчались успехом. Его мечтам суждено было осуществиться в Индии, куда он отправился со своими войсками в 1526 году. В этой стране Бабуру удалось создать основу для своей империи, которую позже в западных источниках называли «Империей великих моголов». Она просуществовала около 300 лет - до XIX века.

Идеи Бабура проповедовали установление согласия между народами, а также внедрение просвещения во все слои населения. Как и другие тимуридские правители Бабур в своей столице Агре собирает вокруг себя немало выдающихся писателей, поэтов, музыкантов и художников того времени, тем самым, способствуя развитию науки и культуры. Наряду со своей военной и политической деятельностью З.М.Бабур был ярким представителем искусства того времени. За свою 47-летнюю жизнь он оставил многогранное и богатое литературное наследие. В его стихотворениях реалистически отражены исторические события той эпохи, его личная жизнь, окружающая среда, отношение к человеку, религии и обычаям. Перу известного

поэта принадлежит одно из самых известных в мировой литературе восточных произведений «Бабур-наме», снискавшее мировую признательность, оригинальные и прекрасные лирические четверостишия (газели, рубаи), трактаты по мусульманскому законоведению («Мубайин»), поэтике («Аруз рисоласи»), а также специальный алфавит «Хатт-и Бабури». «Бабур-наме» является ценным источником по изучению истории, культуры, искусства, музыки, военного дела, быта народов, флоры и фауны тех областей, которые посещал Бабур. Туда вошли его личные записи, дневники, которые вел поэт на протяжении всей своей жизни. Литераторы отмечали, что стихи Бабура - это его автобиография, в которых поэтическим языком трогательно излагаются глубокие чувства, мастерски рассказывается о переживаниях, порожденных в результате столкновения с жизненными обстоятельствами. Об этом красноречиво говорил сам поэт:

Каких страданий не терпел и тяжких бед, Бабур? Каких не знал измен, обид, каких клевет, Бабур? Но кто прочтет «Бабур-наме», увидит сколько мук И сколько горя перенес царь и поэт Бабур. Лирика поэта пропитана вдохновенной поэзией Алишера Навои. Известна переписка Бабура незадолго до смерти основоположника узбекского языка и литературы. Также в его произведениях особое место занимает тема Родины, в ней с большой впечатляющей силой выражены тоска по родной земле и беспредельная любовь к родным просторам: Ты на чужбине - и забыт, конечно, человек! Жалеет только сам себя сердечно человек, В своих скитаньях ни на час я радости не знал! По милой родине скорбит извечно человек. В своих газелях и рубаи поэт поднимает такие проблемы человеческих взаимоотношений, как любовь,

дружба, стремление к прекрасному, благородству, человечности и т.д. Земную любовь он воспекает как самое высокое человеческое достоинство. Бабур утверждает, что ради свидания с возлюбленной он готов вынести любые

трудности. Без нее он не представляет себе жизни. С большой искренностью поэт выражает готовность пожертвовать ради любви самим собой, всем своим существом. Любовь для Бабура превыше богатства, общественного положения и земных благ. Поэт в своих газелях создает образ прекрасной возлюбленной, наделяя ее небывалою красивою внешностью, богатым внутренним и духовным содержанием. В его поэзии также затронуты вопросы нравственности и духовного совершенства человека. Он возвышает его, относится к нему с глубоким уважением, высоко ставит достоинство личности. В рубаи он говорит о том, как человек должен воспитывать в себе лучшие моральные качества.

Центральное место в творчестве Бабура занимает бесценный литературный памятник на узбекском языке под названием «Бабурнаме». Это исторический труд, который востоковед В.Бартольд назвал «лучшим произведением тюркской прозы». Книга была завершена в Индии и носит в основном автобиографический (мемуарный жанр) характер, отражает историю народов Центральной Азии конца XV -начала XVII веков. По совокупности сведений и их достоверности «Бабур-наме» является самым важным и ценным историко-прозаическим трудом, не имеющим себе равных среди аналогичных сочинений, написанных в средние века в Средней Азии, Иране, Афганистане и Индии. По богатству и разнообразию материала, по языку и стилю оно стоит выше любой исторической хроники, составленной придворными летописцами того времени. Не удивительно поэтому, что в разные времена этот труд привлекал пристальное внимание ученых всего мира. «Бабур-наме» посвящен описанию деятельности поэта, его удачных и неудачных военных походов, изложению всех перипетий его жизни.

Бабур был одним из величайших людей своего времени. Великие литературные творения З.М. Бабура обессмертили его имя в века. Интерес к замечательным творениям поэта во всем мире возрастает год от года.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Захириддин Мухаммад Бабур: полководец, политик, поэт. [Электронный ресурс]. Режимы доступа: <https://www.advantour.com/rus/uzbekistan/culture/literature/babur.htm/> (дата обращения: 20.02.2020)

**AQLAN ZAIF O'QUVCHILARDA O'QISH JARAYONINING PSIXOFIZIK TUZILISHI
XUSUSIYATLARI VA TAHLILI****Muzaffarova Xayitgul***JizzaxDPU Maxsus pedagogika kafedrası katta o'qituvchisi***Yuldosheva Mohira***Logopediya yo'nalishi II-bosqich magistri*

Annotasiya : Maqolada yozma nutqni egallash umuman insonning ijtimoiy moslashuvida zarurligi, bu nutqni egallab olish o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishga, shaxsmi shakllantirishga va ularning ijtimoiy-mehnatga moslashuviga imkon yaratishi, yozma nutq, og'zaki nutq kabi tafakkurning asosiy vositasi hisoblanishi haqidagi tadqiqotchilar fikr - mulohazalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Nutq faoliyati, disgrafik va orfografik xatolar, qiyosiy tahlil, yozuv kamchiliklari, o'quvchi, disorfografiya, somatic, psixik holat, maktab, psixik funksiyalar, diqqat, xotira, nutq, tasavur va tafakkur.

Annotation : The article analyzed the researchers' opinions about the need to socialize an entire person, that learning this speech allows students to develop their thinking, to form an individual, adapt them to social and social activities, and to be considered the main tool of tafakkurning, such as written discourse and oral discourse.

Keywords. Speech activity, dysgraphic and spelling errors, comparative analysis, writing deficiencies, student, dysmorphography, automatics, psychological condition, school, psychological functions, attention, memory, speech, taste and thinking.

O'qish nutq faoliyati turlaridan biridir. Nutq faoliyati - fikrning moddiylashuvi, ya'ni uning so'zga aylanishi jarayonidir (L. S. Vigotskiy). Uning yordami bilan siz o'z fikrlaringiz va his-tuyg'ularingizni ifodalashingiz, shuningdek o'zgaralar nima haqida xabar berishini tushunishingiz mumkin. A. K. Aksenovanning fikricha, o'qish nutq faoliyatining bir turi bo'lib, uning maqsadi harfni tovushga aylantirish va o'qilgan ma'lumotni tushunishdir [2]. Ushbu ta'rifdagi muhim nuqta shundaki, o'qish so'zning tovush shaklini to'g'ri tushunishga yordam beradi, chunki o'qishni boshlagan bola albatta tovushga tayanadi. Bog'inma-bo'g'in o'qish jarayoni bir necha bosqichlardan o'tib, asta-sekin to'g'ri, ongli, ravon, o'z-o'zidan ifodali o'qishga aylanadi. Ammo o'qish davomida bola notanish so'zni uchratishi bilanoq, u yana pichirlab o'qishga o'tadi.

Hozirgi vaqtdagi jamiyatda turli hayotiy vaziyatlarda yozma nutq orqali muloqot, aloqa qilish ehtiyoji har kuni yuzaga keladi. Yozma nutqni egallash umuman insonning ijtimoiy moslashuvida, xususan esa maktabning bitiruvchisi uchun ham juda zarurdir. Yozma nutqni egallab olish o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishga, shaxsmi shakllantirishga va ularning ijtimoiy-mehnatga moslashuviga imkon yaratadi. Yozma nutqni

shakllantirish boshlang'ich sinf o'quvchilarini rivojlantirishning muhim tomonlaridan biridir. Yozma nutq, og'zaki nutq singari tafakkuming asosiy vositasi hisoblanadi. U faqatgina tayyor fikmi ifodalabgina qolmay, balki tafakkuming shakllanish jarayonida xam ishtirok etadi.

Rus psixologi L.S.Vigotskiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchining shaxsini va nutqini shakllanishi individ tomonidan avvalgi avlodlar to'plagan ijtimoiy tajribani o'zlashtirish yo'li bilan amalga oshadi deb ko'rsatadi. Insonning shaxsi o'zining tabiatiga ko'ra ijtimoiy bo'lib, psixik jarayonlarning rivojlanishi atrofda ijtimoiy muhit, jamiyatda yuz beradi deb ta'kidlaydi.

L.S.Vigotskiy o'zining ilmiy izlanishlarida quyidagi fikrlarni bildiradi: "O'quvchi psixikasining rivojlanishi ijtimoiy xarakterga ega. Bunda muhim shartni o'qitish va ta'lim egallaydi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarda psixik jarayonlarning ongliligi va ixtiyoriyligi yuzaga keladi va rivojlanib boradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi yozma nutqni o'rganib boradi, yozma nutq og'zaki nutqga nisbatan idrokning to'liqliligini, bayonning o'ylanganligini talab etadi"⁴.

O'quvchi shaxsining psixik rivojlanishida yozma nutqning muhimligini rus tadqiqotchilari P.O.Afanasyeva, V.A.Dobromislova, T.A.Ladijenskaya, M.S.Zakojumikovalar o'z ilmiy ishlarida asoslab berganlar. O'quvchilarda og'zaki va yozma nutqning buzilishi muammosi ancha yillardan buyon tadqiqotchilarning diqqat markazida turibdi.

Yozma nutqning buzilishi birlamchi, mustaqil nutq buzilishi sifatida olib qaralishi lozimligi haqidagi fikrni birinchi bo'lib 1877 yilda doktor A.Kussmaul bildirdi. Muallif buni "so'zlarga bo'lgan ojizlik" deb atagan. Binobarin, ushbu holatda bolaning ko'rish qobiliyati, nutqi va intellekti buzilmaydi. A.Kussmaul ushbu buzilishlarga alohida nuqson sifatida qaragan. O'sha davrlarda qisqa muddat ichida yozma nutq buzilishlari haqida juda ko'p maqolalar chop etilgan bo'lib, "so'zga ojizlik" atamasi ommaviylashib ketadi.

Yozma nutq buzilishlari haqida maxsus ishlar birinchi bo'lib 1896 yil ko'z shifokorlari Dj.Ker va V.Morganlar tomonidan chop etildi. Bu mualliflar aleksiya va agrafiya nutq buzilishlarini o'rgangan birinchi tadqiqotchilar hisoblanadi. Ular o'qish va yozuvdagi buzilishlarni o'rganishning dastlabki bosqichlarida bosh miyaning qisman shikastlanishi natijasida kelib chiqadigan alohida bir-biriga bog'liq boimagan mustaqil nuqson deb qaraganlar. Bu yo'nalish tarafdorlari bo'lgan mualliflarning Dj.Kerr, V.Morgan, D.Qnshelvud, P.Ranshburg va boshqalar takidlashicha, bunday buzilishlarning asosini ko'rish qobiliyatining to'liq emasligi natijasida so'zning harflar tarkibini anglay olmaslik yoki aqli zaiflik tashkil etadi.

O'qish va yozishdagi buzilish klinikasi P.A.Tkachev va S.S.Mnuxinlar tomonidan amalga oshirilgan. Boshqa mualliflarning qarashlari hamda o'zlarining tadqiqotlaridan kelib chiqib

⁴ Vigotskiy L.S. Sobraniye sochineniy. - Moskva 1992 g.

ular quyidagi xulosaga keladilar, yani o'qish va yozishdagi bimlishlar alohida buzilish, balki birlamchi patalogiya asosidagi o'qish va yozish buzilishlari bilan vujudga keladi.

S.S.Mnuxinning ta'kidlashicha, ushbu buzilishlarning asosiy sabablari turli ko'rinishdagi asoratlar, ya'ni alkogolizm, psixopatiya, ota-onalardagi epilepsiya (tutqanoq kasalligi), tug'ruq davridagi asoratlar va shikastlanishlar hisoblanadi. S.S.Mnuxin ushbu buzilish oilaviy tus olishini ham ko'rsatib o'tgan. Ba'zi mualliflarning ta'kidlashicha, o'qish va yozuvdagi kamchiliklar psixik rivojlanishi sustlashgan o'quvchilarda va oligofreniyaning sindromi sifatida nomyon bo'ladi (Y.G. Demyanov, Ye.M. Mastyukova, I.I. Amburkaytes).

Nutqni o'zlashtirishda o'quvchining eshitish qobiliyati muhim ro'l o'ynaydi. Eshitish qobiliyati Ikkiga bo'lib o'rganiladi: fizilogik eshitish va fonematik eshitish. Fiziologik eshitish - bu nutqdan tashqaridagi barcha tovushlarni eshita olish, ma'lum bo'g'in va so'z ichidan aniqlay olish, bir-biridan ularni sifat belgilariga (unli, undosh, jarangli, jarangsiz) ko'ra bilish va farqlay olishdir. L.R.Luriya nutq tovushlari va fonemalar tilning fonematik tuzilishiga bog'langan tizimdan tashkil topgan bo'lib, bu nutq tovushlarini bir-biridan farqlash uchun, ularni shu tizimga mos ravishda kodlashtirish, ya'ni fonematik belgilarni haqqoniy bo'lmagan "variantlardan ajrata olish kerak" degan fikmi ilgari surgan.

L.K.Nazarova fikricha, fonematik tasavvurlar o'quvchida fonemalarning turli variantlarini kuzatishi natijasida shakllanadi. Bunda har bir nutq tovushining turli xil talaffuz variantlarini yagona tovushga birlashtira olish ko'nikmasi ko'zda tutiladi. Muallif bu ko'nikmalarni so'zning tovush tahlilini shakllantirishda asos deb hisoblaydi. L.K.Nazarova va V.G.Ananyev fonematik tasavvur deganda, tovush shakli jarayonida shakllanuvchi fonemalarni nozik farqlay olish qobiliyatini tushunadilar.

R.Ye. Levina nutq buzilishlarni tahlil qilar ekan, tilning tizimligidan kelib chiqib, nutqning alohida komponentlardagi buzilishlari o'rtasidagi aloqani ochib berdi. Uning tekshirishlari shuni ko'rsatadiki, nutqning talaffuz kamchiliklari ikkilamchi omil sifatida fonematik idrok nuqsonlariga, tovush analizining buzilishiga, o'qish va yozishni, og'ir xollarda esa tilning lug'at va grammatik tuzilishini o'zlashtirishning kechikishiga sabab bo'ladi.

F.A.Rau, M.Ye.Xvatsevlar tekshirishlarining boshlang'ich bosqichini rivojlanishida o'qish va tovushlar talaffuzidagi buzilishlar o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligi haqida fikr yuritadilar. Savodni egallashda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar salbiy ta'sir qilishiga katta ahamiyat bergan Rau bu xodisani eshitish diqqatining va og'zaki nutqning buzilishidan deb hisoblaydi. N.A.Nikashina, R.Ye.Levina, L.F.Spirova, G.A.Kashe, I.K.Kolpakovskaya, G.V.Chirkina, A.V.Yastrebovalar nutqning lug'at va grammatik tomondan shakllanmaganligi savodni o'zlashtirishda salbiy ta'sir etishini, o'quvchilarda og'zaki nutqdagi kamchiliklar yozma nutq buzilishlariga olib kelishini isbotlab berdilar hamda, nutqida kamchiligi bor o'quvchilarda yozma nutq buzilishini oldini olish va bartaraf etish bo'yicha korreksion metodikalarini yaratdilar.

Ko'pgina chet ellik mualliflar ham yozuvdagi disgrafik buzilishlarni korreksiyalashda og'zaki nutqni, fonematik idrokni, tovushlar analizi va sintezini rivojlantirish kerakligiga katta ahamiyat beradilar (Sawa V., Sawar K., Bitnar-Xis).

A.V.Yastrebova nutqi to'liq rivojlanmagan umumta'lim maktab o'quvchilarida korreksion ish asoslarini ishlab chiqadi, fonematik kamchilikka ega bo'lgan o'quvchilarda og'zaki va yozma nutqni har tomonlama tahlil qildi, ushbu kategoriyadagi o'quvchilarda ona tilida dastur materiallarim o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni yo'qotish va nutq nuqsonlarini bartaraf etish bo'yicha korreksion ishning mazmuni, bosqichlari va ish usullarini ishlab chiqadi.

G.A.Kashe o'quvchilarga tovush analizi va sintezi usuli bo'yicha savod o'rgatish uchun, ularni barcha nutq tovushlarini farqlashga, so'zlarni bo'g'inlarga, bo'g'inlarni tovushlarga ajrata olishga, so'zda tovushlarni ketma-ketligini aniqlash, gapni so'zlarga bo'lishga o'rganish zarurligini ta'kidlaydi.

I.V.Pashchepovning tadqiqotidan yana bir g'oyat muhim xulosa kelib chiqadi: nutqida kamchiligi bor o'quvchilarda disgrafiya nutqiy bo'lmagan bir qator psixik funksiyalarning (analiz, sintez, qiyoslash, tasniflash, eshitish-nutqiy xotira, diqqat, ritmik tasavvurlar kabi nutqiy-mantiqiy operatsiyalar) shakllanmaganligi bilan belgilanadi.

R.Ye.Levina va R.M.Boskislarni yozma nutq buzilishi mohiyatini, sabablari va mexanizmlarini o'zlarning fundamental tadqiqotlarida ko'rsatib otdilar. Ular shuningdek «akustik agnoziya» holatini ta'riflab, o'quvchilarda eshitish saqlangan holda, fonematik qabul qilishning buzilishi natijasida uning og'zaki va yozma nutqida kamchiliklar kuzatilishini ko'rsatib berdilar. Keyinchalik R.M.Boskis va R.Ye.Levinaning tomonidan birinchi marta o'quvchilarda akustik gnozis buzilishlarning belgilari aniqlandi. R.Ye.Levinaning fikricha, savod o'rganish fonematik qabul qilishning yetarli darajada rivojlanganligiga bog'liq.

R.Ye.Levina shuningdek birinchi bo'lib harflarni almashtirishdagi xatolarni ham to'liq tahlil etdi, hamda ushbu xatoni fonematik yetishmovchilik bilan bog'liq bo'lgan yozma nutq buzilishidagi disgrafik xato deb hisoblashni taklif etdi.

V. N. Kornev yozuvdagi kamchiliklarni o'rganishda yangi yo'nalishga asos soldi: disgrafik va orfografik xatolarning qiyosiy tahlili. Uning tadqiqotlarida o'ziga xos yozuv kamchiliklariga ega bo'lgan o'quvchilarda har xil turdagi xatolar o'rtasidagi bog'liqlik mavjud ekani ishonarli tarzda asoslab berilgan.

A.N.Komevning fikricha, disorfografiya kuzatilgan o'quvchilarda orfografik malakalarning shakllanishida asosiy qiyinchilik qoidalarni yod olishda emas, balki yozish jarayonida ularni qo'llashda namoyon bo'ladi. Yozuvning buzilishi bir necha sabablarga ega: bu holat bolaning umumiy somatik va nerv-psixik holati, maktabda o'qishga emotsional tayyor emasligi, bilim ko'nikmalarining yetarli emasligi, psixik funksiyalar (diqqat, xotira, nutq, tasavur va tafakkur)ning buzilishi yoki to'liq shakllanmaganligi natijasida kelib chiqishi mumkin. Har bir bola alohida rivojlanish xususiyatiga ega. O'qish va yozuvda kamchiligi bo'lgan o'quvchilarning umumiy tekshirilganda, ularning ko'pchiligida nerv

sistemasining buzilish kuzatilgan. Keyingi yillarda nevrologik patologiya bilan tug'ilayotgan bolalar soni ko'payib bormoqda. Nevrologik simptomlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Qabul qilish qobiliyatining sustligi;
- Tez - tez bosh og'rib turishi;
- Aqliy mehnat bilan shug'ullanganda tez charchab qolish;
- Diqqatning yetarli emasligi;
- O'z xatti-harakatini to'liq boshqara olmaslik;
- Xotiraning sustligi.

Shuni inobatga olish lozimki, yuqorida ko'rsatilgan belgilar rivojlanishning me'yorida chetlashishga to'liq sabab bo'lmaydi. Bunday belgilar miyaning minimal disfunktsiyasi sifatida ma'lum. Bu belgilar bola ta'lim olishni boshlaganda, uning nerv sistemasiga katta hajmda yuklama tushganda namoyon bo'ladi. Yozma nutqni egallash nutq-eshituv, nutq-harakat, umumiy harakat analizatorlari, xamda fazoviy qabul qilish, ko'rish xotirasi kabi psixik funksiyalar bilan bog'liq. Odatda ushbu funksiyalarning o'zaro bog'lanishi 7 yoshga kelib shakllanadi. Maktab dasturini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar sababini bilish, aniqlash, farqlash uchun bolaning maktabga tayyorligi nimalardan iborat ekanligi haqida tushunchaga ega bo'lish kerak. Tibbiyot va psixolog olimlar quyidagi tayyorgarlik darajalarini ko'rsatadilar:

1. Bolaning jismonan tayyorligi: bolaning vazni, bo'yi, jismonan baquvvatligi, muskullar tonusi, ko'rish, eshitish, umumiy harakat ayniqsa mayda qo'l motorikasi, ya'ni barmoqlar harakati (qalam - ruchkalanii to'g'ri ushlab uchun) bilan ko'rishning bog'liqligi, nerv sistemasi holati, qo'zg'aluvchanlik va tormozlanishning me'yordaligi, diqqatni jamlay olishi, aqliy ish faoliyatining me'yorida rivojlanganligi;

2. Intellektual tayyorligi: lug'at boyligining kengligi, bilish jarayonlarning rivojlanish darajasi (diqqati, xotirasi, ko'rish-fazoviy qabul qilish, tasavuri, nutqi), berilgan vazifani mustaqil bajara olishi, bajaradigan ishni rejalashtira olishi, vazifani talab darajasida bajarishi hamda o'z kamchiliklarini topa bilishi;

3. Ijtimoiy-shaxsiy tayyorligi: o'z hatti-harakatini boshqara olishi, o'z oldiga qo'ygan maqsad va kattalar talabini bajarishga intilishi, ijtimoiy holatini tushunishi, o'quv mativlarni tushuna bilishi (nima uchun o'qish kerak);

4. Emotsional-irodaviy tayyorligi: bolaning oldiga qo'ygan maqsadni bajarish uchun o'zini tayyorlab borishi, maqsadga yetish uchun harakat qilishi, to'siqlarni yenga olishi, faoliyat davomida yutuq va kamchiliklarga to'g'ri munosabatda bo'lishi, kamchilik va mag'lubiyatlardan tushkunlikka tushmasligi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muminova L., Ayupova M. "Logopedia". The T., Teacher 1993 y
2. Nurkeldiyeva, D. A., M. Y. Ayupova, and Z. M. Ahmedova. "Barmoqlar mashqi va logopedik o'yinlar." T.: Yangi asr avlodi (2007).
3. Ayupova, M. Yu. "Speech Therapy Publishing House of the National Society of Philosophers of Uzbekistan." (2007).
4. Ayupova, M. Y. "Logopediya. Ozbekiston Respublikasi Oliy va orta maxsus talim vazirligi." T.: Ozbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti (2019).
5. Ayupova, Mukarram Y., and Shahnoza M. Amirsaidova. "Meaning of Speech in Mental Development of Child." Eastern European Scientific Journal 2 (2018).
6. Ayupova, Mukarram, and Aziza Jumabayeva. "Pedagogical and psychological characteristics of speechimpaired children in preschool education." Science and Education 2.5 (2021): 544-549.
7. Ayupova, Mukarram Yu. "Speech Preparation of Preschool Children with Speech Deficiency for School Education." Journal of Pharmaceutical Negative Results (2022): 2345-2353.
8. Ayupova, Mukarram Y. "Characteristics of general and small motor functions in children with dysarthric speech deficiency." current research journal of pedagogics 3.02 (2022): 13-21.
9. Ayupova, Mukarram. "On the basis of games for children with speech deficiency literacy teaching." Academicia: an international multidisciplinary research journal 11.2 (2021): 1496-1501.
10. Музаффарова Х.Н., Pedagogical possibilities of organizing professional practice of students of preschool speech therapy. International Congress on Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences Bilbao, Spain, March 27th, 2022. conferencezone.org. 312-314
11. Музаффарова Х.Н., Мактабгача логопедияни ўқитиш методикаси бўйича дидактик ва мотивацион имкониятларни такомиллаштириш модели. "Бола ва замон" журнали 2022/3.Т.: 19-23 бет
12. Музаффарова Х.Н., Болаларда нутқ бузилишлари ва уларга коррекцион ёндошиш усуллари., "Тафаккур зиёси" журнали. 2020/1. Ж.: 153-155 бет
13. Музаффарова Х.Н., Мактабгача логопедияни ўқитиш методикаси бўйича назарий машғулотларни ташкил этиш технологиялари., " Ўзбекистон миллий университети хабарлари" журнали. 2022 /8/1. -Т.: 152-156 бет
14. Музаффарова Х.Н., Мактабгача логопедияни ўқитиш методикасида логопед ўқитувчиларининг касбий маҳоратини шакллантириш йўллари., "Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириш Нөкис" журнали. 2022, 4/1 Қарақалпақстан, - 119-124 б

15. Музаффарова Х.Н., Мактабгача таълим муассасаси машғулотлар жараёнида ўйин фаолиятидан фойдаланишнинг педагогик аҳамияти., “Мактабгача ёшдаги болалар таълим тарбиясини такомиллаштириш муаммо ва ечимлари” мавзусидаги республика илмий амалий анжуманининг мақолалар тўплами. Жиззах, 2016 йил. 145 б

16. Музаффарова Х.Н., “Педагогик технологиялар ва уларни махсус таълим муассасаларига тадбиқ этиш”. Республика илмий-назарий анжуман материаллари 16ўлим нөкис — 2018. -Б 127-130 б

17. Музаффарова Х.Н., Таълим – тарбия жараёнида инновацион усуллардан фойдаланишда ўқитувчининг маҳорати., Педагогиканинг долзарб муаммо ва ечимлари Республика илмий-амалий анжумани материаллари. -Жиззах , 2021-№ 3, -Б 99-103

18. Музаффарова Х.Н., Ўқитиш жараёнида педагогик технологиялардан фойдаланиш масалалари., “Бола ва замон” журнали 2019/2. Т.: -57-62 б

19. Музаффарова Х.Н.,Ўзбекистонда бакалавр педагогларни тайёрлашнинг инновацион моделлари., Psycho – pedagogical problems ofa personality and social interaction : matirials of the VII inter national scientific conference. May 15-16, 2016. e-mail: sociosfera@seznam.cz. 151-153 б

ВОЗМОЖНОСТИ И ПРИИМУЩЕСТВА РАДИОЭЛЕКТРОННОЙ РАЗВЕДКИ**Савин Евгений Владимирович***преподаватель Учебного центра военной подготовки НУУ*

Аннотация: *В современных условиях организация боевых действий и надежное руководство войсками немыслимы без широкого применения радиоэлектронных средств (РЭС), которые являются основой систем управления и неотъемлемой частью большинства новых видов оружия.*

Ключевые слова: *Электронная война, ситуационная разведка, информационная война, РЭБ, радиоэлектронная разведка, алгоритм, сигнал, источники излучения, интеллект, система вооружения, цифровые возможности.*

CAPABILITIES AND ADVANTAGES OF RADIO-ELECTRONIC INTELLIGENCE**Savin Evgeniy Vladimirovich***lecturer at the NUU Military Training Center*

Summary: *In modern conditions, the organization of military operations and reliable leadership of troops are unthinkable without the widespread use of radio-electronic facilities, which are the basis of control systems and an integral part of most new types of weapons.*

KEY words: *e-war, situational intelligence, radio-electronic intelligence, algorithm, signal, resources of radiation, intelligence, system of armaments, digital capabilities.*

Электронная война проходит через современную войну и является основным боевым стилем современной информационной войны. Некоторые военные эксперты на Западе считают, что: «Возможности РЭБ фактически почти равны возможностям разведки, особенно разведывательно-обрабатывающим возможностям радиотехнической разведки». Без своевременной, точной и всеобъемлющей разведки радиоэлектронного противодействия невозможно проведение операций радиоэлектронного противодействия, что стало консенсусом военных кругов всего мира. Основная задача обработки разведывательных данных электронного противодействия состоит в том, чтобы обрабатывать все виды информации, собранной в разведданные, для поддержки операций электронного противодействия. В настоящее время для обработки данных радиоэлектронного противодействия объекты обработки ввода имеют типичные характеристики больших данных, такие как большой объем данных, разнообразие, быстрый рост и строгие

комплексные требования к обработке, а выходные данные предъявляют все больше и больше требований к работе в режиме реального времени, полноте и точности. Чем он выше, тем традиционная технология и система обработки разведывательных средств радиоэлектронного противодействия уже не могут удовлетворить потребности текущих операций радиоэлектронного противодействия для разведки.

Радиоэлектронная разведка является основой операций радиоэлектронного противодействия, без разведывательного обеспечения не может быть и речи о предупреждении самообороны, радиоэлектронных помехах и противорадиационных ударах. Оперативное планирование, загрузка данных об оборудовании, оперативное внедрение, пост-оценка и другие операции по радиоэлектронному противодействию неотделимы от поддержки разведки радиоэлектронного противодействия. Не только операции по радиоэлектронному противодействию требуют разведки радиоэлектронного противодействия, но и системы раннего предупреждения и обнаружения также требуют разведки радиоэлектронного противодействия в режиме реального времени для составления списка целей. Планирование спектра связи требует информации о частоте противника и информации об электромагнитном фоне поля боя, чтобы облегчить разумное планирование нашего спектра связи. Согласно описанию требований системы РЭБ разведки вооруженных сил США, боевые действия, начиная от антитеррористических, специальных операций и заканчивая локальными конфликтами и локальными войнами, неотделимы от обеспечения радиотехнической разведки. В нынешнюю эпоху мелкозернистых и точных операций обработка разведывательных данных электронного противодействия должна обрабатывать различные специализированные и точные вспомогательные разведывательные данные для удовлетворения различных потребностей.

Высокие требования к качеству различных разведывательных средств радиоэлектронного противодействия в основном отражаются в своевременности, точности и полноте. Разведка радиоэлектронного противодействия поддерживает боевые действия и является основой для интеграции информации и огневой мощи. Для чувствительных ко времени целей, таких как радары наведения на цель, станции пакетной связи, мобильные радары и станции связи, чувствительные ко времени цели должны быть обнаружены вовремя, обрабатывается для получения параметров излучения, а информация о местоположении распределяется на средства подавления, противодействия и т. д. Радиационные, штурмовые и другие системы вооружения осуществляют мягкое поражение и жесткое разрушение, максимально сокращая информационно-ударное звено.

Точность: Современная война - это отточенные операции, которые требуют все большей и большей точности разведки. Ситуационная разведка, используемая для боевого планирования и принятия командных решений, создается путем слияния

разведывательных данных каждого источника излучения. Такая информация, как местоположение, количество и степень повреждения источников излучения, должна быть точно получена, иначе работа не может быть выполнена эффективно. Информация о параметрах источника излучения, используемая для привязки оборудования радиоэлектронного противодействия, должна быть более точной, иначе такие меры противодействия, как идентификация модели и интеллектуальное глушение, не могут быть эффективно реализованы.

Целостность: Целостность разведывательных данных радиоэлектронного противодействия очень важна как для принятия командных решений, так и для привязки параметров оборудования. Неполная информация о боевой обстановке иногда фатальна для боевых действий. Неполная информация о параметрах источника излучения используется для привязки параметров средств радиоэлектронного противодействия, которые не смогут эффективно предупреждать угрозы и не могут принимать целенаправленные меры помех, а влияние помех будет ограничено.

С быстрым развитием электронной техники развертывается большое количество радиолокационных и коммуникационных источников излучения с использованием новых технологий и новых систем. В настоящее время обычные параметры радиолокационных источников излучения с большим количеством сложных систем трудно описать и различить, и параметры сигнала изменяются мгновенно, что затрудняет поиск закона, особенно текущий сигнал бортовой активной фазированной антенной решетки, имеет рабочую полосу пропускания в несколько гигагерц и излучает большое количество импульсов покрытия при передаче реальных импульсов; технология расширенного спектра, используемая источниками излучения связи затрудняют обнаружение сигналов связи, а технология высокоскоростной скачкообразной перестройки частоты затрудняет обнаружение. Данные о сигналах, перехваченные и записанные разведывательным оборудованием, являются неполными. Все это создало серьезные проблемы для обработки разведывательных данных радиоэлектронного противодействия.

В настоящее время источники излучения становятся все более и более сложными, и трудно получить информацию об источнике излучения посредством ограниченной обработки параметров источника излучения. Для получения точной информации об источнике излучения необходимо совместно обрабатывать различные данные, относящиеся к источникам излучения. В дополнение к различным параметрам источника излучения для этих данных также необходимы исходные данные сигнала промежуточной частоты, разность фаз, кодовый поток демодуляции и другие данные промежуточной обработки. Для оценки достоверности данных об источниках излучения необходимо сопоставить и обработать такие данные, как рабочее состояние и рабочие параметры разведывательного оборудования. Для

обнаружения и проверки точности разведанных необходимо сопоставить и обработать такие навигационные данные, как долгота, широта и высота полета самолета-разведчика. Для управления обработкой разведывательных данных и проверкой слияния необходимо совместно обрабатывать соответствующие разведывательные данные из других источников, таких как воздушная обстановка, морская обстановка, визуальная разведка и уведомления технической разведки. Для точного получения информации об источнике опасного излучения необходимо фильтровать и обрабатывать сложный электромагнитный фон, состоящий из радара рыболовного судна, мобильной связи 3G/4G и других сигналов.

С усилением цифровых возможностей разведывательного оборудования и развитием технологий хранения данных частота сбора данных разведывательным оборудованием становится все выше и выше, а типы хранимых данных увеличиваются, и данные становятся все более и более полными. Полный импульс источника радиолокационного излучения, различные данные параметров источника излучения связи, навигационные данные самолета, состояние воздуха, измерение состояния моря и вторичные данные собираются и записываются неразрушающим образом на протяжении всего процесса, а исходная промежуточная частота. Данные о радиочастотных сигналах сложных и ключевых источников излучения. Он также может собирать записи без потерь по запросу, что приводит к особенно огромному объему данных, обрабатываемых электронной разведкой противодействия. В настоящее время аппаратура регистрации данных, установленная на военных самолетах-разведчиках, составляет от десятков до сотен терабайт, а данные, которые необходимо обработать для одной разведывательной миссии, исчисляются терабайтами.

Следовательно, необходимо изучить набор механизмов и методов обработки. При столкновении с данными, собранными разными типами, с разной точностью и с разных платформ, можно установить разные корреляции, зависимости и проверки в соответствии с разными сценариями обработки для определения интеллекта. Вес и использование различных данных определяются во время обработки. Например, разные фоновые библиотеки источников излучения должны использоваться по разным маршрутам разведки, самолеты-разведчики находятся на разных высотах, и степень влияния сигналов высотомера, предупреждения о сближении с землей и других сигналов бортовой аппаратуры самолета-носителя не одинакова. При комплексной обработке данных многократных разведывательных средств или многовылетных разведывательных данных точность данных разведывательного источника излучения также будет разной, и какой вес присваивать при каких обстоятельствах при комплексной обработке требует исследования и формулирования правил обработки.

Алгоритмы обработки данных являются ядром обработки разведывательных данных, но традиционные алгоритмы сортировки и идентификации трудно быть эффективными в условиях источников излучения с псевдослучайными изменениями параметров в сложной электромагнитной сигнальной среде с плотными трехмерными пересечениями. частотный сигнал источника излучения, традиционный алгоритм обнаружения и демодуляции сигнала вернется к нулю; для чувствительной ко времени цели на поле боя традиционный алгоритм кросс-локации не сможет ее обнаружить. В настоящее время традиционная проблема сортировки и обработки источников излучения по-прежнему трудно эффективно решается. Поскольку обычные параметры радиолокационных сигналов становятся все более сложными для описания и различения различных источников радиолокационного излучения, традиционные методы, основанные только на этих параметрах, имеют серьезное значение для сортировки радиолокационных сигналов в сложных системах, а также для анализа радиолокационных помех, режимов работы и стили часто больше, чем фактическая ценность дизайна радара. В отсутствие точного азимута источника излучения связи по-прежнему сложно разделить цель источника излучения в соответствии с параметрами источника излучения.

Важной задачей обработки разведывательных данных является реорганизация разведывательных данных, суммирование результатов разведывательных данных, сформированных предыдущей обработкой, для вторичной обработки и получение более полных, более ценных и более высокоуровневых результатов разведывательных данных. В основном это включает в себя операции интеллектуального анализа данных, такие как кластеризация данных, анализ правил ассоциации, прогнозирование и регрессия, а также сортировка индексов. Это сложная проблема, которая требует непрерывных исследований и решений для автоматической обработки накопленных массивных разведывательных данных, эффективного извлечения и прогнозирования ценных разведывательных данных.

Для получения более точных результатов анализа алгоритмы обработки интеллекта становятся все более сложными, размерность данных, участвующих в обработке, становится все выше и выше, а также увеличивается объем вычислений, увеличивается объем данных, собираемых и регистрируемых датчиками, и добыча данных составления разведывательных данных тоже становится все глубже и глубже, а современная война предъявляет все более высокие требования к своевременности разведывательных данных.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ:

На сегодняшний день радиоэлектронная разведка считается неотъемлемой частью военного дела. С её помощью участники боевых действий собирают сведения о противнике: его действиях на поле боя, состав и расположение его войск, месторасположение важных стратегических объектов, расположение и назначение

различных РЭС, а также режим их работы. Благодаря РЭР можно получить значительное тактическое и стратегическое преимущество над противником.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Никольский Б.А. «Основы радиоэлектронной борьбы»
2. Арканжелис М. «Радиоэлектронная война. От Цусимы до Ливана и Фолклендских островов».
3. Атражев М.П., Ильин В.А., Марьин Н.П. «Борьба с радиоэлектронными средствами».
4. Борисов В.И., Зинчук В.М. «Помехозащищенность систем радиосвязи. Вероятностно-временной подход».
5. Бородин А.М., Усков Н.В. «Проектирование систем радиопротиводействия и радиотехнической разведки методами моделирования».
6. Бородин А.А. «Радиоэлектроника. Обзор по материалам иностранной печати. Средства радиоэлектронной борьбы»
7. Быстров Р.П. «Особенности развития радиотехнических систем радиоэлектронной борьбы»

KAR BOLALARDA IMO-ISHORA NUTQINI SHAKLLANTIRISH**Muzaffarova Xayitgul***JizzaxDPU Maxsus pedagogika kafedراسi katta o'qituvchisi***Erxonova Shaxnoza***Logopediya yo'nalishi II-bosqich magistri*

Annotasiya : *Maqolada kar bolalar ta'lim tizimida imo-ishora nutqi atrof-olamini tushunishga yordam beruvchi vositaligi, oilada imo-ishora nutqidan foydalangan holda tarbiyalanishi, imo-ishora kar bolalar uchun muloqot o'rtasida muloqot quroli sifatida namoyon bo'lishi va ularni vivik va yozma nutqini rivojlantirish usullari bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *kar bola, imo-ishora, so'z, nutq, differensiya, mimik belgi, qoida, ob'ekt, plastik, imitirlovchi belgi.*

Abstract: *In the article, the use of sign speech in the educational system of deaf children as a tool to help them understand the world around them, their upbringing using sign speech in the family, signs as a communication tool for deaf children and their visual and written communication methods of speech development are described.*

Key words: *deaf child, gesture, word, speech, differentiation, mimic sign, rule, object, plastic, imitative sign.*

Bizning nutqimiz ikki funksiyani bajaradi: muloqot vositasi va tafakkur quroli. Bu funksiya imo-ishora nutqi orqali ham bajariladimi?, - degan savol tug'iladi.

Ma'lumki kar bolalar imo-ishora yordamida muloqotga kirishadilar. Imo-ishora nutqi atrof-olamini tushunishga yordam beruvchi vosita sanaladi. Masalan: kar bola oilada imo-ishora nutqidan foydalangan holda tarbiyalanadi, lekin uning rivojlanish darajasi yuqori bo'ladi. Shunday qilib, imo-ishora kar bolalar uchun muloqot funksiyasini bajarishi mumkin. Bu jihatdan u og'zaki nutq shakliga o'xshashdir. Lekin u chegaralangan davrada, faqat kar shaxslar o'rtasida muloqot quroli sifatida namoyon bo'ladi. U o'zini birinchi vazifani bajara olishi, tafakkur quroli sifatida faoliyat ko'rsata olmaydi. Imo-ishora nutqining qurish materiali mimik belgilar foizidir. So'zdan farqli, imo-ishora belgilari bir qator o'ziga xosliklarga egadir.

Ayrim mimik belgilar so'z kabi muloqot elementiga egadir. So'z qat'iy va universal ahamiyatga ega. Mimik belgilar esa qat'iy bo'lmaydi. Ko'p tushunchalar kar shaxslar o'rtasida bir xil ishora bilan ifodalanadi. Ularning xarakteri ta'lim jarayonida so'zlashuv nutqi vositasida o'zgarishi mumkin. So'z tarkibida tovush kompleksi va ma'nosi bo'yicha mustahkamlash aloqasi mavjud bo'lib uni ixtiyoriy buzib bo'lmaydi. So'zning tovush tarkibi buzilsa, u o'zining funksiyasini bajarmay qoladi. Tovush kompleksi uning ma'nosi bilan umumiy bog'liqlikka ega emas. Ayrim mimik belgilarda bu aloqa yaqqol namoyon bo'ladi. Ko'p olimlar mimik belgilarni tasniflashga harakat qilganlar (N.T.Morozova, R.M.Bosnin,

L.V.Zonkov, T.L.Zaysieva, N.F.Slezina, A.T.Terokni). ularning ilmiy ishi natijalariga tayanib mimik belgilarni quyidagicha tasniflash mumkin.

1.Ko'ruv sezgisiga asoslangan belgilari:

a) ko'rsatuvchi ishning belgilari (buyruq,ko'z, stol, shkaf,u);

b) predmet konturi yoki uning harakterli xususiyatlari chiquvchi mimik belgilar ;(yulduz, k'oz, ona)

v) to'liq yoki qisman imitatsiya qiluvchi harakterlar;

2.Sezgilarga asoslangan belgilar.

3.Hid sezgilariga asoslangan belgilar.

4.Teri sezgilariga asoslangan belgilar.

5.Maza ta'mli sezgilariga asoslangan belgilar.

6.Organik sezgilarga asoslangan belgilar.

7.Emotsional sezgilarga asoslangan belgilar.

8.Mimik-daktil sezgilar.

9.Tabiiy sezgilar.

10.Shartli belgilar.

11.Sonni ifodalovchi sezgilar.

12.O'tkazuvchan mimik sezgilar.

Mimik belgilar tarkibi qat'iy va bir turga ega bo'lmaydi. Karlar yangi tushunchalarni egallashi va nutqda yangi so'z paydo bo'lishi bilan mimik belgilar yuzaga kela boshlaydi (televizor, bomba).

Ayrim mimik belgilar bir tomondan aniq va ko'rgazmaliligi, ikkinchi tomondan diffuzligi va differensiallashmaganligi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun, uy belgisi, ko'p qavatli uy, xovli joy ma'nosidagi so'z bo'lib ishlatilishi mumkin. Shu sababli, mimik belgilarda umumlashtirishlar ko'p uchraydi.

Kar bolalar ta'lim tizimida so'zlashuv nutqi o'zgarib boradi va mimik belgilar yanada differensiyallanib boradi. Avval kar bola turli turdosh qurilishlarni uy belgisi bilan markali mashinalarni belgisi bilan ifodalanmasa, so'zlashuv nutqi yordamida yangi differensiyallashgan belgilarni qo'llay boshlaydi. Har qaysi mimik belgi qoidadir, ob'ektib realligi ifodalasa ham, har shakllarni turli jamoalarida turlicha ma'noda kelish mumkin. Bu avvalo ko'rsatish, plastik va imitirlovchi belgilarga xosdir. Mimik belgida emotsional belgi so'zga nisbatan farqli ifodalanadi. Mimikada predmet hodisani belgilanish va unga munosabat bir vaqtda ifodalanadi. Nutqning ikki tomoni uning grammatik tomonida tilning ovoz qismi ma'noli xarakter kasb etadi. Mimik imo-ishora nutqi o'zining grammatik tuzilishiga egami? Imo-ishora nutqi grammatik tuzilishga ega bo'lmagan, agrommatik nutqdir.

Lekin bu nutq turi xaotik degan ma'noni bildirmaydi. Imo-ishora nutqida ham gap tuzishning o'ziga xos qonun-qoidalari mavjud. Nutqda har bir so'z ma'lum grammatik shaklga egadir, u gapda boshqa ishoralar bilan kelganda ham grammatik jihatdan

o'zgartirmaydi. Mimik belgi so'zga nisbatan grammatik jihatdan amorfek bo'ladi, lekin mimik kar qurilishda nutq qismlarini qo'llashda o'ziga xos tendensiyani ko'rish mumkin. So'zlashuv nutqida va imo-ishora nutqida ham gaplarda so'zlarni joylashish tartibi bir xil bo'ladi. Xususan, kesim, vositali to'ldiruvchidan iborat. Yoyiq gapni so'zlashuv va imo-ishora nutqida joylashish tartibi bir xildir.

Imo-ishora nutqida qo'shimcha gaplarga nisbatan sodda gaplar ko'p qo'llaniladi. Gap tarkibidagi yuklama qo'shimchalar imo-ishora nutqida kam qo'llaniladi. Imo-ishora nutqini egallash jarayoniga kar bolani so'zlashuv nutqini egallash darajasi ta'sir ko'rsatadi. Imo-ishora nutqi ham so'zlashuv nutqi shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi, lekin but a'sir salbiy ko'rinishga ega bo'ladi. ba`zan yozma yoki og'zaki nutqda gap tuzish imo-ishora nutqidagi barcha nuqsonlarni o'zida ifodalaydi: gap bo'laklarining o'rni almashib qolishi, so'zlarning grammatik aloqasini buzilishi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar imo-ishora nutqini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar.

Imo-ishora nutqini rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan ish turlari dasturning tegishli bo'limini quyidagi talablarga ko'ra aniqlanadi.

1. Murojaatni tushunish, buyruqni bajarish, ehtiyoj, istak va iltimosni bayon etish.

2. O'qituvchi va tarbiyachini topshirig'iga ko'ra va o'zining shaxsiy extiyojiga ko'ra do'stlariga va boshqa shaxslarga murojat etish.

3. Bajarilgan va bajarilishi zarur bo'lgan ish (vazifa) haqida ma'lumot berish va uni bajarilganligi haqidagi hisobotni tuzishga o'rgatish.

Uchunchi guruh toifadagi bolalar bilan (savol berish va ularga javob berish) kar bolalar maktabida yopiq rasmlar yoki yopiq rasmlar to'plami bilan ish olib borish keng tarqalgandir.

Ikkinchi guruh toifadagi bolalar bilan (dialogda ishtirok etish) dialogni kengaytirish maqsadida turli o'yinlar, mashq, suhbat va hokozolar qo'llaniladi. Ishning bu turlari kar o'quvchilarning oldindan o'ylangan mavzu bo'yicha va vaziyatga ko'ra dialogni olib borish ko'nikmalarining rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Ular nafaqat turli darslarda, balki darsdan tashqari vaqtlarda ham qo'llanilishi mumkin.

Yopiq rasm ustida ishlash. Bu karlar maktabida keng tarqalgan ish turlaridan biri hisoblanadi. Ishning maqsadi bolalarni ko'rmagan rasmlari haqida savol berishga o'rgatish va savollar yordamida rasmning mazmunini aniqlash. Bu vaziyatda bolalarning barcha savollari yaqqol ifodalangan, morivlashtirilgan xarakterga ega bo'ladi, chunki bolalar haqiqatdan ham rasmda nima tasvirlanganligini bilishni istaydilar. Ma'lum vaqt davomida kar bolalar maktabida bolalarni ochiq rasm bo'yicha savollar berishga o'rgatiladi. Ammo rasmni ko'rib turib, o'quvchilarni savol-javob jarayoniga kirishi yopiq rasm asosidagi savol-javobga nisbatan ham qiziqish uygotgan. Asosiysi, bu savollar bolalar uchun muhim ma'noga ega bo'lmagan motivlashtirilmagan. Bolalar savolning muhim komunikativ asosini nutqiy muloqotning asosiy komponentlaridan biri ekanligini qabul qilishga qiynalishgan.

O'quvchilarga yopiq rasm berilganda, suhbat rasm mazmunini aniqlash asosida tashkil etiladi. Bunday ish nafaqat boshlang'ich sinflarda, balki o'rta sinflarda ham davom etadi. Yopiq rasm asosidagi suhbatni mukammallashtirish uch yo'nalish bo'yicha olib boriladi.

-Rasm mazmuniga ko'ra;

-Rasm asosidagi savollarning mazmuni va shakliga ko'ra;

-O'quvchilarning mustaqilligi darajasigako'ra.

Birinchi sinfda rasmlar mazmuni soda bo'ladi. Unda albatda harakatlanayotgan bitta qahramon tasvirlangan bo'lishi kerak (bola o'qiyapti, qiz yuguryapti). 2-3 sinflarda bir necha ob'ekt qatnashgan rasmni va ob'ektlarni olish mumkin (qiz qo'g'irchoqni kiyintiryapti, o'quvchi kitob o'qiyapti) 3- sinfda bolalarga bitta rasm o'rniga rasmlar to'plash (seriyali) beriladi.

Masalan: O'qilgan ertaklar yuzasidan o'quvchilar savol berishadi va o'qituvchining javoblariga ko'ra qaysi ertakning qay bir qahramoni haqida so'ralayotganini aniqlashadi. Birinchi sinfda rasmlar mazmuni va ularga tuzilgan savollar sodda tuzilgan bo'ladi. Rasmda kim tasvirlangan? U nima qilyapti? Predmet kattami, kichikmi? O'quv yilining oxiriga kelib qahramonning tashqi ko'rinishiga, kiyimiga tegishli bo'lgan savollar berishadi.

“Sochi qanday?”, “Ko'ylagi qanday?”, “Qizchani oyog'ida qanday tufli bor?”.

Ikkinchi sinfda bajarilayotgan faoliyatning vaqti va joyi haqidagi savollar qo'shiladi “Qizcha qayerda turibdi?”, “O'ng tarafida nima turibdi?”, “Chap tarafidachi?”, “Qanday fasl?”, “Ob-havo qanday?”, “Bulutlimi?”.

Uchunchi sinfda o'quvchilar rejali rasmlar bilan ishlash jarayonida umumlashtirilgan savollar berishni o'rganadilar. Asta-sekinlik bilan bolalarda mustaqillik tuyg'usi shakllanib boradi, bu savollar tuzishda o'qituvchining ko'maging kamayishida ko'rinadi. Birinchi sinfda pedagogning o'zi savol berishga undaydi “Mendagi rasmda kim tasvirlanganligini so'rang”.

Agar “So'rang” so'zini ikki marotaba urg'u berib aytganda ham sinfda hech kim vazifani tushunmasa, o'qituvchi vazifani yana bir bor takrorlab, doskada yoki tablichkada yozilgan savolni ko'rsatadi. Bolalar savolni birgalikda o'qishadi. Ikki o'quvchi uni qaytaradi, shundan so'ngina javobni olishadi.

Doskada o'qituvchi savolni o'ng tarafiga o'zining to'liq javobini yozadi. (Rasmda qor qiz va qorbobo tasvirlangan). Birinchi o'quv yilining oxirida esa qisqa javobga o'tiladi. (Qor, qorqiz, bola qorbobo yasayapti). Suhbat so'ngida bolalar shu yozuvlarga asosan rasmlarni o'z tasavvurlari bo'yicha tasvirlaydilar. Birinchi savol bergan o'quvchi shoshma-shosharlik bilan javob qaytarmasligini o'qituvchi nazorat qilib, turishi maqsadga muvofiqdir, chunki asosiy maqsad bolalarni savol berishga o'rgatishdir. Yopiq rasm bo'yicha ishlash jarayonida to'rt bosqich tasniflanadi.

Birinchi bosqich- yopiq rasm yoki rasmlar seriasi mazmunini aniqlash bo'yicha suhbat. Bu suhbatda o'qituvchi o'quvchilarni savol berish va javob berishga o'rgatadi. O'qituvchi o'quvchi dialogdan o'quvchi o'quvchi, kichkina o'qituvchi-o'quvchi dialogiga o'tishga

tayyorlaydi. Har bir juftlik etakchisiga rasm beriladi. O'z juftini rasm mazmuni yuzasidan berilgan savollarga javob beradi. Bu suhbatda pedagog bolalarni savol berish va ularga javob berishga o'rgatadi, bunda o'qituvchi dialogga kirishga bolalarni o'rgatadi.

Ikkinchi bosqichida yopiq rasm mazmunini bolalar tomonidan tasavvur orqali tasvirlash amalga oshiriladi. Bunda bolalar o'qituvchi tomonidan doskada yozilgan yoki o'z varaqlarida yozilgan yozuvlarga tayanadilar. Tasvirlash jarayonida bolalarda aniqlashtiruvchi xarakterga ega savollar tug'ilib, ular o'z navbatida o'qituvchi bilan o'quvchi (kichik muallim) orasida o'zaro dialogni vujudga keltiradi. O'qituvchi savollarni tuzishga yordam beradi, ularga javob beradi.

Uchinchi bosqich – bolalar chizgan rasmlarning tahlili, bunda ularni rasm bilan solishtirish ko'zda tutadi. Bu bosqichda rasmdagi tasvir ochilgan bo'ladi. Ikkita rasm tanlanadi (to'g'ri va noto'g'ri) u na'muna rasm yonida osilgan bo'ladi. Bu holatda bolalar xohishi bilan rasm darhol ochiladi. O'qituvchi rasmlar taxlili bo'yicha suhbat tashkil etadi.

Shu yo'sinda ishni ikkinchi turi – ikkita chizilgan rasmni namunaga qaramay turib solishtirish, ularni faqat doskadagi yozuvlar asosida qiyoslashni ko'zda tutadi. Bunda rasm darsning oxirida ochiladi va har bir o'quvchi o'zining rasmini mustaqil taqqoslaydi. Bu usul bir muncha murakkabroq bo'lib, bunda o'quvchilar javoblar mazmuniga yanada chuqurroq etishlari zarur bo'ladi, bu usul ayniqsa yuqori sinflarda yaxshi samara beradi.

Yopiq rasm ustida ishlashni to'rtinchi bosqichini og'zaki yoki yozma bayoni. Bunday ish o'quvchilarning bog'langan nutqini rivojlantirish maqsadida o'tkaziladi.

Yopiq rasmlar to'plami bo'yicha ishlash. Bu holda ish yuqoridagi ko'rsatilgan tartibda quriladi, lekin undan avval o'quvchilarga o'qituvchi rasmlar to'plamini umumlashtirib tushunish ko'rsatmasini beradi (Rasmda qiz mushukni qutqargani haqida ma'lumot berilgan) har bir rasmning mazmuni haqidagi suhbat jarayonida o'quvchilar javoblarini qisqacha yozib boradilar.

Yopiq rasmlar to'plash asosida ishlashda, har bir rasmning mazmunini shunchaki tanishib chiqish emas balki harakatning rivojlanishini tushunish yotadi. Shuning uchun har bir rasmda bolalar eng asosiysini ajratib olishlari muhimdir. Bu esa olingan javoblarni umumlashtirishni, sintez qilishni, matnning asosiy mazmunini aniqlashni va uni sarlavhada qanday aks etishni nazarda tutadi. Sarlavhalar o'z ichiga rejali tuzilmalarni oladi, u esa o'quvchilarga yopiq rasmda tasvirlangan holda beriladi.

Voqealarning boshlanishini va yakun topishini tasavvur etishga yordam beradi. Bunday reja har bir rasmda berilgan javoblarga ko'ra o'quvchilar haqiqiy rasmni ko'rgunlariga qadar tuziladi. Har bir rasmni mazmunini aniqlagandan so'ng quyidagi umumlashtirish bajariladi.

- Birinchil rasmda nima tasvirlangan:
- Bolalar o'rmonga ketmoqdalar;
- Ikkinchisidachi:.
- Bolalar o'rmonga borib, tipratikan topib oldi;

-Uchunchisidachi:

-Bolalar tipratikanni ovqatlantirmoqdalar;

Shunday qilib, yopiq rasm bilan ishlash jarayonida bolalar rasmni mazmuni haqidagi savollarni qat'iy fikrlash izchilligida berishni o'qituvchining og'zaki javoblariga asoslanib uni rasmda aks ettirishni, ularni rasm bilan solishtirishni o'rganiladi. Bolaning hayotidagi yaqin mavzudagi suhbatlar – bu qiziqarli voqealar, bajarilgan ishlar, dam olish kunlari, bayramlar, ta'til haqidagi suhbatlardir. Bu suhbatlarni quyidagi turlari mavjud:

1. Bolalar ta'tildan kelgan o'qituvchi dars boshlangunga qadar ta'tilni kim qayerda o'tkazganini aniqlaysi. Masalan: Kimdur Farg'onada dam olgan.

Darsda esa o'qituvchi shu o'quvchiga savol berishni va u qanday, qayerda ta'til o'tkazganini belgilab olishni taklif etadi. Pedagog bolalarni oldindan, shu suhbat asosida rasm chizishlarini ta'kidlab o'tadi.

2. O'qituvchi ekskursiya haqida suhbatni tashkil eta turib, ekskursiyada bo'lmagan o'quvchilar savollar berishga undaydi. Shunga o'xshash suhbat maktabda o'tkazilgan bayram haqida, ko'rilgan film, kino, yoki diofilm va hokazolar haqida bo'lishi mumkin. Suhbatni bu shaklda tashkil etishda oquvchilar bilmagan va bilishni istaydigan narsalar haqida savol berishadi. Ularning savollari aniq harakterga ega bo'lib, motivlashtirilgan xususiyatga ega. Kar bolalar notanish bo'lgan predmet, hodisa bilan duch kelganida ko'p savollar paydo bo'ladi. Ular shu narsa haqida bilishni istaydilar, ammo savol berishni bilmaydilar. Aynan shu vaqtda o'qituvchi yordam bera olsa, bolalarning suhbatlari yuqori nutqiy faollikda o'tadi.

Kar bolalarni imo-ishora nutqini rivojlantirishda o'qish darslarida o'tkaziladigan o'qilgan hikoya yuzasidan suhbatlar juda samarali hisoblanadi. O'quvchilarni fikrlash va nutqiy faoliyatini faollashtirish ularni tasavvurlarini rivojlantirish, matn bo'yicha savollar berishga o'rgatishda bir necha usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, kar bolalarni imo-ishora nutqi so'zlashuv nutqidan juda katta farq qiladi. Bu farq uning vazifasi, tarkibiy qismlari va mimikasiga ham xosdir. U asosan so'z va mimik belgini solishtirganda, gapdagi so'z bo'laklarini bu ikki turda nutq shaklida namoyon bo'lishida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Og'zaki nutqga nisbatan chegaralanganligi, takomillashganligiga qaramay imo-ishora nutqi kar shaxslari uchun asosiy muloqot qurolidir. Lekin kar bolalar maktabi ta'lim jarayonini bosh maqsadi ularning og'zaki nutqini shakllantirishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ayupova, M. Yu. "Speech Therapy Publishing House of the National Society of Philosophers of Uzbekistan." (2007).
2. Ayupova, M. Y. "Logopediya. Ozbekiston Respublikasi Oliy va orta maxsus talim vazirligi." T.: Ozbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti (2019).
3. Ayupova, Mukarram Y., and Shahnoza M. Amirsaidova. "Meaning of Speech in Mental Development of Child." Eastern European Scientific Journal 2 (2018).
4. Ayupova, Mukarram, and Aziza Jumabayeva. "Pedagogical and psychological characteristics of speechimpaired children in preschool education." Science and Education 2.5 (2021): 544-549.
5. Ayupova, Mukarram Yu. "Speech Preparation of Preschool Children with Speech Deficiency for School Education." Journal of Pharmaceutical Negative Results (2022): 2345-2353.
6. Ayupova, Mukarram Y. "Characteristics of general and small motor functions in children with dysarthric speech deficiency." current research journal of pedagogics 3.02 (2022): 13-21.
7. Ayupova, Mukarram. "On the basis of games for children with speech deficiency literacy teaching." Academicia: an international multidisciplinary research journal 11.2 (2021): 1496-1501.
8. Музаффарова Х.Н., Pedagogical possibilities of organizing professional practice of students of preschool speech therapy. International Congress on Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences Bilbao, Spain, March 27th, 2022. conferencezone.org. 312-314
9. Музаффарова Х.Н., Мактабгача логопедияни ўқитиш методикаси бўйича дидактик ва мотивацион имкониятларни такомиллаштириш модели. "Бола ва замон" журнали 2022/3.Т.: 19-23 бет
10. Музаффарова Х.Н., Болаларда нутқ бузилишлари ва уларга коррекцион ёндошиш усуллари., "Тафаккур зиёси" журнали. 2020/1. Ж.: 153-155 бет
11. Музаффарова Х.Н., Мактабгача логопедияни ўқитиш методикаси бўйича назарий машғулотларни ташкил этиш технологиялари., " Ўзбекистон миллий университети хабарлари" журнали. 2022 /8/1. -Т.: 152-156 бет
12. Музаффарова Х.Н., Мактабгача логопедияни ўқитиш методикасида логопед ўқитувчиларининг касбий маҳоратини шакллантириш йўллари., "Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў Нөкис" журнали. 2022, 4/1 Қарақалпақстан, - 119-124 б
13. Музаффарова Х.Н., Мактабгача таълим муассасаси машғулотлар жараёнида ўйин фаолиятидан фойдаланишнинг педагогик аҳамияти., "Мактабгача ёшдаги болалар таълим тарбиясини такомиллаштириш муаммо ва ечимлари" мавзусидаги

республика илмий амалий анжуманининг мақолалар тўплами. Жиззах, 2016 йил. 145 б

14. Музаффарова Х.Н., “Педагогик технологиялар ва уларни махсус таълим мусасаларига тадбиқ этиш”. Республика илмий-назарий анжуман материаллари 16ўлим нөкис — 2018. -Б 127-130 б

15. Музаффарова Х.Н., Таълим – тарбия жараёнида инновацион усуллардан фойдаланишда ўқитувчининг маҳорати., Педагогиканинг долзарб муаммо ва ечимлари Республика илмий-амалий анжумани материаллари. -Жиззах , 2021-№ 3, -Б 99-103

16. Музаффарова Х.Н., Ўқитиш жараёнида педагогик технологиялардан фойдаланиш масалалари., “Бола ва замон” журнали 2019/2. Т.: -57-62 б

17. Музаффарова Х.Н.,Ўзбекистонда бакалавр педагогларни тайёрлашнинг инновацион моделлари., Psycho – pedagogical problems ofa personality and social interaction : matirials of the VII inter national scientific conference. May 15-16, 2016. e-mail: sociosfera@seznam.cz. 151-153 б

N. DAWQARAEVTIŃ " BOTIRLIK" ASARINIŃ SYUJETI**Jamalova Flora***Ájiniyaz nomidagi NMPI, Qoraqalpoq tili va adabiyoti tálim**yónalishi 3-kurs talabasi**Ilmiy rahbar**tilshunoslik fanlarining nomzodi, docent***M. D. Bekbergenova**

Annotaciya: *Maqolada N.Dawqaraevning "Botirlik" asarining ideya-tematik xususiyatlari, qahramon xarakteri yoritilish xususiyatlari talqin qilingan.*

Kalit so'zlar: *asar, syujet, obraz, ideya, mazmun va forma.*

Аннотация: *В статье описываются идейно-тематические особенности рассказа «Botirlik» Н. Даукараева, особенности освещения героического образа.*

Ключевые слова: *рассказ, сюжет, образ, идея, содержание и форма.*

Annotation: *The article describes the ideological and thematic features of the story "Botirlik" by N.Dawqaraev, the features of the heroic image.*

Hammamizga belgili Nájim Dawqaraev 1905- yili Qónğırotda tuğılğan. Poeziyada, prozada ham qalam terbatkan inson. Uning asarlari juda mazmunli bo'lib, terang óyli inson ekanligin ifoda etadi. Uning adabiyotqa degan qizig'ishi insitutda óqib yurgan vaqtlarında boshlangan. Uning qaysi asarin olib qoraylik, biz óqiganimizda ichiga kirib ketib, ózimiz ósha voqealarda yashayotganday bólarimiz. Bularni barchasi albatta, yozuvshining mahoratida. N. Dawqaraev yozuvshi bólmog' bilan satr, ilmpaz bólgan. Mana kórinib turganında ulug' inson. U Qónğırot tumanında tuğılğan. Uning proza sohasında " Internetta", " Tóyga borganda", " Biybixan", " Boǵman", " Baxtli mehnat", " Botirlik", pyessalari " " Ráwshan", " Rabochiy qalbi", ashulalari bólsa " Kechagi bitta kunlarda", " Kim bilmaydi Oyshani", " Yangi kanal" v. t. b dóretgan.

Proza sohasında " Botirlik" asari juda mazmunli dóretilgan. Sabırbay isimli bolaning fronttan kelishi, fronttagı yovgarshilik urushlari, qiyinchiliklari aytiladi. Muallif tomonidan rasmlanadi. Sabırbayning fronttan kelishi bilan hamma bolalar uning zotlarini ushlap qiziq ko'rib, sórovlar bera beradi. Sabırbay juda ǵayrat yigit bólgan.

" Vatandarlıq urushga qatnashgan, baxtli vatanimizni yovuz dushmanınan qórgagan jangovarlar qanday hurmatli, qanday dangkli! Bularni hamma xalqimiz, oltmishtagi ota, oltidagi bolada sevadi, hurmatlaydi. Mana ósha hurmatli, sharaflı odamlarning biri, bizning qadrli mehmonimiz- Sabırbay. "[1. 173].

Sabırbay heshkim bilan urushmaydigan oq kókirak yigitcha bólgan. Biroq bir kunlari, Tólemis ikkitasi aytiship qolgan. Sababi, shoshqalar qovunga yangi kelganda yashirinib yotgan posbon - Sabırbay yakbora táp berib yolǵızaqni tóntarib uradı. Biǵirlatip bosib,

shoshqaning tumshigiga uradi deb Tólemisning yuz-og'zin bosib turgan. Ushbu sababli aytiship, Tólemis, kuchingga ishonmaysang, kurashka chiq dey bergan. Sabirbay kuchli edilar. Kuchli bólsa ham chiqmaydi. Oqiri, ochiqlanib, kurashka chiqip, Tólemisni bir tóntarib tushirgan. Sóng, Sabirbayning urushtagi voqealari aytiladi.

Stalingradda bólganin, dushman bilan urushganlari aytiladi. Urushtagilarning, vatan uchun jonin jabborga berib yuradi. Sabirbay bilan suhbatlashadi -muallif. Suhbatinda, Olma - Otadada bólganin, Saratanning shijgirgan jaziramasinda yurganlarini, oppoq qor ustidan toglarda yurganini da aytadi.

"-Men Olma -Otadada yetti yil tahsil oldim, barchasin kórdim góy,-degan sóng oziraq tóxtab qoldiq. Men qaytarib tashlaganday so'z aytdim-av, uyat bóldi góy deb ózimdan -ózim ranjidim. "[1. 175]

Stalingradninh katta xavflilikda qolganligin, ósha yoqqa faqat Volga betdan bora olgan. Biroq, qattiq qiyin bólgan. Sababi, dushmanlar tomondan samolyatlar bilan bomba tashlap turgan. Volgaga borganda, Nurabillaning iloqday mangiragan tolgawlari xotirasina tushgan. Ular dushmanlarga jasorat bilan qarshi urushda bólgan. Vatanni qóriqlash uchun kelganini xotirasidan chiqarmagan.

Shuning bilan birga,fashistlar, bomba bilay tursin, samolyotdan lom, uzun yapaloq temir, lamponay quyilgan bos chelaklarni tashlab, boshlariga topdirmoqshi ham bólgan. Uch soat tinmasdan óq yovdirgan. Dushmanga kórinmas uchun qornin gúrap, qozipta borgan. Ózining Botirbek degan qozoq dóstin sirtidan chanshayin deb nayzasi bilan kilayotkan dushmanan quyqarip qolgan. Yaralanganinda aytib beradi. Dushmanlarni Stalingradtan bir qancha chiqarip tashlaydi. Biroq, bunga chiday olmagan dushmanlar tindirmastan tomdan óq yovdirip turgan. Bu óq aniq qayerdan kelib turganin aniqlash uchun tórt odam boradi. Kóplab azoblar bilan boradi. Ikkita odamidani ayrilip qoladi. Serjant bilan Sabirbay oman qaytgan. Qattiq qiyin bólgan.

" Serjant meni qóltiqlab oldi. Sóngginan orqalaydi. Kóp uzamay-oq, ózimizning chastka yetdik.

- Yoldosh starshiy leytenant, topshiriqngiz órinlandi! - dedi serjant.

- Afarin yoldash serjant! Maxsus topshiriqni yaxshi órinlaganingiz uchun olgis aytaman! Sizlarni nagradağa usunamiz!

-Vatanimizga xizmat etamiz! - dedik bizlar. Starshiy leytenant oldi bilan serjantning qólidani oldi. Undan sóng menga qarab qólin chózganin bilaman, nima bólganimni bilmayman, tolib qolibman. " [1. 182]

Sabirbay yaralanib uzoq vaqt gospitalda yotib qolgan.

" Quyrigimning yarasi darrov yozilib ketdi da, oyaгимning yarasi qayta-qayta oziğa berdi. Sababi, tomirga shiykas tiygan. Uch oydan sóng gospitaldan chiqip, ózimizning chastqa keldik. " [1. 82].

Harbiylikta yúrib Sabirbay kóp narsani órganadi. Rus tilin órganib olgan. Dóstlari bilan bólib, gálaba bayramin Polshada qarshi.olgani. Yakunlab aytganimizda, faqat Sabirbay

emas qancha mard, botirlar urushda yaralandi, ólib ketdi. Biz ularni hech qachon ham unutmaymiz. Óz vatani uchun jonin ham ayamagan. Jonin jabborga berishga da tayyor bólgan mard rustamlarimiz.

ADABIYOTLAR :

1. N. Dawqaraev " Shıǵarmalarınıń tolıq jıynaǵı" I-tom Qoraqalpog'iston boshmasi. Nukus 1970 yil ;
2. N. Dawqaraev " Shıǵarmalarınıń tolıq jıynaǵı" II-tom Qoraqalpog'iston boshmasi. Nukus 1977 yil.

TILSHUNOS OLIMLAR QARASHLARIDAGI AJRATILGAN BO'LAKLI GAPLAR**Zuxra Baratovna Salkinova***magistrant,**Jizzax davlat pedagogika universiteti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ajratilgan bo'lakli gaplar va uning tilshunos olimlar tomonidan o'rganilishi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek unda, ajratilgan bo'lakli gaplarning vazifasi va turlari berilgan.*

Kalit so'zlar: *ajratilgan bo'laklar, ajratilgan bo'lakli gaplar, ajratilgan ega, ajratilgan kesim, ajratilgan izoh to'ldiruvchi, ajratilgan izoh aniqlovchi, ajratilgan izoh hol, "qisqartirilgan ergash gaplar", "ergash kesimlar", "ajratilgan izoh", "ajratilgan ikkinchi darajali bo'laklar".*

Ajratilgan bo'laklar gap tarkibida ma'lum bo'lakning ma'nosini alohida ta'kidlab, izohlab keladi. Ajratilgan bo'laklar boshqa bo'laklardan to'xtam, ohang orqali ajralib turadi. Shu nuqtayi nazaridan uning qoidasi yuzaga keladi. Gap tarkibida ma'lum bo'lakning ma'nosini ta'kidlab, izohlab keluvchi, boshqa bo'laklardan to'xtam va ohang jihatidan ajralib turuvchi bo'laklarga ajratilgan bo'laklar, shunday bo'lakli gaplarga esa ajratilgan bo'lakli gaplar deyiladi¹. Tilshunos olimlar fikrlariga asosan, ajratilgan gap bo'laklari dastlab, "qisqartirilgan ergash gaplar", "ergash kesimlar", "ajratilgan izoh", "ajratilgan ikkinchi darajali bo'laklar" deb yuritilgan

Ajratilgan bo'laklar tilshunoslik fanida, shuningdek, rus tilshunosligida ham turli xil qarashlar va tortishuvlarga sabab bo'lgan. Xususan, bir guruh rus tilshunoslari: A.X.Vostokov, F.I.Buslayev va N.I.Grechlar ajratilgan konstruksiyalarni, ulardagi predikativlik elementiga suyanib, qisqartirilgan ergash gaplar deb aytib o'tganlar. Ammo ular ajratilgan bo'laklarni mustaqil gap sifatida ta'riflashda til faktlariga turlicha yondashganlar. Jumladan, bir guruh olimlar ajratilgan bo'laklarning vazifalariga alohida e'tibor bersa, ikkinchi bir guruh olimlar sifatdosh va ravishdosh tipidagi ajratilgan bo'laklarning fe'llik xususiyatiga, uchingi guruh olimlar esa ajratilgan bo'laklarning intonatsiyasiga e'tibor qaratishgan. Tilshunos olim A.X.Vostokov ajratilgan konstruksiyalarni, ulardagi pauzaga — fonetik ajralishga suyanib (qisqa, uzun to'xtalish, ovozning sezilarli ko'tarilishi va pasayishini asosga olgan holda), qisqargan ergash gap deydi. Ikkinchi bir guruh olimlar: V.A.Bogorodskiy, A.A.Potebnya, A.A.Shaxmatov, A.M.Peshkovskiy va V.V.Vinogradovlar bu konstruksiyalarni gap emas, gapning bir bo'lagi, deb oladilar.

¹ Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejarining 3-bosqich talabalari uchun darslik. —Toshkent:<<ILM ZIYO>>, 2010.

A.A.Shaxmatov va A.A.Deribas-Tyukshinalarajratilgan bo'laklarni ergash bo'laklar deb ta'riflaydilar. Masalan, A.A.Shaxmatov ravishdoshlar vositasida ajratilgan bo'laklarni "ergash kesimlar" nomi bilan tahlil qiladi².

A.M.Peshkovskiy, V.V.Vinogradov, A.G.Rudnev, E.V.Krotevich, A.N.Grozdev va K.Ya.Petrovskayalar ajratilgan ikkinchi darajali bo'laklarni o'rganib, fanga "ajratilgan ikkinchi darajali bo'laklar terminini kiritadi.

O'zbek tilshunos olimlar tomonidan ajratilgan gap bo'laklarini o'rganilishi 1957-yillarga borib taqaladi. Jumladan, filologiya fanlari doktori, professor Shapiro sodda gap to'g'risidagi ma'ruzasida ajratilgan gap bo'laklari muammosi bo'yicha turkiy tillarda kam o'rganilganligini ta'kidlab o'tadi. Uning aytishicha, ergash gaplar qo'shma gap sostavida qanday rol o'ynasa, ajratilgan bo'laklar ham sodda gap sostavida shunday muhim rol o'ynaydi va ajratilgan gap bo'laklari turk tilida ham mavjuddir.

K.Z.Axmerov esa boshqird tilidagi ajratilgan bo'laklar xususida to'xtalib, boshqird tilida gap bo'laklarining qay holatda ajratilishini asoslab berdi.

H.G'oziyevning 1938-1941-yillardagi darsligida "ajratilgan ikkinchi darajali bo'laklar" termini paydo bo'ldi. Keyinchalik, ajratilgan bo'laklar mavzusida tilshunos olimlar tomonidan turli xil maqolalar, darsliklar, monografiyalar va o'quv qo'llanmalar yozildi. Xususan, H.G'oziyevning "Gapdagi ajratilgan ikkinchi darajali bo'laklar haqida" maqolasi, G'.Abdurahmonovning "Ajratilgan ikkinchi darajali bo'laklar" nomli kitobi, G'.Abdurahmonov va A.Ma'rufovning 8-9-sinflar uchun chiqargan "O'zbek tilidan qo'llanma" darsligi va hokazo. Bundan ko'rinib turibdiki, tilshunos olimlar tomonidan ajratilgan gap bo'laklari mavzusi o'rganilishi hali-hanuz davom etmoqda.

Gap bo'lagining ajratilishida gapda so'z tartibining o'zgarishi, gap bo'laklarining kengayishi, bir bo'lakning o'zidan oldingi bo'lakni izohlashi, bir bo'lakni boshqalaridan ajratib bo'rttirib ko'rsatish zaruriyati kabilar sabab bo'lishi mumkin³. Shunga ko'ra, ajratilgan bo'laklar ikki xil vazifani bajaradi:

a) Ma'lum bir bo'lak ma'nosini ta'kidlash, bo'rttirish;

b) Ma'lum bir bo'lakning umumiy ma'nosini izohlash, konkretlashtirish, tushunarsiz ma'nosini tushuntirish.

Ajratilgan bo'laklar og'zaki nutqda urg'u, pauza, orqali ajratilsa, yozma nutqda esa vergul va tire bilan ajratiladi.

Ajratilgan bo'laklarni ajratish usuliga vazifasiga muvofiq ikki xil yo'l bilan ajratiladi:

a) tartibni o'zgartirish;

b) bir nomni boshqacha nomlash⁴.

²Ashurova D., Ubayeva F., Boltaboyeva H. Gapning uyushgan va ajratilgan bo'laklari. Toshkent: <<O'ZBEKISTON SSR FANLAR AKADEMIYASI NASHRIYOTI>>, 1962.

³ Hamrayev M. Ona tili. Abituriyentlar uchun qo'llanma. — Toshkent: <<SHARQ>> nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2012

⁴ Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejarining 3-bosqich talabalari uchun darslik. — Toshkent:<<ILM ZIYO>>, 2010.

Ajratilgan bo‘laklar ajralishlaridagi grammatik belgilariga ko‘ra, quyidagi tiplarga bo‘linadi:

1. Grammatik tartibni o‘zgartirish asosida ajratilgan bo‘laklar.
2. Yordamchi so‘zlar vositasida ajratilgan bo‘laklar.
3. Ravishdoshlar yordamida ajratilgan bo‘laklar.
4. Izoh so‘zlar orqali ajratilgan bo‘laklar.

Shuningdek quyidagi gap bo‘laklari ajratiladi:

- a) ajratilgan ega;
- b) ajratilgan kesim;
- c) ajratilgan izoh to‘ldiruvchi;
- d) ajratilgan izoh aniqlovchi;
- e) ajratilgan izoh hol.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, ajratilgan bo‘laklardan foydalanish murakkab fikrni sodda, ixcham va ta’sirli ifodalash uchun xizmat qiladi. Shuningdek, gapning ajratilgan bo‘laklari tilning muhim tomoni sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashurova D., Ubayeva F., Boltaboyeva H. Gapning uyushgan va ajratilgan bo‘laklari. Toshkent: <<O‘ZBEKISTON SSR FANLAR AKADEMIYASI NASHRIYOTI>>, 1962.
2. Hamrayev M. Ona tili. Abiturientlar uchun qo‘llanma. — Toshkent: <<SHARQ>> nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2012
3. Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning 3-bosqich talabalari uchun darslik. — Toshkent: <<ILM ZIYO>>, 2010.

**ПРОФЕССИОНАЛ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ИМКОНЯТИ ЧЕКЛАНГАН
ЎҚУВЧИЛАРИДА ИЖОДИЙ ФАОЛЛИКНИ ОШИРИШ ОМИЛЛАРИ**

**ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ ТВОРЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ С
ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ В ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ
УЧРЕЖДЕНИЯХ**

**FACTORS OF INCREASING THE CREATIVE ACTIVITY OF STUDENTS WITH LIMITED
OPPORTUNITIES IN PROFESSIONAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS**

Уразбаева Камола Маткаримовна

*Тошкент имконияти чекланган шахслар
учун ихтисослаштирилган 1-сон касб-ҳунар
мактаби ишлаб чиқариш таълими устаси*

Аннотация. *Ушбу мақолада имконияти чекланган ўқувчиларга давлат томонидан берилаётган эътибор, уларни ижодий фаолликларини ошириш ва шу орқали касбга қизиқтириш масалалари ёритилган.*

Аннотация. *В данной статье освещается внимание, которое государство уделяет учащимся с ограниченными возможностями здоровья, вопросы повышения их творческой активности и, соответственно, интереса к профессии.*

Annotation. *This article highlights the attention that the state pays to students with disabilities, the issues of increasing their creative activity and, accordingly, interest in the profession.*

Калит сўзлар. *Ижод, ижодкорлик, имконияти чекланган ўқувчилар, касб-ҳунар таълими, педагогик технология*

Ключевые слова. *Креативность, креативность, обучающиеся с ограниченными возможностями здоровья, профессиональное образование, педагогические технологии*

Keywords. *Creativity, creativity, students with disabilities, vocational education, pedagogical technologies*

Harakatli o'yinlarni o'quv yilning choraklari bo'yicha rejalashtirishda ob-havo sharoitlarini hisobga olish kerak, albatta. Masalan, O'zbekistonda dekabr, yanvar, fevral oylaridan boshqa paytlarda mashg'ulotlarni ochiq havoda o'tkazish mumkin. Biroq ob-havo yaxshi vaqtga mo'ljallangan "CHillak", "Oq tosh", "Qoziq", "Tegizsang-minasan", "Bayroq uchun kurash" singari o'yinlar rejalashtirilganida ehtiyoj uchun ularning o'rniga bino ichkarisida o'tkazsa bo'ladigan o'yinlarni ham belgilab qo'yish kerak (I.M.Korotkov, 1979, 2009; L.V.Bileeva 2005, 2009; T.U.Usmonxo'jayev, 1992).

Har bir chorak oxirida o'tkaziladigan tekshirish mashg'ulotlari uchun turli jismoniy mashqlardan iborat o'yinlarni rejalashtirish lozim. Bunday o'yinlar o'quvchilarning tayrgarligini, egallagan malakalarini, harakatlarining tezligi va o'zaro muvofiqligini sinab ko'rishda yordam beradi.

O'yin vaziyatida tez fikr yuritishni o'stirish maqsadi bilan o'yinning ayrim usullarini o'rgatishda sharoitga muvofiq holda o'yinga "raqib" o'yinchini kiritish ham mumkin.

Bolalar uchun harakatli o'yinlarning ahamiyati ularda muayyan jismoniy sifatlarni hosil qilish va ularni takomillashtirish bilan cheklanmaydi. Harakatli o'yinlar bolalarda intizomlilik, jamoada o'zini tuta bilish va uning sharafi, obro'si uchun kurashish, o'rtoqlariga beg'araz yordam berish kabi fazilatlarni ham shakllantiradi.

I-IV sinf o'quvchilarida uyushqoqlik bilan bir maromda yurish ko'nikmalarini hosil qilish uchun xorovodli (doira bo'lib aylanib raqsga tushiladigan, ashula aytiladigan) O'yinlarni, musiqa jo'rligida o'ynaladigan o'yinlarni, shuningdek, aytilayotgan she'r vazniga mos harakatlar bajariladigan o'yinlarni tanlash lozim. SHu maqsadda "Musiqa jo'rligida yurish", "Karusel", "O'ylab top", "Kimning ovozi" singari ommaviy o'yinlardan, shuningdek, "O'razan-bo'razan", "Pat", "Pr-r-r...", "Oq terakmi, ko'k terak" kabi milliy

o'yinlardan foydalanish mumkin. Bu o'yinlar juda oddiy va oson bo'lib, ulardan jismoniy tarbiya darslarida, xususan darsning boshi va oxirida samarali foydalanib kelinayotir (T.S.Usmonxo'jaev, F.Xo'jaev).

Turli harakatlarni bajarishda hayol va mustaqillikni o'stirishga bevosita yordam beradigan "Daqiqa", "Aniq burilish", "Kim keldi?" singari mazmunli o'yinlarni tanlash va o'tkazish ham muhimdir.

Agar bir nechta o'yin o'tkazilsa, ular turli yo'sinda bo'lishi, ularga har xil mashqlar va harakatlar kiritilishi lozim. O'qituvchi har bir darsning aniq vazifasini nazarda tutib, ana shu vazifani amalga oshirishga yordam beradigan o'yinlardan tanlashi kerak (T.S.Usmonxo'jayev, F.Xo'jayev, 1990,1992).

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga mos harakatli o'yinlar jismoniy tarbiya darsining asosi hisoblanadi. Uning uchun maktab dasturida o'yinlar boshqa materiallarga nisbatan ko'proq o'rin oladi. Buning sababi shuki, dasturga kiritilgan har xil jismoniy mashqlarni bolalar turli o'yinlar vositasida osonroq idrok qiladilar va o'zlashtiradilar. Masalan, ularga yugurib kelib uzunlikka sakrashni o'rgatish bo'yicha alohida mashg'ulot o'tkazilsa, o'qituvchi qo'ygan vazifa amalda ko'rsatish, bajarish va qanday bajarilganini aniqlash, xatolarni tuzatish va hokazolar bolalar uchun zerikarli bo'ladi. Agar bu ishda "Bo'ri zovur ichida" o'yinidan foydalanilsa maqsadga osongina erishiladi.

III-IV sinflarda harakatli o'yinlarni asosan darsning asosiy va yakunlovchi qismida o'tkazish tavsiya etiladi, chunki dasturda darsning kirish qismida saf mashqlarini o'tkazish belgilangan.

O'yinlarda yugurish, sakrash, uloqtirish yoki irg'itish kabi harakatlar bajarilishiga alohida e'tibor berish lozim. Bu yoshdagi bolalar bilan asosan oddiy va o'rtacha murakkablikdagi o'yinlar o'tkaziladi. Agar bolalar yetarli darajada tayyorlangan bo'lsa, yanada murakkabroq, ya'ni komandalarga bo'linib ijro etiladigan o'yinlarni ham o'tkazish mumkin. Bolalar bu o'yinlarda "Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun" printsiplari bo'yicha birgalikda harakat qilishni o'rganadilar. Bu hol butun jamoaning, komandadagi barcha ishtirokchilarning mas'uliyatini orttiradi. Komandali o'yinlar yetarli darajada chaqqonlik, hozirjavoblik, farosatlilik va jismoniy tayyorgarlikni talab qiladi va ayni vaqtda bu xususiyatlarni takomillashtiradi.

Jismoniy tarbiya darslari ko'pincha turli o'yinlardan iborat bo'ladi va ularga gimnastika hamda sport o'yinlarining asosiy turlari – basketbol, voleybol va hokazolar ham kiritiladi.

O'qituvchi harakatli o'yinlar yordamida jismoniy mashg'ulotlarni qiziqarli o'tkazadi va III-IV sinf o'quvchilarida turli harakat ko'nikmalarini hosil qiladi.

III-IV sinf o'quvchilari harakatli o'yinlarda qatnashganlarida ularning harakatlari faollashib, tartibli va aniqroq bo'lib boradi.

9-10 yoshli bolalarning o'yinlari birmuncha murakkablashtiriladi.

Agar o'qituvchi o'z oldiga o'quvchilarda sportning biror turi bo'yicha harakat ko'nikmalarini hosil qilish va o'zifasini qo'ysa, ayrim darslar shu vazifani bajarishda yordam

beradigan o'yinlardan iborat bo'lishi mumkin. SHuni ham nazarda tutish kerakki o'yin darslarini o'tkazish o'quvchilardan ayrim o'yin harakatlari ko'nikmalariga ega bo'lishni talab qiladi.

O'yin darslarini har o'quv choragining oxirgi o'n kunliklarida o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Chunki, shunda o'qituvchiga bolalar qanday harakat ko'nikmalarini egallagani aniqlash imkonini beradi.

Harakatli o'yinlar III-IV sinf darslarida ham ancha keng o'rin oladi. Bu sinflardagi harakatli o'yinlar jismoniy tarbiya darslarida hosil qilingan harakat ko'nikmalarini takomillashtirish va mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Darsning asosiy qismi muayyan vazifani amalga oshirishga, masalan, basketbol o'yinining asosiy elementlarini o'rgatishga doir o'yin materiallaridan iborat bo'lsa, uning kirish qismida "To'plar poygasi" singari harakatli o'yinlardan foydalanish mumkin. Bunday hollarda darsning asosiy qismiga "Ovchilar va o'rdaklar", "Otishma" o'yinlari kiritiladi.

O'yinlardan foydalanishda faqat ularning elementlari qanchalik tez bajarilganini emas, balki bajarilish sifatini ham alohida hisobga olish zarur (T.S.Usmonxo'jaev, 1990).

O'rta maktab yoshidagi o'quvchilar bilan o'tkaziladigan darslarda harakatli o'yinlar jismoniy tarbiyaning boshqa vositalariga o'rin bera boshlaydi. Ammo ana shu yoshdagi bolalarga har xil harakatli o'yinlar ham uyushtirib turiladi.

O'qituvchi harakatli o'yinlarni o'tkazishda uchun V-VII sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari ularning organizmi tezroq o'sishi bilan ifodalanishini unutmasligini va shuning uchun darslarda o'tkaziladigan mashg'ulotlar vaqtida uyushtiriladigan o'yinlarni asta-sekin murakkablashtirib, maqsadga muvofiqlashtirib berishi lozim.

O'yin jarayonida mazkur yoshdagi o'quvchilar haddan tashqari og'ir jismoniy harakat qilmasligi va o'qituvchi ularning har biriga tegishli munosabatda bo'lishi zarur.

V-VII sinflarda foydalaniladigan harakatli o'yinlar miqdori ancha kam bo'lib, ularning materiallari hajmi ta'lim-tarbiyaviy vazifalardan kelib chiqadi.

Mazkur sinflarda o'tkaziladigan harakatli o'yinlar tashkiliy jihatdan ham, harakatlarning mazmuni jihatdan ham birmuncha murakkabroq bo'ladi. Bunda sport elementlarini o'z ichiga olgan o'yinlarga, shuningdek, sport o'yinlariga kengroq o'rin beriladi.

V-VII sinflarda harakatli o'yinlarni darsning ikkinchi va uchinchi qismlarida o'tkazish tavsiya etiladi. Darsning asosiy qismida o'quvchilarni birorta murakkab sport o'yinini o'rganishga tayyorlash uchun darsning tayyorgarlik qismiga ba'zi o'yinlarni kiritish mumkin.

Harakatli o'yinlardan ko'zda tutiladigan asosiy maqsad o'quvchilarni sport o'yinlariga tayyorlashdir. Bunday o'yinlarda birorta sport o'yini texnikasi va taktikasining elementlari takomillashtiriladi.

Ishlab chiqilgan metodikaga asosan harakatli o'yinlardan foydalaniladigan darslar chorak oxirida, ta'til oldidan tekshirish normativlariga baho qo'yilganidan keyin o'tkaziladi. Darsning puxtaroq bo'lishiga erishish, shuningdek, orttirilgan ko'nikmalarni mustahkamlash

va o'quvchilarga beriladigan nagruzkani oshirish maqsadida o'yinlarda darsning asosiy qismi so'ngida foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. M.A.Qurbonova, M.U. Qosimova Milliy va harakatli o'yinlar: O'quv-uslubiy qo'llanma. T., 2009, 66 b.

2. Usmanxodjayev T.S., Sh.X.Isroilov, A.A.Pulatov, Sh.A.Pulatov "Milliy va harakatli o'yinlar" Darslik. - Toshkent, 2015, 300 b.

3. Абдуллаев У. "Халқ ўйинлари миллий спорт турларини тиклаш ва аҳолини жисмоний тарбиялашда улардан кенг фойдаланиш усуллари" мавзусига бағишланган жумҳурият миллий-амалий анжуманининг тезислари. 19-20 апрель 1991 йил 1-қисм, Б-12-15.

4. Былеева Л., Коротков И., Яковлев В. Подвижные игры. (учебные пособие для институтов физической культуры). М.: Физкультура и спорт, 1974 г., 208 с.

5. Былеева Л.В. Подвижные игры: Практический материал: Учеб.пособие. – М.: ТВТ Дивизион, 2005, 277 с.

6. Қорабоев У. Ўзбек ҳалқ ўйинлари Тошкент 2001. б 3-5

" BOBURNOMA" DA NAVOIY SIYMOSI**Nilufar Karomova Isomiddinovna***Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani 16- umumiy o'rta ta'lim maktabining ijodiy-
madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchisi*

Ulug' mutafakkir o'zbek shoiri davlat arbobi Mir Alisher Navoiy 1441- yil 9- fevralda Hirotda tavallud topdi. Otasi G'iyosiddin Bahodir temuriyzodalardan bo'lgan podshoh Abulqosim Boburning yaqinlaridan hisoblangan, mamlakatni boshqarishda ishtirok etgan. Onasi Kobul amirzodalaridan Shayx Abusaid Changning qizi bo'lgan.

Alisherning Navoiyning bolaligi Shohrux hukmronligining so'nggi yillariga to'g'ri kelgan. U temuriyzodalardan, xususan, bo'lajak Husayn Boyqaro bilan birga tarbiyalangan. To'rt yoshida maktabga borib, tez savod chiqarib, turkiy va forsiy tildagi she'rlarni o'qib yod olgan. O'n besh yoshida shoir sifatida keng tanilgan.

Navoiy Bobur uchun har jihatdan - hayotda ham, ijodda ham, insoniylik fazilatlarini va davlatni boshqarish yo'riqlari tarafidan ham ideal darajadagi inson edi. " Boburnoma" da uning buyuk salafiga ikki marta maktub yozgani to'g'risida ma'lumotlar bor: " Bu ikkinchi navbat Samarqandni olg'onda, Alisherbek tirik edi. Bir navbat manga kitobat ham kelib edi. Man ham bir kitobat yuborib edim, orqasida turkiy bayt aytib, bitib yuborib edim. Javob kelguncha tafriqa va g'avg'o bo'ldi". Bobur - ku Navoiyni maktubini talato'ponlarda yo'qotib qo'ygandir, ammo Navoiy Bobur so'zlarini kitob sahifalariga naqshlabgina qo'ymay, har bir ishi haqida ham avlodlarga yozib qoldirishga uringan, o'zi yozgan va o'ziga yozilgan maktublarni to'lab, " Munshaot" (Maktublar) degan alohida to'plam tartib bergan.

Bir safar Bobur Hirotda bo'lganida Navoiyning " Xazoyin ul - Maoniy" sini mutolaa qilib, uning asosida terma devon tuzganligi haqida ham ma'lumot beradi: " Odina kuni, o'ning yigirma uchida Alisherbekning to'rt devonidin buhur va avzon tartibi bila g'azallar va abyotkim, intixob qiladur edi, itmomig'a yetti".

Samarqandni ikkinchi marta olgani voqealarida Alisher Navoiyning hali hayotligi, bir marta unga kitobati ham kelganligi haqida xabar beradi. Albatta, avlodlarni ikki zabardast shoiri - Navoiy va Bobur o'rtasidagi munosabatlar qiziqtiradi. Afsuski, bir- biriga intilgan bu buyuk insonlarning bir- biriga yo'llagan maktublari bizgacha yetib kelmagan.

Bobur Navoiyni yana tilga oladi: " Mir Alisher Navoiy Hiridin Samarqandg'a kelgan fursatlar Ahmad Hojibek bila bo'lur edi. Sulton Husayn Mirzo podshoh bo'lg'ondin so'ngra Hiriga keldi". Uning Mirzoning nafaqat begi, balki yaqin do'sti va suhbatdoshi ekanligi, mijozni noziligi bilan mashhurligini aytib, iste' dodiga yuksak baho beradi, asarlarini nomma - nom sanab keltiradi, ilmu- hunar ahliga homiylikda hech kim uning oldiga tusholmasligini maqtaydi: " Alisherbek naziri yuq kishi edi. Turkiy til bila to she' r aytibdurlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas. Olti masnaviy kitob nazm qilibdur, besh" XAMSA"

javobida , yana bir " Mantiq ut- tayr" vaznida " Lison ut- tayr" otliq. Yaxshi ruboiyoti ham bor..."

Shundan ma'lum bo'ladiki, " Boburnoma " Alisher Navoiy davri, shaxsi, hayoti, ijodi, muhiti, safdoshlari to'g'risida ma'lumot berishi jihatdan navoiyshunoslik uchun muhim ilmiy manba ham hisoblanadi.

Buyuk ijodkor Hazrat Alisher Navoiyning avlodlarga qoldirgan ilmiy va adabiy merosi asrlar osha sayqallanib , nafaqat o'zbek xalqining , balki jahon xalqlarining ham iftixoriga , e' tirofiga aylanib bormoqda. Mamlakatimizda Alisher Navoiy yuksak darajada e' zozlanadi. Bir viloyat, shahar, oliy o'quv yurti, Toshkent Davlat kutubxonasi, Adabiyot muzeyi, Toshkentdagi Katta akademik opera va balet teatri, San' at saroyi, metro bekati, Toshkentdagi katta bog', yuzlab ko'chalar , Navoiy haykali va jamoa xo'jaliklari uning nomi bilan atalgan. Har yili shoir tavallud topgan kun ilmiy- ma'naviy, badiiy- musiqali tadbirlar, g'azalxonlik kechalari bo'lib, yosh avlod qalbida buyuk ajdodimizga uning abadiyat gulshanidan bahramand bo'lish chog'ida vatanga mehr, muhabbat , sadoqat tug'ilgan tuprog'imizga daxldorlik tuyg'ularini singdirish, uning milliy g'oyalariga sodiq holda o'tmish qadriyatlarimizga, ajdodlarimiz merosiga hurmat, mumtoz adabiyotimizga muhabbat uyg'otish, asosan , biz ustozlarning ham burchimiz, ham farzimizdir.

FUTBOLCHILARDA PSIXIK ZO'RIQISHNI YUZAGA KELITIRUVCHI SABABLAR VA ULARNI PSIXOLOGIK TAYYORLASH PRINTSPLARI

Satiev Shuxrat Komilovich

Namangan davlat pedagogika instituti.

Amaliy va tabiiy fanlar kafedrası, katta o'qituvchi.

Annotatsiya: *Motivatsiyalar shaklining xilma-xilligi futbolchining shaxsiy xususiyatlariga ham, shuningdek musobaqa ishtirokchilarining sport natijalarining ijtimoiy ahamiyatiga ham bog'liq bo'lishi mumkin. Sport tayyorgarliklari tizimida musobaqada ishtirok etish motivini shakllantirish juda muhim ahamiyat kasb etadi*

kalit so'zlar; *Futbolchi, emotsional stress, stressogen vaziyatlar, musobaqa ,sportchining psixologik tayyorgarligi*

KIRISH

Futbolchi uchun zarur bo'lgan asosiy ruhiy fazilatlar kundalik mashg'ulotlar jarayonida, faol raqobat faoliyatida shakllanadi va takomillashtiriladi. SHunday ekan, qaerda tayyorgarlik jarayoni uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil etilgan bo'lsa, bu sifatlarni takomillashtirish uchun yaxshi asos bo'ladi. Psixologik tayyorgarlikda jamoa zimmasiga yuklatilgan vazifalarning mohiyati katta ahamiyatga ega. Biz bu vazifalarni og'ir bo'lishiga yo'l qo'ymasligimiz va oz narsa bilan qanoatlanmasligimiz kerak. Bu vazifalar bajarilishi mumkin bo'lishi va ertangi kunni ko'zlagan holda jamoaning bugungi kundagi imkoniyatlariga javob berishi kerak. Ushbu muammo esa jaxon futbolining oldida turgan dolzarb masalalaridan biri bo'lib turibdi.

Tadqiqotning maqsadi. Futbolchilarni musobaqalar davridagi psixologik tayyorgarligi va o'yin natijalariga emotsional stressning ta'sirini o'rganishning uslublarini o'rganish hamda vositalarni ishlab chiqish va ilmiy asoslash.

Tadqiqotning vazifalari.

1. Futbolchilarni musobaqlarga psixologik tayyorlash yuzasidan ilmiy va ilmiy – uslubiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish;

2. Futbolchilarning stressogen vaziyatlarda o'zini boshqarishi, emotsiyasini yenga olishida, uning shaxsiy xarakterini aniqlab olish va emotsional xolatni baxolashning uslub va vositalarini o'rganib chiqish va yoritib berish;

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mazkur tadqiqot yuzasidan zamonaviy bilimlar darajasi va sporchilar (futbolchilar)ni psixologik tayyorlashdagi uslub xamda vositalardan yetarli darajada foydalana olish ularning o'yinlar va musobaqalar davrida xarakatlarni modellashtirishni hamda ob'ektlashtirishni futbolchilarni stressogen noxushliklarni yengib o'ta olishini va xarakat faolligida bir xarakatdan ikkinchi xarakatga o'ta olish tezligini rivojlanishiga streesslar va stresslarga yo'liqish va stressga bardoshlilik yuzasidan ko'plab

tadqiqotlar, masalalarning o'рни va ahamiyati bilan bog'liq qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bu tadqiqotlar yuzasidan zamonamizning yetuk olimlaridan O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport fanlari, jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi, boshqaruv, pedagogika va psixologiya, fiziologiya, sport tayyorgarligi asoslari yo'nalishlarida namunali ilm maktablari shakllandi. Akademiklardan A.Y.Yunusov, A.I.Yarotskiy, xizmat ko'rsatgan fan arbobi, professor A.A.Rixsiev, fan doktori, professor, I.G.Azimov, A.L.Ayrapetyants, M.Godik A., Karimov A, Gapparov Z.G

Kerimov F.A., Koshbaxtiyev I.A., Nurimov R.N., Xolmuxammedov R.D., Xonkeldiev SH.X., H.Aivitskiy, Nasriddinov A.N., Seytxalilov E.A., Tursunov Z.T., Hamrakulov A.K., Xudayberdiyev R.X., Yunusov T., Sport psixologiyasi va futbolchilarni texnik-taktik va psixologik tayyorlash xamda Sport psixologiyasi va futbolchilarni texnik-taktik va psixologik tayyorlash xamda ushbu muammo yuzasidan Akramov R.A. (1989), Qo'shbaxtiyev I.A. (2001), Iseev SH.T. (2003), Nurimov R.I. (2005), G'affarov Z. (1999), O'.Ibrohimov (2004), Yu. Ma'sharipov (1998), G'oziev Ye,G'. (1992), Davletshin G'. (1981) va boshqalar turli yillarda ilmiy izlanishlar olib borganlar mazkur mavzu yuzasidan o'zlarini tadqiqotlarini natijalarini taqdim etganlar.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlardan:

E.P.Ilyin, B. A. Vyatkin S.I.Yakovlev, I.G.Babushkin, O.A. Chernikova, A.TS. Puni A.V. Rodionov, A.D. Ganyushkin, V.L. Mareщuk, V. Goshek, G.D.Gorbunov, A. A. Uxtomskiy, Karolъchak-Biernatska A. V. Malъchikov, V. L. Mariщuk, Elmodъyan, A.A.Viru, S.A. Razumov, V. E. Milъmanlar ilmiy uslubiy adabiyotlarda sportchilarni psixologik tayyorlash va emotsional stresslarning xususiyatlari yuzasidan, o'z tadqiqot natijalari bilan o'rtoqlashganlar.

Xorijiy davlatlar olimlaridan –Kanadalik patafizolog psixologiyada stressning turlarini kashf etgan Gans Selъe, Uolter Kennon, CH. D. Spilberger, Z.Myuller, F.Mann, V.Goshek, P. Fress G,Stokfeld R, Lazarus V.R., Dohrenvend D., Mekanik, L. Levi., Goldstoun Cellierlar psixologik faoliyat va stresslarni xususiyatlarini o'z ilmiy adabiyotlarida yoritganlar

Tadqiqotning amaliy natijalari. Sport musobaqasi har qanday sport faoliyatining zaruriy va tarkibiy qismidir. Binobarin, har bir sport musobaqasi o'z mohiyatiga ko'ra, futbolchining muayyan musobaqalarga tayyorgarlik davridagi o'quv-mashg'ulot faoliyati natijalarini chiqarish demakdir. Sport musobaqalari sport murabbiysining ishi qay darajada to'g'ri ekanligini baholash usuli va uslubi hamdir. SHuning uchun ham, sport musobaqalari sportda mukammallikka erishish jarayonining ajralmas qismidir.

Musobaqalarsiz sport bo'lmaydi. Musobaqada ishtirok etishdan maqsad g'alabaga erishish, yoki futbolchi shu paytgacha erishgan yutuqlar darajasidan qat'iy nazar natijalarni yaxshilashdan iboratdir. Bu aksariyat hollarda juda qisqa vaqt ichida kishidan nihoyatda katta imkoniyatlarni namoyish qilishni talab etuvchi ekstremal vaziyatni yuzaga keltiradi. Musobaqalarda yuqori natijalarni, ko'rsatkichlarni qo'lga kiritishga intilish futbolchining

sport yutuqlari darajasidan, tayyorgarligi darajasidan va boshqa omillardan qat'i nazar namoyon bo'ladi.

Futbolchini musobaqaga yuqorida tilga olingan maqsadlar bilan tayyorlash undan yuqori darajali psixik zo'riqishni talab qiladi. SHu sababli futbolchining asab tizimi oldiga, uning jismoniy, psixik sifatlarini rivojlantirish darajasi oldiga hamda futbolchi shaxsining ma'naviy tomonlariga katta talablar qo'yiladi.

Futbolchida psixik zo'riqishni yuzaga keltiruvchi sabablar nimada? Bunday sabablar juda ko'p. Ulardan quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Futbolchining tayyorgarligi. Futbolchi o'z oldida turgan musobaqaga qanchalik yaxshi tayyorgarlik ko'rgan bo'lsa, u o'zini shunchalik ishonchli his qiladi, uning psixik holati ham optimal darajada bo'ladi, yaxshi tayyorgarlik ko'rmagan futbolchida esa buning aksi kuzatiladi. Bunday futbolchi nihoyatda qattiq hayajonlanadi, xavotirga tushadi.

2. Musobaqalashuv tajribasi. Futbolchi turli miqyosdagi musobaqalarda qancha ko'p qatnashgan bo'lsa uning shaxsiga xos ijobiy sifatlar shunchalik yaxshi namoyon bo'ladi. Biroq bunda futbolchining jismoniy, texnik, taktik, nazariy va psixologik tayyorgarligini o'zida mujassam etgan sport tayyorgarligi darajasi ham katta rol o'ynaydi.

3. Musobaqalar miqyosi. Musobaqalarning miqyosi qanchalik baland bo'lsa, futbolchilardagi psixik, zo'riqish ham shunchalik yuqori bo'ladi. Chunki futbolchining musobaqa faoliyati natijalarining shaxsiy va ijtimoiy ahamiyati, uning "g'alabasi" yoki "mag'lubiyati", futbolchi yoki jamoaning, davlatning ijtimoiy maqomi va obro'si oshishiga ta'sir ko'rsatadi. Albatta, zo'riqishning intensivligi futbolchining oldiga qo'ygan vazifalariga ham bog'liqdir.

4. Emotsional holatlarning sur'ati. Futbolchilarning musobaqa davomidagi motivlari darajasiga bog'liq bo'ladi, bularga qo'yidagilarni kiritish mumkin:

- musobaqalarda qo'lga kiritilgan g'alaba orqali, qo'lga kiritilgan sport natijasi orqali o'z shaxsiyatini namoyon qilish motivi;

- sport orqali o'zining moddiy ehtiyojlarini qondirish motivi;

- sport murabbiysiga yaxshi munosabat, murabbiyning umid va ishonchini oqlash motivi;

sportga xos kurashchanlikka intilish, sportga muhabbat motivlari;

- o'zini musobaqaviy faoliyatga xos bo'lgan ekstremal sharoitlarda sinab ko'rish motivlari;

- musobaqalardan g'alaba quvonchini kutish motivlari;

- musobaqalarda yuqori sport natijalariga erishib, mamlakat terma jamoasi tarkibiga kirish motivlari;

- sport orqali dunyoni ko'rish orzularini qondirish motivlari;

- dunyoviy rekordlarni o'rnatish bilan bog'liq motivlar;

- chempion bo'lish, sovrindor bo'lish va hokazo unvonlarga erishish bilan bog'liq motivlar;

- futbolchining estetik tuyg'ulari bilan bog'liq motivlar;
- futbolchining—vatanparvarlik, mamlakat, jamiyat, jamoa oldidagi burchi va majburiyati tuyg'usi, futbolchilik sha'ni tuyg'usi kabi ma'naviy tuyg'ulari bilan bog'liq motivlar.

Motivatsiyalar shaklining xilma-xilligi futbolchining shaxsiy xususiyatlariga ham, shuningdek musobaqa ishtirokchilarining sport natijalarining ijtimoiy ahamiyatiga ham bog'liq bo'lishi mumkin. Sport tayyorgarliklari tizimida musobaqada ishtirok etish motivini shakllantirish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Motivning ijtimoiy ahamiyati qanchalik yuqori bo'lsa, hamda futbolchi tomonidan yaxshi anglab yetilsa, futbolchining yuqori sport natijalarini qo'lga kiritishiga, musobaqalarda g'alabani qo'lga kiritishiga zarur bo'lgan sharoit shunchalik yaxshiroq yaratilgan bo'ladi.

5. Musobaqa ishtirokchilarining tarkibi. O'z kuchlariga ko'ra teng raqiblar musobaqalashganda kurashlar yanada qizg'in tus olib, futbolchilarning emotsional zo'riqishlari yuqori darajaga yetadi. Agar musobaqalashayotgan tomonlarning tayyorgarlik darajalari bir-biridan sezilarli farq qilsa, emotsional zo'riqish ham shu qadar past bo'ladi.

6. Musobaqalarni tashkil etish va jihozlash shart-sharoitlari. Odatda musobaqa yomon tashkil etilsa, hakamlar noto'g'ri ish tutsalar, emotsional zo'riqishning kuchayishi va agressiv, tajovuzkor his-tuyg'ularning paydo bo'lishi yuz beradi. Bundan tashqari agressiv his-tuyg'ularning paydo bo'lishiga tomoshabinlar sonining, ayniqsa musobaqalashayotgan futbolchilarga nisbatan do'stona munosabatda bo'lmayotgan tomoshabinlar sonining katta bo'lishi ham sabab bo'ladi.

7. Emotsional zo'riqishning kelib chiqishi. Futbolchi shaxsining individual xususiyatlariga ham bog'liqdir. Bunga quyidagilar kiradi: asab turi, temperament, shaxsning xarakteri, futbolchining irodaviy va ma'naviy rivojlanish darajasi.

8. O'z-o'zini tartibga solish usullarini egallaganligi darajasi. Agar futbolchi o'z-o'zini tartibga solish usullarini egallagan bo'lsa, bu uni turli noxush vaziyatlarda himoya qiluvchi ichki himoya vositasi bo'lib xizmat qiladi. Masalan, stress holati yuzaga kelganda yoki musobaqa jarayonida ko'plab salbiy omillar paydo bo'lganda tezkorlik bilan o'z vaqtida ularni bartaraf eta oladi.

Futbolchi musobaqalashuv faoliyatining eng muhim psixologik xususiyati shundaki, ushbu faoliyat shaxs sifatida uning qaror topishi va shaxsiyatini tarbiyalanishida muhim ahamiyatga egadir. SHu sababli ham sport sohasida shaxsni tarbiyalashda sport musobaqalari zaruriy shart-sharoit hisoblanadi.

Sportchilar va jamoalarning psixologik tayyorgarligi

Sportchining psixologik tayyorgarligini uning potentsial aqliy qobiliyatlarini amalga oshirishning uyushgan, boshqariladigan jarayoni deb atash mumkin.

Raqobatbardosh faoliyatda sportchilar turli xil hissiy holatlarni boshdan kechiradilar. Ushbu psixologlarning eng tipik xususiyati shunday deb ataladi: isitma boshlanishi, kurashga tayyorlik, befarqlik.

Isitmani boshlashdan oldin kuchli hayajonlanish, asabiylashish, o'tkir avtonom siljishlar mavjud. Prelaunch apatiyasi letargiya, sustlik va tortinchoqlik bilan tavsiflanadi. Eng maqbul holat - bu "jangovar tayyorgarlik" deb ataladigan psixologik tayyorlik holati.

A. Punining so'zlariga ko'ra, psixologik tayyorlik quyidagi tarkibiyqismlarni o'z ichiga oladi.

- hushyor o'ziga ishonch;
- qattiq kurashish istagi;
- hissiy uyg'onishning maqbul darajasi;
- shovqin immunitetining yuqori darajasi;
- fikrlaringizni, his-tuyg'ularingizni o'zboshimchalik bilan boshqarish qobiliyati.

Psixologik tayyorgarlikning uchta asosiy turini ajratib ko'rsatish odatiy holdir:

- umumiy psixologik tayyorgarlik;
- maxsus psixologik tayyorgarlik (birinchi navbatda sportchining samarali raqobatbardosh faoliyatga tayyorligini shakllantirishga qaratilgan);
- psixologik mudofaa (bu bezovtalik tuyg'usini yo'q qilishga va uni minimallashtirishga qaratilgan shaxsiyatni barqarorlashtirishning maxsus tartibga solish tizimi).

Sport futbolchining shaxsiyatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Sport musobaqalarining futbolchi shaxsiyatiga ta'siri ikki xil tarzda kechishi mumkin:

1. Stixiyali tarzda, o'zidan-o'zi, kutilmagan holda. Bunda mazkur ta'sirlar ham futbolchiga, ham uning murabbiysiga bog'liq bo'lmaydi;

2. Futbolchi faoliyatidagi musobaqalar oldidan va start oldidan o'tkaziladigan psixologik-pedagogik ta'sir tizimi orqali.[24.27]

Psixologik-pedagogik ta'sirning asosiy maqsadi, bu musobaqa oldidan va start oldidan tayyorgarligi jarayonida futbolchining o'z faoliyatini tashkil qila olish ko'nikmasini shakllantirish orqali, uning psixik tayyorgarligini safarbar etishdan iboratdir.

Har qanday musobaqalashuv faoliyatining ajralmas komponenti bu har bir alohida musobaqaning maqsadlarini aniqlash va unda erishish lozim bo'lgan vazifalarni belgilashdan iboratdir. Sport psixologiyasida "maqsadni belgilash" (maqsad ustanovkasi) degan alohida tushuncha mavjud. Har bir alohida musobaqa uchun maqsadni belgilash jarayonida futbolchining barcha real imkoniyatlari, ya'ni uning sport tayyorgarligi darajasi, shu jumladan psixologik tayyorgarligini ham hisobga olish kerak.

24 B.A.Vyatkin. Rol' temperamenta v sportivnoy deyatelnosti . Moskva : "FIZKULTURA I SPORT", 2000.

27A.TS.Puni. Problema lichnosti v psixologii sporta. Problema lichnosti v psixologii sporta. Moskva : Prosvещение, 1988.

Maqsadni belgilashni asosan sport murabbiysi tashkil etadi. Biroq bunda futbolchining o'z oldiga qo'yilayotgan vazifalarni qay darajada anglab yetishi ham o'ta muhim omildir. Ba'zan sport amaliyotida shunday holatlar ham kuzatiladiki, bunda sport murabbiysi eng yuqori natijalarni qo'lga kiritish maqsadida futbolchi oldiga "o'ta yuqori

vazifa"larni qo'yadi. Bunday hollarda murabbiy futbolchi tayyorgarligi holatini juda ham yuqori baholab yuborganligi namoyon bo'ladi, yoki murabbiy o'zining subektiv fikriga ko'ra, agar men futbolchi oldiga "o'ta yuqori vazifani" qo'ysam, u mazkur maqsadga erishish uchun musobaqalar jarayonida bor kuch va imkoniyatlarini ishga soladi, deb o'ylaydi va u ongli ravishda futbolchi oldiga o'ta baland maqsad va vazifalarni qo'yadi.

"Amalga oshirib bo'lmas" maqsadlarni belgilashda nihoyatda ehtiyot boiish kerak. Chunki bu futbolchidagi motivatsiyaning susayishiga, uning irodaviy xatti-harakatlarining sinishiga, musobaqalarda ishtirok etishga nisbatan qiziqishining pasayishiga sabab bo'lib, natijada musobaqalar jarayonida futbolchiga ko'rsatiladigan psixologik-pedagogik ta'sir kuchining pasayib ketishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, futbolchining musobaqada o'z oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarini qanday qabul qilishi va baholashini bilishning o'zigina kifoya emas, balki unda musobaqada qatnashishning maqsad va vazifalarini mustaqil ravishda ishlab chiqish, aniqlashtirish va chuqurlashtirish qobiliyatlarini tarbiyalash ham o'ta muhimdir.

Har bir vazifa, har bir qaror futbolchining eng yuqori imkoniyatlari darajasidan kelib chiqib belgilanishi lozim va zinhor bu imkoniyatlardan yuqori vazifalarni qo'yish mumkin emas. Biroq, bu degani musobaqa oldidan murabbiylar futbolchilar oldiga g'alaba qozonishni vazifa qilib qo'yishi mumkin bo'lmaydi, degani emas. G'alabani maqsad qilib belgilash ustanovkasi har qanday sport chiqishining bosh shartidir. Bunday maqsad bo'lmasa sport kurashlari ham o'z mazmunini yo'qotgan bo'lar edi. Ushbu jarayonda futbolchi oldiga qo'yilayotgan maqsad va vazifalar, o'zining real asosidan uzoqlashmasligi va psixologik jihatdan o'ta puxta ishlangan bo'lishi kerak. Tushunarli, ishonarli maqsad, aniq ifodalangan va puxta ishlangan vazifa musobaqa jarayonida futbolchining bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etishi uchun optimal sharoitlar yaratadi.

XULOSALAR

"Futbolchilarni psixologik tayyorlash va ularning printsplari." mavzusidagi ishi ustida, mavzu bo'yicha adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish va pedagogik kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdiki ruhiy tayyorgarlikning asosiy vazifasi - yuqori ruhiy-irodaviy sifatlarni tarbiyalash. Ruhiy tayyorgarlik vazifalarini rivojlantirish: jarayonlarni idrok qilishni (to'pni, vaqtni, bo'shliqni his qilishni) rivojlantirish; diqqatni rivojlantirish; kuzatishni rivojlantirish; kuzatishni rivojlantirish; eslash qobiliyati, fikrlashni (o'yin faoliyati xususiyatlari) rivojlantirish; o'zini tuta bilishni (emotsiya) boshqarishni rivojlantirish; taktik fikrlashni rivojlantirish (o'yin holatini baholash va samarali natijani qabul qilish demakdir).

Ruhiy tayyorgarlik jarayonida futbolchida nomaqbul holat yuzaga kelishi mumkinligi hisobga olinadi (tushkunlik, «start bezgagi», o'z-o'ziga ishonish).

Murabbiy futbolchida g'alabaga intiluvchanlikni tarbiyalashi, ayniqsa, futbolchiga musobaqaga tayyorlanish jarayonida ijobiy yoki salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan emotsional ruxiy xususiyatlarni tarbiyalashga alohida e'tibor berishi kerak.

O'yinga tayyorlashda har bir futbolchining individual xususiyatlarini hisobga olish lozim. SHu bilan birga, o'yinning ahamiyati, turnirdagi, chempionatdagi g'alabani tub mohiyatini yetkaza bilish lozim.

Suhbatlarning (moslamani) cho'zilishi, murabbiyning bezovtalanishi o'yinchilar ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, hayajonini kuchaytiradi. Odatda, begona shaxslarning aralashuvi, ularning maslahatlari jamoaning o'yinga tayyorgarligini susaytiradi.

Hozirgi zamon talabiga ko'ra futbolchining musobaqaga tayyorlik holati muxim muammo bo'lib hisoblanadi.

Futbolchini musobaqalarga ruxiy tayyorlash - bu murabbiyning pedagogik faoliyatidagi muhim bir qismidir. Murabbiy sport faoliyatida yuqori natija ko'rsatishi uchun futbolchiga kerakli bo'lgan ruxiy omillarni chuqur bilishi, ularni maqsadga muvofiq rivojlantirishi futbolchilarning yuqori darajali mahoratga ega bo'lishlarini, musobaqalarda ishonch bilan barqaror natijalar ko'rsatishlarini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN DABIYOtlAR:

1. Psixologiya ekstremal'nykh situatsiy. Xrestomatiya. - Minsk, 2002
2. Psixologiya ekstremal'nykh situatsiy dlya spasateley i pojarnykh. - M.: Smysl, 2007
3. Марищук V.L. Povedenie i samoregulyatsiya cheloveka v usloviyax stressa. - SPb., 2001
4. Akramov R. «Futbol» darslik. 2006 y.
5. Brayent DJ. Kretti. Psixologiya v sovremennom sporte. -M: FiC, 1988 g.
6. Davletshin M.G. «Ta'limning psixologiyasi». T-1978 yil.
7. Djamgarova T.T., Puni A.Ts. Psixologiya fizicheskogo vospitaniya i sporta, Fizkultura i sport, 1989 y.
8. Genov F. Genova T. Mobilizatsiya i autogennaya trenirovka sportsmena. FiS 1993 y.
9. G'oziev E.G'. Psixologiya, - Toshkent. O'qituvchi, 1992 y.
10. Koshbaxtieva I.A. Upravlenie podgotovki futbolistov. Tashkent. 2001 y.
11. Masharipov Y., Sportchilarda tajovuz va do'q-po'pisa holatining psixologik sabablarini o'rganish. Psixologiyaning ba'zi masalalari. Samarqand: 1995 y,
12. Nurimov R.I. Yosh futbolchilarni texnik va taktik tayyorlash. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2005 y.
13. Rudik P.A. Psixologiya. -Moskva: FiS. 1984 y.
14. Futbol. Fizkultura institutlari uchun darslik. P.N.Kazakovning umumiy tahriri ostida. Toshkent «O'qituvchi», 1981 y.
15. Futbol. Darslik R.A.Akramovning umumiy tahriri ostida. Toshkent, O'zDJTI nashriyoti. 2006 y.
16. Futbol. Uchebник. Pod obsh.red. R.I.Nurimov. Tashkent. 2005 y.
17. Ibrohimov O'. «Sport psixologiyasi». T-«Yangi avlod», 2004 y.

**ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА «ТЕХНОЛОГИЯ» ФАНИНИ ЎҚИТИШНИНГ
ДИДАКТИК ШАРТ-ШАРОИТЛАРИ**

Наманган давлат университети

Технологик таълим кафедраси

ўқитувчиси

Турсунова Ш.Б

Технологик таълим йўналиши

Талабаси

Эгамбердиева К.М

Аннотация: *Замонавий технологиялар орқали баъзи ўқитувчиларга ўзларини синаб кўрилган ва ишончли таълим амалиётларига янги рақамлаштирилган таълим ресурслари орқали янгиликларни жорий этишга қандай ёрдам бераётганига ойдинлик киритиш учун қуйидаги замонавий ўқитиш усуллари ҳақида фикр юритилади.*

Калит сўзлар: *Таълим ,технология, дидактик, эволюцияси, импорт, ClassFlow, виртуал, гемификация,иммерсив.*

Жахон олий таълим тизимидаги технологик таълим йўналишига оид етук замонавий кадрлар тайёрлаш дастурлари доирасида умумий ўрта таълим мактаблари учун халқаро тажрибаларни ҳисобга олган ҳолда малакали мутахассислар тайёрлашда янги турдаги замонавий ўқув ишлаб чиқариш устахоналарини (лаборатория) барпо этиш, махсус жихозланган технопарклар қуриш ва муқаддам қурилган ўқув ишлаб чиқариш устахоналарини замонавий хорижий тажрибалар асосида жахон стандартларига мослаштириш ижобий самарага эришишнинг асосий омилларидан хисобланади. Замонавий таълим жараёнида «Технология» фанини ўқитишнинг дидактик шарт-шароитлари, мавжуд муаммо ва таълим сифатини оширишга таъсир этувчи асосий омиллар бор. Бевосита таълим жараёнида рақамлаштирилган таълим ресурсларидан фойдаланишнинг ўзига хос хусусиятлари, имкониятлари ва зарурий воситалар,технологиясидаги ютуқлар ўқитувчиларни ёки анъанавий ўқитиш усуллариини алмаштириш билан боғлиқ эмас. Бунинг ўрнига, бугунги замонавий ўқитиш усуллариининг аксарияти эски усул ва воситаларнинг эволюциясидир десак хато бўлмайди.

Ўқитувчилар ким ва улар кимга дарс беришлари, улар нимани қўллаб-қувватлашлари ва нимага эришмоқчи эканликлари ўзгаришсиз қолмоқда. Бу шунчаки эмас, ўқитувчиларнинг вазифаси хар қандай таълим шаклида ҳам ўргатиш ва билим беришдан иборатдир.

Таълим ва технология эволюциясини намойиш этишга ёрдам бериб, биз замонавий технологиялар орқали баъзи ўқитувчиларга ўзларини синаб кўрилган ва ишончли таълим амалиётларига янги рақамлаштирилган таълим ресурслари орқали янгиликларни жорий этишга қандай ёрдам бераётганига ойдинлик киритиш учун қуйидаги замонавий ўқитиш усулларининг эволюциясини ёритдик:

1. Ўқитувчиларнинг ўзаро муносабатлари яхшиланди. Технология реал вақтда ўқитувчининг талабалар билан ўзаро муносабатини рағбатлантиришга ёрдам берадиган кўплаб воситаларни тақдим этади. Мисол учун, ўқитувчилар саволнинг устига проекторга қоғоз қўйиб, жавобни очиш учун олиб ташлаган бўлса, бугунги ўқув дастурлари ана шу эски усулларни ўзлаштириб, модернизация қилди.

2. Самарадорликни ошириш. Дарс мазмунини роликли доскада сақлаш ёки ҳар бир дарсни доскада олдиндан тайёрлаш керак бўлган кунлар ўтди. Энди ўқитувчилар ClassFlow каби платформалардан қайта-қайта фойдаланиш мумкин бўлган янги ва мавжуд дарсларни импорт қилиш учун фойдаланишлари мумкин.

3. Кўпроқ илҳомлантирувчи ўрганиш. Тарихий жиҳатдан талабалар дарсликлардан билим олишган. Бироқ, кенгайтирилган ҳақиқат, виртуал ҳақиқат, гемификация ва 3D принтерлар ҳозирда кўп сенсорли, иммерсив ўрганиш тажрибасини яратиш учун фойдаланилмоқда.

4. Баҳолаш юкининг камайиши. ClassFlow чексиз соатларни белгилаш ўрнига, ўқитувчиларга баҳоларни яратиш ва бажариш, натижаларни тез ва осон экспорт қилиш имконини беради; реал вақт режимда ўрганиш вақтида жавобларни белгилаш ва саралаш қобилияти билан.

5. Максимал ўрганиш вақти. Уй вазифаси ўқитувчилар томонидан ўрганишни максимал даражада ошириш учун узоқ вақтдан бери қўлланилган. Бироқ, баъзи таълим тизимлари сценарийни ўзгартирмоқда, талабалар аудиториядан ташқарида маърузаларни томоша қилиш учун технологиядан фойдаланадилар ва ўқитувчилар ҳар қандай саволларга жавоб бериш учун дарс соатларида тегишли вазифаларни бажарадилар. Топшириқ учун ёрдамчи материаллар ClassFlow дарси, веб-ҳавола, ҳужжат, видео ва ClassFlow баҳосини ўз ичига олиши мумкин. Ўқитувчилар ҳатто биргаликда уй вазифаларини ҳам белгилашлари мумкин.

6. Ҳар қандай янги маълумот йиғиш машғулотларига киришдан олдин, олий таълим тизимлари ушбу учта асосий саволга ойдинлик киритиши мумкин бўлган мавжуд маъмурий маълумотлардан тўлиқ фойдаланиши керак. Бу ички баҳолаш шаклида бўлиши мумкин, шунингдек, бўлажак ўқитувчилар билиши шарт бўлган ҳозирги кундаги ўқувчиларни баҳолаш халқаро дастури (PISA), Математика ва табиий фанлар бўйича тенденциялар халқаро тадқиқоти (TIMSS) ва Ўқиш саводхонлигини баҳолаш халқаро тадқиқот дастури (PIRLS), ўқитиш ва талим олиш халқаро тадқиқоти (TALIS) каби халқаро ўқувчиларни баҳолаш дастурлари шаклида бўлиши мумкин. Таҳлил қилинган илмий адабиётлар шунини кўрсатдики, агар мактаб тизимларида ed-

tech ислоҳотларига тайёрлиги ҳақида маълумот етишмаса ёки улар мавжуд маълумотларни янада бойроқ кўрсаткичлар тўплами билан тўлдиришга интилса бунда бўлажак «Технология» фани ўқитувчилари учун сўровномалар тўплами ташкил этилади. Ўқитувчилар доимо ўқувчилар учун ўрганишни индивидуаллаштиришга интилади. Технология уларга реал вақт режимида талаба маълумотлари, контент, иловалар ва бошқаларга кириш орқали янги ютуқларга эришишга ёрдам беради. Технология ўқитувчиларга аралаш таълим муҳитини яратишда ва форматив ва сумматив баҳолаш учун рақамли воситалардан фойдаланишда ёрдам беради, синфларга ўрганиш ва ўқитишнинг янги моделларини олиб келади.

Таълимдаги технология ва ўқувчилар қўлидаги тўғри қурилмалар уларни бугунги ва эртанги иш кучида муваффақиятли бўлишлари учун касбий ва техник кўникмалар билан тайёрлашга ёрдам беради

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Абдуллаев С.Х., Турсунова Ш.Б. Технологик таълим сифатини оширишда бўлажак ўқитувчи касбий компетенциясининг ўрни // Ижодкор ўқитувчи. Тошкент, 2021 йил, 4-сон. Б.347-355

2. Турсунова Ш.Б. Ўқитувчи касбий компетентлигини шакллантириш омиллари // Т.Н.Қори Ниёзий номидаги Ўзбекистон Педагогика фанлари илмий тадқиқот институти “Узлуксиз таълим” илмий услубий журнал 2021 йил Махсус сон. – Тошкент, 80-83 бетлар (13.00.00№ 9)

3. Турсунова Ш.Б. Ўқитувчи касбий компетенциясини ривожлантиришда креатив мулоқот омиллари // Т.Н.Қори Ниёзий номидаги Ўзбекистон Педагогика фанлари илмий тадқиқот институти “Узлуксиз таълим” илмий услубий журнал 2021 йил Махсус сон. – Тошкент, 80-83 бетлар (13.00.00№ 9)

4. Турсунова Ш.Б. “Бўлажак технологик таълими ўқитувчиларини педагогик фаолиятга тайёрлаш йўналишлари” // Муғаллим ҳам узлуксиз билимлендириш № 5/2-2022 йил ISSN 2181-7138.85-89 бетлар(13.00.00 № 20)

5. Турсунова Ш.Б. Бўлажак технологик таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш педагогик муаммо сифатида // НамДу илмий ахборотномаси.-Наманган, 2022. № 10- сон. Б 469-474.(13.00.00; №30)

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT HOKIKIMIYATINI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI**Vaxobov Abbosbek Biloljon o‘g‘li***Farg‘ona viloyati yuridik texnikumi o‘quvchisi*

Annotatsiya: *mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati qonuniy asosda saylab qo‘yilgan organlar, ya‘ni prezident, parlament, hukumat, sudlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa maxsus muassasalar tomonidan amalga oshirillishi, mazkur organlar tomonidan amalga oshiriladigan barcha xatti-harakat el-yurt manfaatiga mos kelishi yuzasidan fikr yuritilgan. Shuningdek, mamlakatda davlat hokimiyatini amalga oshirishning qonuniy asoslari yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *demokratiya, demokratik davlat, hokimiyat, qonun, konstitutsiya, prezident, parlament, hukumat, sudlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, prokuratura, inson huquqlari, davlat tuzumi, vakillik organi, Oliy Majlis, Senat, Qonunchilik palatasi*

O‘zbekiston Respublikasi demokratik davlat bo‘lganligi sababli davlat hokimiyati qonuniy asosda saylab qo‘yilgan organlar, ya‘ni prezident, parlament, hukumat, sudlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa maxsus muassasalar tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur organlar tomonidan amalga oshiriladigan barcha xatti-harakat el-yurt manfaatiga mos kelishi kerak. Hatto amalga oshirillishi lozim bo‘lgan kuch ishlatish va boshqa tazyiqlar ham xalq manfaati yo‘lida bo‘lishiga harakat qilinadi. O‘zbekistonda davlat hokimiyati davlat mustaqilligini saqlash, inson huquqlarini himoya qilish, fuqarolar osoyishtaligini ta‘minlash, xalqning farovon turmush tarzini yuksaltirish vazifasidan kelib chiqib, o‘z faoliyati yo‘nalishlarini belgilaydi va ishni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasining davlat tuzumi — asosiy qonunlar – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining ikkinchi sessiyasida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining suvereniteti to‘g‘risidagi deklaratsiya” bilan mustahkamlangan siyosiy, huquqiy, ma‘muriy, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tizimidir. 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan “Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qonun (Konstitutsiya qabul qilingunga qadar mamlakatning asosiy qonuni o‘rnini bosgan) va 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyaga asosan O‘zbekiston Respublikasi prezidentlik boshqaruv shaklidagi suveren demokratik Respublika hisoblanadi.

Davlat suvereniteti O‘zbekiston ni daxlsiz va bo‘linmas hududga ega suveren demokratik respublika deb e‘lon qildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining I bobiga asosan Davlat xalq irodasini ifodalaydi, o‘zining ichki va tashqi siyosati yo‘nalishini mustaqil belgilaydi.

Demokratiya – davlat hokimiyatining yagona manbayi O‘zbekiston xalqi bo‘lib, uning fuqarolari, millatidan qat‘i nazar, davlat boshqaruvida bevosita yoki o‘z vakillari orqali

ishtirok etadilar. Asosiy davlat va jamoat masalalari umumxalq ovoz berish – referendum orqali qabul qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining II bobida ta’lidlanganidek, O‘zbekiston xalqi nomidan faqat saylangan Oliy Majlis raisi va Prezident so‘zga chiqishi mumkin.

Qonunlar va konstitutsiyaning so‘zsiz ustunligi shundaki, barcha fuqarolar va davlat organlari faqat amaldagi qonunlar doirasida harakat qilishlari shart. Bu O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining III bobida belgilab qo‘yilgan.

Davlatimiz mustaqil tashqi siyosatga ega. Unga ko‘ra O‘zbekiston xalqaro munosabatlarning to‘laqonli subyekti hisoblanadi. O‘zbekiston o‘z tashqi siyosatida xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari va normalariga, shuningdek, davlat va xalqning oliy manfaatlariga asoslanadi (O‘zbekiston Konstitutsiyasining IV bobi)

Asosiy qonunning 11-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston da davlat hokimiyati tizimi uchta mustaqil tarmoqqa: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘lingan.

Qonun chiqaruvchi organ – oliy davlat vakillik organi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi bo‘lib, u ikki palata – Senat va Qonunchilik palatasidan iborat. Senat va Qonunchilik palatasining vakolat muddati 5 yil etib belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati hududiy vakillik palatasi bo‘lib, 100 nafar a‘zodan iborat. Senat a‘zolari — Qoraqalpog‘iston Respublikasidan Jo‘qorg‘i Kengesi deputatlari hamda respublikaning har bir viloyati va Toshkent shahridan yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylanadigan olti nafar vakil, tegishli vakillik organlari deputatlari orasidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylanadi. . Senatning 16 nafar a‘zosi davlat va jamiyat faoliyatining turli sohalarida katta xizmatlari va tajribasi bo‘lgan fuqarolar orasidan Prezident tomonidan tayinlanadi.

Qonunchilik palatasi (Quyí palata) bir yuz ellik deputatdan iborat. Qonunchilik palatasining bir yuz o‘ttiz besh nafar deputati umumiy, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida ko‘ppartiyaviylik asosida hududiy bir mandatli saylov okruglari bo‘yicha yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylanadi. Qonunchilik palatasining 15 nafar deputati O‘zbekiston Ekologik harakatidan saylanadi.

Ijro etuvchi hokimiyatni Bosh vazir, uning o‘rinbosarlari, vazirlar, davlat qo‘mitalari raislari, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumati rahbaridan iborat O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi. Bosh vazir nomzodi parlamentda ko‘pchilikni tashkil etgan siyosiy partiya yoki Qonunchilik palatasida teng miqdordagi deputatlik o‘rinlarini olgan siyosiy koalitsiya tomonidan ko‘rsatiladi. Vazirlar Mahkamasi – davlatning iqtisodiy va ijtimoiy sohasiga rahbarlikni, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident qarorlari va farmonlari ijrosini ta‘minlashni amalga oshiradi; butun mamlakat hududida bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi. Vazirlar Mahkamasi mamlakatning yangi saylangan parlamenti oldidagi vakolatlarini iste‘foga chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil ravishda faoliyat yuritadi. Sud hokimiyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va uning Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi tuzilmaviy bo'linmalari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar, Toshkent shahar sudlari, tumanlararo sudlardan iborat. Fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlari; O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyatlar va Toshkent shahar xo'jalik sudlari. Fuqarolik, harbiy va xo'jalik sudlari faoliyat olib boradi. Sudyalarining vakolat muddati — besh yil.

Mamlakat hududida qonunlarning aniq va to'g'ri bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar zimmasiga yuklatilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori Jo'qorg'i Kenges tomonidan tayinlanadi va Bosh prokuror tomonidan tasdiqlanadi. Barcha darajadagi prokurorlarning vakolat muddati besh yil. O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi davlat organlari va jamoat birlashmalaridan mustaqil, faqat qonunga bo'ysungan holda faoliyat yuritadi.

Mahalliy vakillik organlari — hokimlar boshchiligidagi xalq deputatlari Kengashlari, ular ham yuqori mansabdor shaxslar va mahalliy ijroiya hokimiyati vakillaridir. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatiga quyidagilar kiradi: qonun ustuvorligini va qonunlar ijrosini ta'minlash, ularga ishonib topshirilgan hududda iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik muammolarni hal qilish.

Mahalliy hukumat – aholi punktlari, qishloqlar va ovullardagi, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarda mahallalardagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rais va uning maslahatchilari boshchiligidagi 2,5 yil muddatga saylanadigan fuqarolar yig'inlari hisoblanadi. Raisning nomzodi hokim bilan kelishiladi.

O'zbekiston o'z xavfsizligi, Qurolli Kuchlarining suvereniteti va hududiy yaxlitligini ta'minlash uchun zarur va yetarlicha imkoniyatlarga ega. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari quruqlikdagi qo'shinlar, havo kuchlari, havo hujumidan mudofaa qo'shinlari, maxsus bo'linmalar, muhandislik-qurilish qo'shinlari va Milliy gvardiyadan iborat. Qurolli Kuchlarga oliy rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo'mondoni bo'lgan Prezident amalga oshiradi. Markaziy boshqaruv organi Mudofaa vazirligidir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatini amalga oshirishning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonun hujjatlari bilan mustahkamlab qo'yilgan. Muxtasar qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tegishli moddalari, xususan, 98-moddasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hokimiyatlar bo'linishi prinsipiga asoslangan holda ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshirib, mamlakatimizda iqtisodiy va ijtimoiy sohada samaradorlikni ta'minlash bo'yicha huquqiy maqomini belgilab berdi hamda mamlakatimizda ijro hokimiyati tizimini izchil isloh etish va yanada demokratlashtirish va modernizatsiya etishda mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tuxliev N, Kremensova A. Mening mamlakatim – T.: 2012.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: 2012
3. Karimov I.A. O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. - T.: O‘zbekiston , 1995
4. Энциклопедический юридический словарь - М.: ИНФРА-М, 1997.
5. Najimov M.K. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat – T.: TDYU, 2018.
6. Najimov M.K. davlat funksiyalari - T.: ТДЮУ, 2018.
7. Odilqoriyev X.T., Yakubov Sh.U. Milliy huquqiy tizim va huquqiy qadriyatlar. Monografiya – T.: SMI-ASIA, 2010.

BOG'CHA YOSHIDAGI BOLALARDAGI PSIXOLOGIK USTUVOR JIHATLAR**Xursanov Omadbek Ulug'bek o'g'li***Qo'qon universiteti, Ta'lim kafedrası**psixologiya fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada, bolaning psixik jihatdan o'sishda bog'cha yoshidagi davr ancha murakkab va juda mas'uliyatli davrdir. 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davr bog'cha yoshi davri hisoblanadi. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog'cha yoshida bola mustaqil bo'la olish uchun zarur bo'lgan ikkita qudratli kuchga ega. Birinchidan, ma'lum darajada o'ziga bo'ysundirilgan harakat apparatiga ega. Ikkinchidan esa, atrofidagi katta odamlar va o'z tengdoshlari bilan bir qadar erkin muosabatda bo'la oladigan nutqqa ega. Mana shuning uchun bog'cha yoshidagi bolalarning xulq – atvorlari, qiziqishlar va ehtiyojlari bog'chagacha tarbiya yoshidagi bolalarnikidan farq qiladi. Bu esa, o'z navbatida, bog'cha yoshidagi bolalar bilan bog'chaga tarbiya yoshidagi bolalar tarbiyasiga ham turlicha munosabatda bo'lishni taqozo etadi.*

Kalit so'zlar: *bola, tarbiya, nutq, bog'cha, ijtimoiy muhit, muloqot.*

Agar yangi tug'ilgan hamda bog'chagacha tarbiya yoshidagi bolalarga beriladigan tarbiya asosan ularni ovkatlanishi gigienalarini tartibga solish va sezgi organlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa bog'cha yoshidagi bolalarga beriladigan tarbiya ularning murakkab harakatlarini takomillashtirish, elementar gigiena, madaniy va mehnat malakalari hosil qilish, nutqlarini o'stirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didning dastlabki kurtaklarini yuzaga keltirishga qaratilgandir. Demak, asosan bog'cha yoshidan boshlab bolaning bundan keyingi butun shaxsiy hayoti davomida tarkib topa boradigan individual hususiyatlari ham yuzaga kela boshlaydi. Ana shu sababli ham insonning xar tomonlama kamol topa borishi va xususan, psixik jihatdan bog'cha yoshidagi davrida olgan ta'lim tarbiyasiga bog'liqdir. Bu haqida N.K.Krupskaya shunday deb yozgan edi: "yosh bolalik chog'laridan qolgan taasurotlari juda katta ahamiyatga ega".

Mashhur rus pedagoglaridan Lestgafning fikricha, insonning boshqa yoshdagi davri shunday bir davrki, bu davrda unda kelgusida qanday harakter hislatlari paydo bo'lishi belgilanadi va axloqiy harakterning asoslari yuzaga keladi. Insonning kamol topa borishda bog'cha yoshidagi davrning ahamiyatiga doir Lestgafning bu fikri buyuk rus pedagogi A.S.Makarenkong quyidagi fikriga to'la mos keladi. A.S.Makarenko bolalarni juda kichiklik davridan boshlab tarbiyalash zarurligi haqida gapirib, tarbiyaning eng muhim asoslari bolaning 5 yoshgacha bo'lgan davri mobaynida yuzaga keltiriladi. Mana shu davrda qilingan ish butun tarbiya prosessining 90 % ni tashkil etadi, degan edi.

Haqiqatdan ham bolaning bog'cha yoshidagi davri shu qadar mazmundor va aktiv davrdirki, bu davr bolaning kelgusi o'sishida albatta o'z aksini qoldiradi. Lekin bundan bolaning bog'cha yoshidagi davri, uning qanday odam bo'lib chiqishni batamom belgilab beradi, degan ma'no kelib chiqmaydi. Mana shuning uchun bola shaxsining shakllanishi faqat bog'cha yoshidagi davr bilangina bog'lab bo'lmaydi. Umuman inson o'z tabiati jihatidan deyarli butun umri davomida tarbiyalanuvchi mavjudoddir. Lekin har bir odam harakteriga xos bo'lgan shaxsiy xislatlarning yuzaga kelishida uning har bir yosh bosqichida olgan ta'lim tarbiyasini aksi sezilib turadi.

Bog'cha yoshidagi davr o'z ta'sir kuchi jihatidan g'oyat ma'suliyatlidir.

Bola yasli davrini o'tib, bog'chaga kelgach, uning yashash sharoitida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Birinchidan, bola bog'cha yoshiga o'tgach, uning faoliyat doirasi ancha boshqacha mazmunga ega bo'la boshlaydi.

Ikkinchidan, bola bog'chaga o'tgach, muayyan asosida mahsus pedagog tomonidan tarbiyalana boshlaydi.

Bolaning yashash sharoitida yuzaga kelgan bu o'zgarishlar uning psixik jihatdan o'sishiga ta'sir etmay qolmaydi. Mana shuning uchun bola bog'cha yoshidagi davrida faqat jismoniy jihatdangina o'smay, balki psixik jihatdan ham taraqqiyotning yana bir yuqori pog'onasiga ko'tariladi. Bog'cha yoshidagi bolaning har bir xatti – harakatidan uning mustaqilligi, nutqning elementar bo'lsa ham, gramatik jihatdan to'g'ri shaklini amaliy o'zlashtira boshlaganligi ko'rinib turadi. Bog'cha yoshidagi bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi hususiyatlaridan yana biri ularning taqlidchanlik va serharakatliklaridir.

Bog'cha yoshidagi davrida bolalarning naqadar serharakat bo'lishlari barcha ota – onalarga tarbiyachilarga ma'lum bu yoshdagi bola butun kun davomida xilma – xil va tinimsiz harakat qilish orqali atrofdagi muhit va odamlar bilan munosabatda bo'ladi. Binobarin, shunday xilma – xil harakatlar tufayli o'z tasavvuri hamda bilim doirasini kengaytirib boradi.

Bog'cha yoshidagi bolaning jismoniy jihatdan o'sishi.

Bog'cha yoshidagi bolaning jismoniy jihatdan o'sishini harakterli tomoni shundan iboratki, bu davrda ham bolaning tanasi bilan qo'l-oyoklari barobar mutanosiblikda o'smaydi. Bog'cha yoshidagi bolalarnig oyoqlari nisbatan ko'prok o'sadi.

Biroq, shunga qaramay, 6 yoshgacha bo'lgan bolaning suyaklari xali yaxshi qotmagan, ya'ni tog'aysimon bo'ladi. Muskullari ham hali baquvvat bo'lmaydi. Shuning uchun bog'cha yoshidagi bolalar ma'lum muddat davomida qiyshiq o'tirib qolishlari yoki bo'lmasa, qaltis harakat qilishlari orqasida umurtqa suyaklarini qiyshaytirib qo'yishlari mumkin. Ana shuning oldini olish uchun bu yoshdagi bolalar skeletining to'g'ri o'sishiga aloxida e'tibor berish kerak. Bog'cha yoshidagi bolalarning skeletlari kichik bolalarniki kabi elastik (egiluvchan) bo'lishga qaramay, uning asosiy qismlari bu yoshda tez qota boshlab, suyak shakliga kiradi.

Bola 7 yoshga etgach, umurtqa suyagining bo'yin qismida oldinga tomon, ko'krak qismida esa orqaga tomon ma'lum darajada egilish yuz beradi. Keyinchalik bolaning umurtqa suyagi mana shu shaklda saqlanib qoladi. Bog'cha yoshida bolaning bosh suyagi ham tez o'sadi. 3 yoshdan boshlab bosh miya suyagining orqa va tepa tomonlari tez o'sadi. Bolaning bosh suyagi 6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davrda tez o'sadi.

Bog'cha yoshidagi bolalarning jismoniy jihatdan o'sishlari davomida ularning tashqi qiyofalari va skeletlari bilan birga ichki organlari ham ancha tez o'sadi. Bog'cha yoshidagi bolaning yuragi xajmi jihatdan, chaqaloq bolaning yuragiga nisbatan 4-5 barobar ulg'aygan bo'ladi. Lekin barcha yoshida ular bir qancha marta ulg'aygan bo'lsa ham uning muskullari hali etarli darajada mustaxkamlanmagan bo'ladi. Mana shuning uchun bog'cha yoshidagi bolaning yuragi bir qisqarishda organizm uchun etarli qon siqib chiqara olmaydi. Bog'cha yoshidagi bola yuragining katta odamlar yuragiga qaraganda nisbatan tezroq urishini sababi ham mana shundadir. Chunonchi, agar bir yoshdagi bolaning yuragi 1 marta qisqarishda 10,2 kub.santimetr qon siqib chiqarsa, 7 yoshli bolaning yuragi 1 marta qisqarganda 23 kub.santimetr qon siqib chiqaradi. Katta yoshdagi odamlarning yuragi esa 60 kub.santimetrdan ortiqroq qon siqib chiqaradi. Shu narsani ham aytish kerakki, bolaning bog'cha yoshidagi davrida qon bosimi biroz kuchayadi. Bu hodisa barcha yoshdagi davrda yurakning nisbatan kuchli ishlashi bilan bog'liqdir.

Ma'lumki, o'pkaning normal ishlashi va rivojlanishga ko'krak qafasiga o'sishi ko'p jihatdan ta'sir qiladi. Chunki, o'pkaning faoliyati asosan ko'krak qafasi shakli va elastikligi bog'liqdir. Manashu jihatdan kichik yoshdagi va bog'cha yoshdagi bolalarning ham ko'krak qafaslari nafas olish qulay emas. Bolalarda diafragmaning bir qadar tik joylashganligi qisqartirib qo'ygan. Bundan tashqari, bog'cha yoshdagi bolalarda ko'krak qafasi vertikal uzunligini qisqartirib qo'ygan. Bundan tashqari, bog'cha yoshidagi bolalarning nafas olishlari katta odamlarning nafas olishlariga nisbatan yuzakirok bo'ladi. Bolalar o'pkasining hajmi etarli darajada kattalashmaguncha chuqur nafas olmaydilar. Natijada bolalar chuqur nafas olishning urnini tez nafas olish bilan qoplaydilar. Bog'cha yoshdagilarni boshqa organlar kabi ko'krak qafasi doirasining kengayishi bu davrda ham ancha tez davom etadi. Bola ko'krak qafasining doirasi yiliga 1-2 smdan kengayib borib, 13-14 yoshga etganda o'z shakli va hajm jihatdan katta odamlarning ko'krak qafaslariga yaqinlashadi. Ko'krak qafasining torligi va o'pkalarning kichikligi tufayli bolalar tez-tez nafas oladilar.

Bolaning bog'cha yoshidagi davrida, ya'ni 3 yoshdan 7yoshgacha bo'lgan davrida nafas olish miqdori deyarli o'zgarmaydi. Biroq bog'cha yoshidagi davrida bola xaddan tashqari harakatchan bo'lgani tufayli uning organizmi juda ko'p miqdorda oqsilni talab qiladi. Shuning uchun bolaning bog'cha yoshida mumkin qadar ochiq xavoni ta'minlash kerak bo'ladi.

Bog'cha yoshidagi bolalarning asab tizimining o'sishi

Ma'lumki bolalar asab tizimining eng kuchli taraqqiy etadigan davri 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan davriga to'g'ri keladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek yangi tug'ilgan bola

bosh miyasining o'rtacha og'irligi 380 – 400 gramm keladi. Bola bog'cha yoshiga etguncha uning miyasi g'oyat kuchli ravishda o'sib , deyarli 3 barobar ko'payadi. Demak , bog'cha yoshiga etgan bola miyasining og'irligi 1200 grammga etadi. Bog'cha yoshidagi bolaning miyasi faqat xajmi jihatidan ham ancha murakkablashadi. Masalan: 3 yoshli bola miyasidagi qo'zgalishlarni tegishli markazlarga elituvchi asosiy asab tolalari (asosiy o'tkazgichlar) mielinizasiyalashadi, ya'ni bir – biridan ajratuvchi yumshok oqimtir modda bilan qilinadi.

Bog'cha yoshidagi bolalar asab tizimining taraqqiyoti davomida bosh miya yarim sharlari po'stidagi asab hujayralari tobora murakkablashib boradi. Avval xech qanday shoxchalarga ega bo'lmagan asab xujayralari bolaning jismoniy jihatdan o'sishi davomida har tomonlama tarqalib ketgan juda nozik shoxchalarga ega bo'lib boradi.

Natijada bosh miya yarim sharlari o'rtasida muvofiq bog'lanishlar xosil bo'lish imkoniyati orta boradi. Biroq , bog'cha yoshidagi bolalar markaziy asab tizimlarida deyarli farq qilmasa ham faoliyat jihatdan ancha farq qiladi.

Bog'cha yoshidagi bolalar oliy asab faoliyatlarining o'ziga hos xususiyatlaridan yana biri shuki, tashki muhitdagi biron quzgatuvchining ta'siri bilan yuzaga keladigan qo'zgalish va tormozlanish proseslari yosh bolalarniki kabi iradiasiyalanish xususiyatini saqlab qolgandir. Natijada bog'cha yoshidagi bola miya po'stining ma'lum markazida joylashgan boshqa markazlarga ham keng tarqalib ketadi. Shuning uchun bog'cha yoshidagi bolalar o'z diqqatlarini biron narsaga uzok muddat davomida qarata olmaydilar Shuni aytib o'tish kerakki, markaziy asab tizimining taraqqiyoti bog'cha yoshidagi hamma bolalarda bir xil temp bilan davom etmaydi. Bu murakkab taraqqiyot bolalarning individual xususiyatlariga , xususan yashash sharoitlariga ya'ni oilada hamda yasli bilan bog'chada qanday tarbiyalanayotganlariga bog'liqdir. Bolaning tarbiyasi qanchalik to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lsa , uning asab tizimi shunchalik normal taraqqiy etadi. Bola asab tizimining taraqqiy etishda uniing atrofdagi narsa va xodisalar bilan bevosita va mustaqil munosabatda bo'lish juda katta rol o'ynaydi. Chunki bunda bolaning asab tizimi aktiv faoliyatda bo'ladi va binobarin , tez rivojlanadi shuning uchun bola qanchalik aktivlik bilan tashqi muxitni mustaqil o'rgansa , ya'ni aktiv ravishda aks ettirsa uning markaziy asab tizimi ham shunchalik tez takomillashadi. Mana shu xislatni nazarda tutib , tarbiyachilar bolalarning mustaqil faoliyatlarini to'g'ri tashkil etishga alohida e'tibor berib borishlari lozim .

Bog'cha yoshidagi bolalar asab tizimining takomillanishi davomida ularning sezgi organlari, ya'ni analizatorlari ham bora rivojlanib boradi. Sezgi organlari atrofimizdagi dunyoni bilishda asosiy qurol bo'lib xizmat qiladi. Bu xususan bog'cha yoshidagi bolalarga taa'luqlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Usmonov, S. A. (2020). Opportunities with working ability children in education. In *Psixologicheskoe zdorove naseleniya kak vajnbij faktor obespecheniya protsvetaniya obshchestva* (pp. 298-300).
2. Usmonov, S. A. (2020). Problems and solutions with working ability children. In *Psixologicheskoe zdorove naseleniya kak vajnbij faktor obespecheniya protsvetaniya obshchestva* (pp. 177-179).
3. Usmonov, S. A., & Xoldaraliyeva, A. A. Q. (2021). Talaba yoshlarni tolerantlik ruhida tarbiyalashning psixologik tamoillari. *Academic research in educational sciences*, 2(5), 73-77.
4. Usmonov, SH. A., Zakirova, M. S., & Nuriddinov, R. S. O'. (2021). Ilk o'spirinlik davrida aqliy qobiliyatlarning empirik tahlili. *Sovremennoe obrazovanie*

KREATIVLIKNING YUQORI MALAKALI TEXNOLOGIYA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDAGI O'RNI VA ROLI

Mamatmurod Xushboqov Rayim o'g'li

Termiz Davlat Pedagogika instituti

Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi

(Texnologik ta'lim) yo'nalishi

Annotatsiya: *Bugungi kunda ta'lim jarayonida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim masalalardan biri sanaladi. Shuning uchun ham bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini ijodkorlik ruhida tarbiyalash ijodkor insonlar bilan davra suhbatlarini olib borish har - bir o'tilayotgan darslarni ijodkorlik bilan tashkil qilish zarur. Shu jumladan pedagogik oliy o'quv yurtlarida Texnologiya fani o'qituvchilarini kreativlik qobiliyatini rivojlantirishni rag'batlantiradigan psixologik-pedagogik sharoitlarni yaratish zarur. Bugungi kunda jamiyatning oldiga qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarga to'g'ri yondashgan holda ularni amalda bajarish o'qituvchining vazifasidir.*

Kalit so'zlar: *texnologiya, o'qituvchi, kreativ, qobiliyat, rivojlantirish.*

Pedagogik faoliyat inson mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. Kreativlik tushunchasi (lot., ing. «tsreate»-yaratish, «tsreative»-yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilinganda ijod ma'nosini anglatadi. Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligi deb uning fikrlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkin. Kreativlik insonda mavjud ma'lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi.[2] «Kreativlik otasi» nomi bilan mashhur Pol Torrans to'rtta kreativlik konikmasini aniqlagan. Uning olib borgan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, mazkur kreativ ko'nikmalarni shakllantirish va ularni baholash mumkin: 1. Ravonlik. Ko'plab g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi ko'p degan so'zga asoslanadi.

Moslashuvchanlik. Turli g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi o'zgartirish degan so'zga asoslanadi. 3. O'ziga xoslik. Boshqalarga o'xshamagan, ajralib turuvchi g'oyani o'ylab topish ko'nikmasi noyob degan so'zga asoslanadi. 4. Yaratuvchanlik. G'oyalarni kengaytirish ko'nikmasi qo'shish degan so'zga asoslanadi.[1] Xorijiy pedagoglar, xususan, Patti Drapeauning fikricha, bir shaxsning ayniqsa o'qituvchining kreativligi boshqalarni ijodiy jarayonini tashkil etishga ruhlantiradi. Shaxsning ijodiy fikrlashi va kreativligini rivojlantirishga yordam beradigan quyidagi shart-sharoitlar mavjud, ijodiy qobiliyatlar va ijodiy motivatsiyaning mavjudligi. Shu bilan birga, agar bu uchta omil bir-biriga to'g'ri

keladigan bo'lsa, ijodiy qobiliyatlarning yuqori darajadagi namoyon bo'lishi mumkin. 1) aniq belgilangan va qat'iy nazoratdan farq qiladigan to'liq bo'lmagan holatlar; 2) kelgusi faoliyat uchun strategiya va vositalarni yaratish va ishlab chiqish; 3) mas'uliyat va mustaqillikni rag'batlantirish; 4) mustaqil ishlanmalar umumlashmalar, kuzatuvlarga e'tabor berish. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarda kreativ fikrlashlarini shakllantirish jarayonida, muammoli ta'lim texnologiyalaridan o'quv, ilmiy va kasbiy pedagogik muammolarni shakllantirish va hal qilishni ta'minlashda foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning barcha tashkiliy shakllari va usullarini bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish: ma'ruzalar, amaliy va seminarlar, mustaqil va yakka tartibdagi ishlarga bo'ysundirish hamda ularni jalb qilish zarur. Ma'lumki, muammoli ma'ruza talabalarning o'rganilayotgan masalalarga qiziqishini uyg'otadi, qo'shimcha ma'lumot izlashda faollik va mustaqillikni rag'batlantiradi. Shu bilan birga, o'qituvchi tomonidan taklif qilingan muammolarni hal qilish jarayonida ular tomonidan mustaqil qo'shimcha bilimlar olinadi. Muammoli ma'ruzalarga quyidagilar kiradi: ma'ruza-dialog, ma'ruza-munozara, ma'ruza-munozara va boshqalar. Muammoli amaliy va seminar mashg'ulotlari turli shakllarda o'tkazilishi mumkin, masalan: mavzuning individual masalalari bo'yicha munozaralar shaklida; munozara, debat (qo'shimcha o'quv materialini mustaqil o'rganishni talab qiladigan) shaklida; barcha o'quvchilarning diqqatini faollashtiradigan va dalillarga asoslangan fikrlashni rivojlantirishga hissa qo'shadigan tezislarni himoya qilish shaklida; kelajakdagi o'qituvchilarning nazariy bilimlarini amalda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradigan kasbiy va pedagogik muammolarni hal qilish shaklida; mutaxassislarni tayyorlashning faol usuli bo'lgan ishbilarmonlik o'yinlari shaklida, chunki ular tadqiqot, o'qitish va ta'limning ayrim shakllaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligining ajralmas qismi bo'lgan amaliy mashg'ulotlar loyiha usuli asosida tashkil etilishi kerak.[3] Bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchisining kreativligi, bu uning qat'iy chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil haqiqiy g'oyalarni izlab topish layoqatidir. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining kreativ bo'lishi uchun kishi ko'proq kreativ insonlar bilan muloqat qilishi va hamisha izlanishda bo'lishi lozim. Har qanday ko'nikmani shakllantirish mumkin bo'lganday, kreativ fikrlash qobiliyati yoki ko'nikmasini ham rivojlantirish mumkin. Buning uchun bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilari doimo o'z ustida tinimsiz ishlar olib borish shu bilan birgalikda kreativ insonlar bilan yaqindan suhbatlar olib borish kreativlik qobiliyatlarini o'zida shakllantirish kerak. Bu bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilari uchun juda muhim bo'lib, kreativlik ustida ishlash bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilariga noodatiy tarzda fikrlashga yordam beradi. Biroq bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarini ruhlantirish va kreativ bo'lishga undash o'qituvchining qay darajada malakali ekanligiga bog'liq. Shuning uchun ham bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarini ijodkorlik ruhida tarbiyalash muhim masalalardan biri sanaladi.[4] Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda pedagog

alohida o'rin tutadi. Bu jarayonda "pedagogning roli auditoriyada kreativlik muhitini yaratishdan iborat. Vaholanki, pedagog guruhda bo'lajak o'qituvchilar o'zini erkin seza oladigan va o'z fikrlari, g'oyalari bilan bo'lisha oladigan muhit yaratishi lozim. Bo'lajak o'qituvchilar inson ongida yuz berayotgan jarayonlarni yanada faollashtirish uchun o'rnatilgan qonun qoidalar, standartlardan chetga chiqib, turli savollar berishda erkin harakat qilishlari kerak. Pedagog bo'lajak o'qituvchilardagi kreativlikni noodatiy g'oyalarni o'rta tashlash va ularni verbal va noverbal tarzda rag'batlantirish orqali qo'llab-quvvatlaydi. Pedagogning bo'lajak o'qituvchilar berayotgan kreativ g'oyalari nisbatan to'g'ri munosabati ularning mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan shartlarni anglashida muhim ahamiyatga ega. Mazkur elementlarning barchasi pedagog-talaba munosabatining muhim qismi bo'lib, bo'lajak o'qituvchilar muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Kreativ muhitda ta'lim olayotgan bo'lajak o'qituvchilarda asta-sekin kreativ vazifalarni bajarishga nisbatan qiziqish ortadi, shuningdek, kreativ tafakkurga ega pedagogni kuzatish natijasida kreativ fikrlashga moyil bo'ladi. Kreativlik xarakteridagi o'quv muhiti bo'lajak o'qituvchilarda ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega bo'lgan tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmasining rivojlanishiga olib keladi. Har bir bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchisi ijodkor bo'lishi va har bir dars davomida ham ijodkor bo'lishi kerak. Kreativlik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va kreativlik nazariyachilarining ishlari bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarining kreativlik ko'nikmasini shakllantirishda qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Bu auditoriyadagi muhit, bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarini fikrlash tarzining shakllanishi, o'qituvchining yondashuv va strategiyalari elementlarini o'z ichiga oladi. Texnologiya fani o'qituvchilarini o'z kasbining bilimdoni qilib tayyorlashda oliy o'quv yurtlaridagi talabalar ilmiy tadqiqot ishlari metodologiyasini yaxshi yo'lga qo'yish katta rol o'ynaydi. Bunday ilmiy tadqiqot metodologiyasi bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashning asosiy jihati hisoblanadi. [5] Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda tadqiqotchilik ko'nikmalarining o'rne muhim. Bularga nazariy o'rganish, kuzatish, muammoni qo'ya bilish, faraz qilish, farazdan kelib chiqib reja tuzish, tajriba o'tkazish, tajriba natijalarini olish, farazga nisbatan tajriba natijasini taqqoslash, nazariy tahlil qilish va umumlashtirish, amalda qo'llab ko'rish kabilar bilan bog'liq ko'nikmalar kiradi. Aytilganlarning ba'zilari fan asoslarini o'rganishda, ba'zilari amaliyot jarayonida, yana boshqalari izlanish ishlari orqali shakllanadi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining faoliyatida, muammoni qo'yish uchun tadqiqot vazifasi birinchi o'ringa o'tishi maqsadga muvofiq, chunki unda bajariladigan ishning maqsadi va unga bo'lgan ehtiyoj o'z aksini topadi. Har bir bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining o'zini- o'zi rivojlantirishi va o'zini- o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq. bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisi o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati

ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining o'zini-o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. [6] Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarida boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda tez suratlarda rivojlantirilib boriladi. Odatda kreativlik bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarida ko'zga tashlanmasada, biroq bu holat kelgusida ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritishlarini kafolatlaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarida kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur: 1) ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llabquvvatlash; 2) bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish; 3) bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish; 4) bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari ning qiziqishlariga e'tibor qaratish Bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilari doimo ijodkor bo'lishi kerak shundagini o'z fanining ustasi bo'ladi. Ta'lim jarayonida ham ularni kreativlik qobiliyatlarini shakllantirishga shart-sharoit yaratib berish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sharipov Sh.S., Qo'ysinov O.A va boshq..Texnologiya fanini o'qitish va psixologik xizmatni tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma.-T.: „Muhammad poligraf “MCHJ, 2017
2. Bekmurodova S.Texnologiya fanini o'qitishda yangicha yondashuv.T.: 2017
- 3.Shomirzayev M.X. Ta'lim texnologiyalaridan foydalanish muammolari // Zamonaviy ta'lim. – T., 2019.
4. Muslimov N.A. «Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi» /Monografiya. -T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2013.
5. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Darslik.. –T.: “TerDU nashr-matbaa markazi”, 2020. – 226 b.
6. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o'qitishning samaradorligini oshirish yo'llari. O'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanma. –T.: 2019. – 72 b.

KREATIV TA'LIMDAN BOSHLANG'ICH SINFLARDA FOYDALANISH

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim fakulteti 1-G guruh talabasi

Orazbayeva Ra'no

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kreativ ta'limdan Boshlang'ich sinflarda foydalanish, uning ahamiyati va samaradorligi, kreativ ta'lim, kreativlik tushunchalari haqida so'z yuritiladi va kreativ ta'limning an'anaviy ta'limdan farqli va o'xshash jihatlari aytib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *Kreativlik, kreativ ta'lim, fan, texnika, Boshlang'ich ta'lim, ijodkorlik,*

Abstract: *This article discusses the use of creative education in primary grades, its importance and effectiveness, creative education, concepts of creativity, and the differences and similarities of creative education from traditional education. asked.*

Key words: *Creativity, creative education, science, technology, Primary education, creativity,*

Hozirgi zamon ta'limining bosh va asosiy vazifasi – o'quvchining intellektual darajasini, yaratuvchanligini, ijodkorligini, izlanuvchanligini takomillashtirish orqali yangi bilimlarni olish, yaratishga, ruhlantirishga qaratilgan bo'lib, bunda kreativlik o'ziga xos o'rinni egallaydi. Kreativlik so'zi "Creato"- lotincha so'zdan olingan bo'lib, ijodiy fikr, texnik loyiha, ijodkorlikka moyillik, o'quv – biluv jarayonida mas'uliyat, yaratuvchanlik kabi ma'nolarni anglatadi. Bizning ta'lim tizimimizda ta'lim berishning an'anaviy hamda noan'anaviy usullari mavjud. An'anaviy ta'lim asosan ilgaridan mavjud bo'lgan didaktikaga asoslangan, ya'ni o'quv jarayoniga ilgaridan fanga ma'lum bo'lgan bilimlarni o'qitish, o'rgatish, yetkazish bilan xarakterlanadi. O'qituvchi avvaldan ma'lum bo'lgan reproduktiv faoliyatni olib boradi. Bu esa asosan o'quvchining ta'lim mazmunini yodlab olishi, qayta takrorlab borishi bilan cheklanadi. Ya'ni ta'lim ilgaridan ma'lum bo'lgan predmet "avval hunar o'rgat, keyin shogird o'z xohishiga ko'ra nima qilsa qilaversin" yo'sinida ish tutish rasm bo'lgan. Noan'anaviy ta'lim esa, yangidan paydo bo'layotgan usullardan foydalanishdir. Ya'ni avvaldan bor bo'lgan metodlarning yangi ko'rinishda, yangicha talqinda, ularga bir qancha o'zgartirishlar va kreativlik kiritgan holda qo'llashdan iborat.

Biz kreativlik tushunchasiga ko'p bora duch kelamiz. R.A.Mavlanova o'zining «Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya» nomli o'quv qo'llanmasida kreativlikning o'zi nima, uning shakllanishi masalalariga alohida to'xtalib o'tgan. Qo'llanmada kreativlik tushunchasining mazmuni va mohiyati chuqur tahlil etilgan. Ammo kreativlik masalasining ilmiy-nazariy, ilmiy-pedagogik jihatlari maxsus ilmiy tatqiqot ob'ekti sifatida tatqiq etilmagan. Bugungi kundagi zamonaviy uzluksiz ta'lim tizimi kreativ yondoshuvni talab etadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim – bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta'lim turidan biri bo'lib, ta'limning bu bosqichida pedagog

o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklatiladi. Ya'ni boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik faoliyati hali maxsus o'rganishni talab etmoqda.

Kreativlik- shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lib, shaxsni o'z-o'zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'p qirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilishda va o'rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Kreativlik bevosita innovatsiyalar bilan bog'liq jarayondir. Negaki oqituvchining kreativlik faoliyat yuritishi uchun, u albatta o'zining sohasidagi eng songgi yangiliklardan, shu bilan bir qatorda butun jamiyatdagi voqea va hodisalardan boxabar bolishi, innovatsion yangiliklarni oz faoliyatida orinli foydalana olishi lozim.

Xulosa o'rnida aytib o'tish joizki, boshlang'ich sinf o'qituvchisi har qanday vaziyat, har qanday jarayon va har qanday paytda eng samarali yo'lni izlab topishi va uni amaliyotga joriy qilish orqali dars jarayonini samarali tashkil etishi, boshlang'ich sinf o'quvchilari ongiga tez, tushunarli, qulay, oson va samarali tarzda yetkazib berishi ham kreativlikning bir ko'rinishi sanaladi. O'qituvchining kreativligi, ushbu kreativlikning mohiyatini beruvchi ijodkorlik ustuvor xarakterga egadir. Bu esa bizning maqolamiz ob'ekti bo'lgan o'qituvchining kreativlik faoliyatining naqadar muhimligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. // Xalq so'zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11
2. R.A.Mavlonova, B.Normurodova "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" Toshkent 2007
3. N.Egamberdieva "Tarbiya texnologiyasi" Fan va texnologiyalar 2016-yil
- 4.R.A.Mavlonova, D.Abdurahimova. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma Toshkent Fan va texnologiya 2012-yil
- 5.S.Nishonova, M.Imomova, R.Xasanov. Pedagogika tarixi. Darslik Toshkent O'qituvchi 1996-yil
6. M.Ochilov. Muallim qalb me'mori. O'quv qo'llanma Toshkent O'qituvchi 2004-yil
7. N.Egamberdieva, Ijtimoiy pedagogika. Darslik. Alisher Navoiy nomidagi O'zMKN.Toshkent 2009-yil.

DARS JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN INTERAKTIV METODLAR

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim fakulteti 1-G guruh talabasi

Orazbayeva Ra'no

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy ta'limning mohiyatini ochib berish, pedagog faoliyatini keng qamrovli yoritish, bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy mahorat va darsga ijodiy yondashib, unda o'qitishning yangi shakl va usullarini qo'llash haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Interaktiv metodlar, ta'lim, texnologiya, metod, insert usuli, Venn diagrammasi, Kubiklar usuli*

Abstract: *This article describes the essence of modern education, comprehensive coverage of pedagogic activity, professional skills of future teachers, creative approach to the lesson, and the use of new forms and methods of teaching.*

Key words: *Interactive methods, education, technology, method, insert method, Venn diagram, Cubic method*

Biz axborot texnologiyalar tobora rivojlanib, ravnaq topib borayotgan XXI asrda yashamoqdamiz. Bugungi kunda bizning ta'lim jarayonimizda interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularning egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi.

Hozirgi kunda texnologiyalar rivojlangan bo'lib, kundan-kunga yangi texnikalar ixtiro qilinmoqda, o'rganish va o'rgatishning o'ziga xos usullari, dars jarayonida kerak bo'ladigan turli anjomlar ixtiro qilinmoqda. Masalan, biz maktabda o'qigan paytimizda, har bir sinfda elektron doska yoki televizorlar bo'lmagan. Hattoki, prayektor hamda kompyuter topish ham muammo bo'lgan. Hozir esa bu kabi muammolarga duch kelmaymiz. Bu nima degani, bu hozirgi davr bolalarining aqliy faoliyati ham o'sib boryapdi degani. Ilgarilari yozish-chizish maktabda o'rgatilgan bo'lsa, hozir bu vazifani Maktabgacha ta'lim muassasalari bajarmoqda. Bundan kelib chiqadiki, hozirda eski ta'lim berish usullaridan foydalanib bo'lmaydi. O'quvchilarning qiziqishini e'tiborini tortish uchun yangi-yangi metodlarni o'ylab topish va o'quvchilarga darslarni oson va samarali usulda yetkazib berish darkor. Jumladan, Kubiklar usuli. Kubiklar- o'zgartirilayotgan kelajakka asoslanib mavzuni ko'rib chiqishga yordam beradigan o'qitish usulidir. Har tomonlama, fikrlashga (yozishga) yordam beradigan har xil yo'l-yo'riqlar yozilgan kubik ishlatiladi. Tomonlarining hajmi o'rtacha 15-

20 sm bo'lgan qutichaga qog'oz yopishtirilib, kubik yasash mumkin. Kubikning har bir tomoniga oltita yo'l-yo'riq yoziladi: buni tasvirlang, buni taqqoslang, buni o'zaro bog'lanishini ko'rsating, buni tahlil qiling, buni qo'llang, yaxshi va yomon tomonlarini ko'rsatiladi (dalillar yordamida). O'tiladigan mavzu yoki biror tushuncha shu jadval savollari asosida tahlil qilib chiqiladi.

Venn diagrammasi. Venn diagrammasi bir-birini kesadigan ikki yoki undan ko'p doiralarda ko'riladi, ular o'rtasida yozish uchun yetarli joy qolishi kerak. U g'oyalarni zidlash uchun ishlatilishi yoki ularning umumiy xususiyatlarini (nimada ular kesishadi) ko'rsatishi kerak. Masalan, o'quvchilar Xristofor Kolumb ekspeditsiyalarini Marko Polo ekspeditsiyalari bilan taqqoslaydilar deylik. Venn diagrammasi bir-biriga yopishgan ikki doira bilan birga ushbu ekspeditsiyalar o'rtasida zidlik o'tkazish, ayni vaqtda ularning umumiy unsurlarini ko'rsatish imkonini beradi.

Insert usuli. Insert usuli tushunishni kuzatish vositasidir. Insert- bu o'quv jarayonida o'z anglashini faol kuzatish uchun o'quvchilarga imkoniyat beradigan kuchli vositadir, chunki shunday hollar borki, odam matnni oxirigacha o'qib, u yerda nima yozilganligini eslab qololmasligi mumkin. Bu esa odam nima o'qiyotganini tushunmay, o'qish jarayonida faol bo'lishga qatnashmaydigan va o'z anglashini kuzatmaydigan hollarning misolidir. Insert- bu matn bilan ishlaganda faollikni qo'llab- quvvatlash uchun kuchli vositadir. O'quvchi matn bilan ishlayotganda bir qator belgilarni qo'yib boradi, ular esa quyidagi ma'nolarni bildiradi: V - bilganlarimni tasdiqlaydi. + - yangi axborot, - - bilganlarimga zid keladi, ? - meni o'ylantirib qo'ydi. Bu usul aynan biz uchun judayam qulay bo'lib hisoblanadi. Chunki hozirgi davrda hamma o'qigan narsalarini unutib qo'yadi yoki e'tiborsiz ravishda o'qiydi. Insert usuli esa biz uchun ayni muddao.

Xulosa o'rnida aytib o'tish joizki, interfaol usullar orqali ta'lim samaradorligi oshadi, o'qituvchi va talaba o'rtasida o'zaro hamkorlik, talabalarda erkin ijodiy fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi va shakllanadi. Bu innovatsion yondashuvda talaba shaxsi ta'limda markaziy figuraga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. // Xalq so'zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11
2. R.A.Mavlonova, B.Normurodova "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" Toshkent 2007
3. N.Egamberdieva "Tarbiya texnologiyasi" Fan va texnologiyalar 2016-yil
- 4.R.A.Mavlonova, D.Abdurahimova. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma Toshkent Fan va texnologiya 2012-yil
- 5.S.Nishonova, M.Imomova, R.Xasanov. Pedagogika tarixi. Darslik Toshkent O'qituvchi 1996-yil
6. M.Ochilov. Muallim qalb me'mori. O'quv qo'llanma Toshkent O'qituvchi 2004-yil

**INNOVATION TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI
OSHIRISH**

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institute

Boshlang'ich ta'lim fakulteti 2-G guruh talabalari

Xurramova Xumora

Aitboyeva Shirin

Bozorboyeva Dilafuz

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy ta'limning mohiyatini ochib berish, pedagog faoliyatini keng qamrovli yoritish, bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy mahorat va darsga ijodiy yondashib, unda o'qitishning yangi shakl va usullarini qo'llash haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Innovatsion texnologiya, ta'lim, samaradorlik, o'qituvchi, o'quvchi, talaba, interaktiv metodlar, interfaol metodlar, pedagog, axborot texnologiyalari, o'quv jarayoni, pedagogik mahorat, bilim, pedagogik texnologiya, pedagogik jarayon.*

Abstract: *This article describes the essence of modern education, comprehensive coverage of pedagogic activity, professional skills of future teachers, creative approach to the lesson, and the use of new forms and methods of teaching.*

Key words: *Innovative technology, education, efficiency, teacher, pupil, student, interactive methods, interactive methods, pedagogue, information technology, educational process, pedagogical skill, knowledge, pedagogical technology, pedagogical process .*

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularning egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi- talaba asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari, interaktiv metodlardan foydalaniladi.

Innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi- talabalarning bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi . Innovatsiya so'zi inglizcha innovation so'zidan olingan bo'lib, yangilik kiritish, yangilik degan ma'nolarni bildiradi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik,

o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda, asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar deganimiz bu jamoa bo'lib fikrlashdir, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

-O'quvchi-talabaning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

-O'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;

-O'quvchi-talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har-bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi; -Pedagog va o'quvchi-talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirilishi.

Pedagogik texnologiya masalalari, muammolarini o'rganayotgan o'qituvchilar, ilmiy-tadqiqodchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya bu- faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq, hamda o'qitish jarayonida qo'llanilishi zarur bo'lgan kompyuter, masofadan o'qish yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Mening fikrimcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi bu o'qituvchi va o'quvchi-talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalarga bog'liq, ya'ni o'qitish jarayonida maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatni tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erishsa, o'quv jarayonida o'quvchi-talabalar mustaqil fikr bildira olsa, ijobiy qilsa, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa chiqarsa, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yaratsa, mening fikrimcha, anashu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir darsning, mavzuning, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchi-talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda, bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Xulosa o'rnida aytib o'tish joizki, maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish, ham o'qituvchi, ham o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo'ygan maqsad, tanlangan mazmun, metod, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq. O'qituvchi va o'quvchi-talabaning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tamonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'quvchi –talabalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri,sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun balkim kompyuter

bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlari, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar, bular o'qituvchi va o'quvchi-talabaga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. // Xalq so'zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11
2. R.A.Mavlonova, B.Normurodova "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" Toshkent 2007
3. N.Egamberdieva "Tarbiya texnologiyasi" Fan va texnologiyalar 2016-yil
- 4.R.A.Mavlonova, D.Abdurahimova. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma Toshkent Fan va texnologiya 2012-yil
- 5.S.Nishonova, M.Imomova, R.Xasanov. Pedagogika tarixi. Darslik Toshkent O'qituvchi 1996-yil
6. M.Ochilov. Muallim qalb me'mori. O'quv qo'llanma Toshkent O'qituvchi 2004-yil
7. N.Egamberdieva, Ijtimoiy pedagogika. Darslik. Alisher Navoiy nomidagi O'zMKN.Toshkent 2009-yil.

**INNOVATION TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI
OSHIRISHDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL METODLAR****Xurramova Xumora****Aitboyeva Shirin****Bozorboyeva Dilafruz***Ajiniyoz Nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti**Boshlang'ich Ta'lim Fakulteti 2-G Guruh Talabalari*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirishda qo'llaniladigan interfaol metodlar, ularning ahamiyati va samarasi haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Innovatsion texnologiya, ta'lim, samaradorlik, tarmoqlar, sinkveyn metodi, klaster usuli, insert usuli, ikki qismlik kundalik.*

Abstract: *This article talks about interactive methods, their importance and effectiveness, used in increasing the effectiveness of education with the help of innovative technologies.*

Key words: *Innovative technology, education, efficiency, networks, sink vein method, cluster method, insert method, two-part diary.*

Biz oldingi maqolamizda innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari haqida aytib o'tgan edik. Endi esa shu yo'lda qo'llaniladigan interfaol metodlarni bir qator ko'rib-o'rganib chiqamiz. Quyida o'qitish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan ba'zi bir treninglarga tavsifnoma berib, ba'zilarini o'tkazish tartibi to'g'risida metodik ko'rsatma berib o'tamiz. "Tarmoqlar" metodi o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga, umumiy fikr doirasini kengaytirishga, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan.

Sinkveyn usuli. Sinkveyn - fransuz tilida «5 qator» ma'nosini bildiradi. Sinkveyn-ma'lumotlarni sintezlash (bir butunga keltirish)ga yordam beradigan qofiyalanmagan she'r bo'lib, unda o'rganilayotgan tushuncha(hodisa, voqea, mavzu) to'g'risidagi axborot yig'ilgan holda, o'quvchi so'zi bilan turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi. Sinkveyn tuzish- murakkab g'oya, sezgi va hissiyotlarni bir nechagina so'zlar bilan ifodalash uchun muhim bo'lgan malakadir. Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi. Sinkveyn tuzish qoidalari:

1-qator: Mavzu bir so'z bilan ifodalanadi (odatda ot tanlanadi). 2-qator: Mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi (2 ta sifat yoziladi). 3-qator: Mavzu doirasidagi xatti-harakatni uchta so'z bilan ifodalanadi.(3 ta fe'l yoki ravishdosh yoziladi). 4-qator: Mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi va to'rtta so'zdan iborat bo'lgan fikr yoziladi.(4 ta so'zdan iborat

jumla yoziladi). 5-qator: Mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma'nosi unga yaqin bo'lgan bitta so'z yoziladi (mavzuga sinonim so'z yoziladi).

Masalan. -Shaxs -Serg`ayrat va baxtiyor.

-Izlanadi, fikr yuritadi, komillikka intiladi.

-Naqadar buyuk va murakkab mavjudot.

-Inson.

Klaster usuli. Klasterlarga ajratish- o'quvchilarga biror-bir mavzu to'g'risida erkin va ochiq tarzda fikr yuritishga yordam beradigan pedagogik strategiyadir. Bu usul ko'p variantli fikrlashni o'rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea)lar o'rtasida aloqa o'rnatish malakalarini rivojlantiradi. «Klaster» so'zi g`ujum, bog`lam ma'nosini anglatadi. Klasterlarga ajratishni da'vat, anglash va mulohaza qilish bosqichlaridagi fikrlashni rag`batlantirish uchun qo'llash mumkin. U asosan yangi fikrlarni uyg`otish, mavjud bilimlarga yetib borish strategiyasi bo'lib, muayyan mavzu bo'yicha yangicha fikr yuritishga chorlaydi. Klaster tuzishni yangi mavzuni mukammal o'rganmasdan oldin foydalanish maqsadga muvofiqdir. Klaster tuzish ketma-ketligi quyidagicha. Katta qog`ozning o'rtasiga yoki sinf doskasiga yoxud yozish uchun foydalanish mumkin bo'lgan sathga «kalit» so'z yoki gap yoziladi; Shu mavzuga tegishli deb hisoblangan va xayolga kelgan so'z va gaplar yoziladi; Fikrlar paydo bo'lganda va ularni yozganda fikrlar o'rtasida mumkin bo'lgan bog`lanishlarni belgilash; Fikrlar tugamaguncha yoki vaqt tamom bo'lgunicha xayolga kelgan barcha fikrlar yozilaveradi; Keltirilgan so'z va fikrlar mazmuni va yaqinligiga qarab toifalarga ajratib chiqiladi.

Insert usuli. Insert usuli tushunishni kuzatish vositasidir. Insert- bu o'quv jarayonida o'z anglashini faol kuzatish uchun o'quvchilarga imkoniyat beradigan kuchli vositadir, chunki shunday hollar borki, odam matnni oxirigacha o'qib, u yerda nima yozilganligini eslab qololmasligi mumkin. Bu esa odam nima o'qiyotganini tushunmay, o'qish jarayonida faol bo'lishga qatnashmaydigan va o'z anglashini kuzatmaydigan hollarning misolidir. Insert- bu matn bilan ishlaganda faollikni qo'llab- quvvatlash uchun kuchli vositadir. O'quvchi matn bilan ishlayotganda bir qator belgilarni qo'yib boradi, ular esa quyidagi ma'nolarni bildiradi:

V - bilganlarimni tasdiqlaydi + - yangi axborot - - bilganlarimga zid keladi

? - meni o'ylantirib qo'ydi. Bu usul aynan biz uchun judayam qulay bo'lib hisoblanadi. Chunki hozirgi davrda hamma o'qigan narsalarini unutib qo'yadi yoki e'tiborsiz ravishda o'qiydi. Insert usuli esa biz uchun ayni muddao.

Ikki qismlik kundalik usulidan ham matn bilan ishlash jarayonida foydalanish mumkin. Bu usul birinchidan, mavzu matnini chuqur tushunishga yordam bersa, ikkinchidan, o'quvchilarni ijodiy tafakkurga undaydi, ularning mustaqil fikr yuritishlarini kuchaytiradi. Berilgan matn o'qib chiqilgach, daftar varag`i quyidagi tarzda ikki qismga bo'linadi: PARCHA SHARH Chap tomondagi «Parcha» deb yozilgan qismga o'quvchilar matn yuzasidan biror parcha yoki ularga qattiq ta'sir qilgan narsa yoki ularni haqiqatda hayron qoldirgan

timsol haqida yozishlari kerak. Ehtimol, bu ularga shaxsiy tajribalaridan nimanidir eslatgandir, balki ularni qiziqtirgan yoki o'ylantirib qo'ygandir. Balki ular bu fikrga, narsaga qo'shilmaslar. Balki bu narsa o'quvchi uchun yangilikdir, balki shu narsa mohiyatini tushunib yetmagandir. Varaqning «Sharh» deb yozilgan o'ng tomoniga chap tomondagi tanlangan parcha (yoki parchalar) ga sharh yoziladi. Bunda nima uchun ushbu parchani tanlab olganligi, bu narsa uni nima haqida o'ylashga majbur etganligi, shu munosabat bilan unda qanday fikrlar tug'ilganligi haqida sharh beriladi.

Xulosa o'rnida aytib o'tish joizki, interfaol usullar orqali ta'lim samaradorligi oshadi, o'qituvchi va talaba o'rtasida o'zaro hamkorlik, talabalarda erkin ijodiy fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi va shakllanadi. Bu innovatsion yondashuvda talaba shaxsi ta'limda markaziy figuraga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. // Xalq so'zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11

2. R.A.Mavlonova, B.Normurodova "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" Toshkent 2007

3. N.Egamberdieva "Tarbiya texnologiyasi" Fan va texnologiyalar 2016-yil

4.R.A.Mavlonova, D.Abdurahimova. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma Toshkent Fan va texnologiya 2012-yil

5.S.Nishonova, M.Imomova, R.Xasanov. Pedagogika tarixi. Darslik Toshkent O'qituvchi 1996-yil

6. M.Ochilov. Muallim qalb me'mori. O'quv qo'llanma Toshkent O'qituvchi 2004-yil

7. N.Egamberdieva, Ijtimoiy pedagogika. Darslik. Alisher Navoiy nomidagi O'zMKN.Toshkent 2009-yil.

ILG'OR TAJRIBALARNI O'RGANISH METODI

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institute

Boshlang'ich ta'lim fakulteti 2-G guruh talabalari

Adenbayeva Aziza

Bozorboyeva Mavluda

1-B guruh talabasi

Muratbekova Go'zzal

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyingi ta'lim sohasidagi yangiliklar, turli xil kashfiyotlar va ilmiy tadqiqotlarning samarasi va ahamiyati haqida, ilg'or tajribalarni o'rganish metodlari hisoblangan kuzatish metodi, suhbat metodi, tarqatma materiallar haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Tajriba, metod, kuzatish, suhbat, tarqatma material, kashfiyot, ta'lim-tarbiya*

Abstract: *This article talks about the news in the field of education after the independence of the Republic of Uzbekistan, the effectiveness and importance of various discoveries and scientific research, the method of observation, the interview method, and handouts, which are considered methods of learning best practices. .*

Key words: *Experience, method, observation, conversation, handout, discovery, education*

Bizning jonajon O'zbekistonimiz mustaqillik yillarida iqtisodiy hamda ijtimoiy-madaniy rivojlanishning o'ziga xos yo'lga ega bo'ldi. Bu yo'ldagi chuqur o'zgarishlar barcha jabhalarga shiddat bilan kirib bormoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida «Bu murakkab dunyoning azaliy va abadiy muammolari, shu bilan birga, har bir davrning dolzarb masalalariga har tomonlama asosli ilmiy javoblar topilgan taqdirdagina ma'naviyat olami yangi ma'no-mazmun bilan boyib boradi. Boshqacha aytganda, har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot - bu yangicha fikr va dunyoqarashga turtki beradi, ma'naviyatning shakllanishida o'ziga xos ta'sir o'tkazadi» deya ta'kidlab o'tadi. Darhaqiqat, ma'naviyat, dunyoqarash rivojlanishi uchun ilmiy yangilik va yaratilgan kashfiyotlar o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi.

Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni shakllantirish, ertangi taqdirimizni belgilab beruvchi dolzarb masalalardan biriga aylandi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov Oliy Majlisning XIV sessiyasida «yangi darsliklarni, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta'minlashni nazorat ostiga olish zarur»- ligini alohida ta'kidladilar. Shu o'rinda bizga milliy pedagogikamizning jadal sur'atlarda taraqqiy etishi, ta'lim-tarbiya jarayonining rivojlanishida o'zining boy

meroslarini qoldirgan qomusiy olimlardan al-Buxoriy, at-Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, az-Zamaxshariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ogahiy, Abdulla Avloniy singari ulug' olim-u adiblarning betakror asarlaridan foydalanish imkoniyati yaratildi. Ular ta'limdagi milliy xususiyatlarga alohida e'tibor berishgan.

Pedagogikaning ko'pgina muammolarini hal etishda ta'lim-tarbiya sohasida orttirilgan tajribalami o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ilg'or o'qituvchilar tajribasi bilan bir qatorda, oddiy o'qituvchilarning faoliyatlari ham o'rganib boriladi. Chunki tajribalarni o'rganish jarayonida muammo, yutuq va kamchiliklar aniqlanadi. Pedagogik tajribalarni o'rganishda kuzatish, intervyu olish, anketalar tarqatish, o'quvchilarning yozma va ijodiy ishlari, pedagogik hujjatlarni o'rganish metodlaridan foydalaniladi. Kuzatish - o'rganish lozim bo'lgan pedagogik hodisani ma'lum maqsad nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda kuzatuvchi kuzatish bayonnomasini olib boradi. Kuzatish obyektiga oid bo'lgan aniq faktik material tayyorlanadi. Kuzatish belgilangan aniq reja asosida olib boriladi. Suhbat (fakt) dalillar to'plash yoki kuzatish davomida to'plangan materiallarga aniqlik kiritish maqsadida olib boriladi. Suhbat tadqiqotning mustaqil yoki yordamchi metodi sifatida qo'llaniladi. Anketalar tarqatish. Bu ommaviy ravishda material to'plash maqsadida anketalar tarqatish yo'li bilan amalga oshiriladi. Tadqiqot uchun muhim bo'lmagan materiallar o'quvchilarning yozma va bir qancha fanlar bo'yicha mustaqil ishlarni bajargan daftarlarini tekshirish, o'rganib chiqish yo'li bilan turlarga ajratilishi mumkin. Maktab hujjatlarini o'rganish — o'quvchilarning shaxsiy varaqalari, metodistning to'plagan ma'lumotlari, sinf jurnallari, kundaliklar, yig'ilish va majlislar bayonnomalari tadqiqoti uchun olib borilayotgan ta'lim-tarbiyaning ahvoli, darajasi haqida obyektiv axborot manbai hisoblanadi.

Xulosa o'rnida aytib o'tish joizki, pedagogika jamiyatning rivojlanish qonun-qoidalari tayangan holda taraqqiy etadi. Bugungi kunda esa ana shu jarayon avj pallasiga chiqdi. Inson ongi taraqqiy etmas ekan, ijtimoiy hayot jabhalarida hech bir o'zgarish sezilmaydi. Modomiki, zamon jadal sur'atlarda o'zgarayapdimi, demak, pedagogika ham shu o'zgarishlarga hamohang bo'lmog'i darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch" Toshkent 2008
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. // Xalq so'zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11
3. R.A.Mavlonova, B.Normurodova "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" Toshkent 2007
4. N.Egamberdieva "Tarbiya texnologiyasi" Fan va texnologiyalar 2016-yil

5. R.A.Mavlonova, D.Abdurahimova. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma Toshkent Fan va texnologiya 2012-yil
6. S.Nishonova, M.Imomova, R.Xasanov. Pedagogika tarixi. Darslik Toshkent O'qituvchi 1996-yil
7. M.Ochilov. Muallim qalb me'mori. O'quv qo'llanma Toshkent O'qituvchi 2004-yil
8. N.Egamberdieva, Ijtimoiy pedagogika. Darslik. Alisher Navoiy nomidagi O'zMKN.Toshkent 2009-yil.
9. Rahima Mavlonova, Nargiz Rahmonqulova "Boshlang'ich ta'limda Pedagogika, Innovatsiya, Integratsiya" O'quv qo'llanma Toshkent 2013

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA TA'LIM BERISHDA NOAN'ANAVIY
YONDOSHISH**

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim fakulteti 2-G guruh talabalari

Adenbayeva Aziza

Bozorboyeva Mavluda

1-B guruh talabasi

Muratbekova Go'zzal

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim berishda qo'llaniladigan noan'anaviy usullar, ularga noan'anaviy usulda yondoshish haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Boshlang'ich ta'lim, o'quvchi, o'qituvchi, usul, metod, noan'anaviy yondashuv*

Abstract: *This article talks about non-traditional methods, non-traditional approaches to teaching primary school students.*

Key words: *Primary education, student, teacher, method, method, non-traditional approach*

Respublikamizda ta'lim jarayonini takomillashtirish bo'yicha izlanishda o'qitishning yangi shakllari asta-sekin mustahkamlashib bormoqda. Bular gimnaziya, ixtisoslashtirilgan sinflardir. Lekin ta'limning yangi shakllari, asosan, maktabning o'rta va yuqori bo'g'inlariga daxldordir. Xo'sh, boshlang'ich maktabda nimalar bo'layapti? Boshlang'ich maktab har qanday holda ham o'quvchilardagi bilimlarni shakllantirishda va ularning qobiliyatlarini aniqlashda asosiy rol o'ynaydi, keyin ham shunday bo'lib qoladi. Ammo boshlang'ich maktabdagi barcha o'quvchilar, bolalarning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish uchun tegishli ishlarni amalga oshirayapdimi? Masalan, nima uchun yuqori sinflarda a'lo bahoga o'zlashtiradigan bolalar soni kamayib bormoqda? Maktabni bitta yoki ikkita o'quvchi oltin medal bilan bitirishini qanday tushunish kerak? Iste'dodli, qobiliyatli bolalar yo'qmi yoki o'qitish jarayoni shunchalik samarasiz bo'lib qolganmi? Bularning sababi nima? Sababi ko'p. Birinchidan, boshlang'ich sinflar o'qituvchisining bolalar bilan individual ish olib borish imkoniyati cheklangan. Sinflarda bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilarga e'tibor berish zarur. Ikkinchidan, mazkur o'qituvchilarning metodik saviyasi yetarli emas. Sinfdagi umumiy ishlar jarayonida qobiliyatli bolalarning ijodiy imkoniyatlari cheklanib qolmoqda. Ular o'z qobiliyatlarini ko'rsata olmayapti.

O'qituvchining butun kuchi va e'tibori sinfga qaratilib, qobiliyatli bolalar ko'zga tashlanmayapti. Umuman aytganda, xususan, bolalarni saralash va o'qitishga boshqacha yondashishi bilan ularning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish kerak. Boshlang'ich

maktab bola shaxsining ilk shakllanishini ta'minlashi, uning qobiliyatlarini aniqlash, o'quvchilarda bilim olish ko'nikmasi va istagini tarkib toptirishi kerak. Bunday maktabda o'quv faoliyatining zarur ko'nikma va malakalarini egallaydilar, o'qish, yozish, hisoblashni o'rganadilar ijodiy fikrlash elementlarini, madaniy nutq va xulqni, shaxsiy gigiyena hamda sog'lom turmush asoslarini o'rganadilar. Mana shu umumiy vazifalarni amalga oshirish uchun maqsadlarning ustunligini jiddiy, tubdan o'zgartirish, avvalo, predmetlarga doir bilimlar, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning an'anaviy maqsadi o'rniga bola shaxsini, o'quv faoliyatini shakllantirish asosida tarbiyalash maqsadi egallaydi, lekin bunda an'anaviy predmetlarga doir ko'nikma va malakalarning shakllanish darajasiga e'tibor sustlashmasligi lozim.

Boshlang'ich ta'limning muayyan maqsadlarini ishlab chiqishning haqiqiy ahvoli shundaki, yangi ustunliklar nazariy va amaliy ustunliklar jihatidan eng kam ishlab chiqilgan. Hozirgi kunda predmet ta'limining o'quv dasturlarida belgilangan muayyan maqsadlari hozircha kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining yosh xususiyatlari va imkoniyatlaridan ajralib qolgan, ta'limning rejalashtirilgan natijalari va ularni baholash mexanizmlari nuqtayi nazaridan ifodalanmagan. Bu hol o'quv faoliyatini shakllantirishga doir ishlar bilan predmetlar bo'yicha ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish o'rtasida uzilish mavjudligidan dalolat beradi.

Xulosa o'rnida aytib o'tish joizki, boshlang'ich ta'limdagi maqsadlar ustunligining almashinuvi faqat predmetlar o'rtasidagi nisbat (asosiy va ikkinchi darajalilik)ning o'zgarishiga olib bormaydi, balki shaxsni kamol toptirish vazifalarini kengroq va to'laroq amalga oshiradigan yangi, uyg'unlashgan kurslarni ishlab chiqishning asosini ham vujudga keltiradi. Bunday kurslarni va ularning dasturlarini ishlab chiqish nihoyatda zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch" Toshkent 2008
 2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. // Xalq so'zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11
 3. R.A.Mavlonova, B.Normurodova "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" Toshkent 2007
 4. N.Egamberdieva "Tarbiya texnologiyasi" Fan va texnologiyalar 2016-yil
 5. R.A.Mavlonova, D.Abdurahimova. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma Toshkent Fan va texnologiya 2012-yil
 6. S.Nishonova, M.Imomova, R.Xasanov. Pedagogika tarixi. Darslik Toshkent O'qituvchi 1996-yil
 7. M.Ochilov. Muallim qalb me'mori. O'quv qo'llanma Toshkent O'qituvchi 2004-yil
 8. N.Egamberdieva, Ijtimoiy pedagogika. Darslik. Alisher Navoiy nomidagi O'zMKN.Toshkent 2009-yil.
- Durisbergenova Asiya Adilbay qizi

SHÍĜARMALARINDA FRAZELOGIYALIQ SINONIMLERDİŇ STILLIK QOLLANILIW ÓZGESHELİKLERI

*Ajiniyaz atindag'i Nokis ma'mleketlik pedagogikaliq instituti Turkiy tiller fakulteti
Qaraqalpaq tili ham adebiyati talim baǵdari 1-a kurs talabasi*

G.Esemuratova

Annotaciya: *Biz bul maqalamızda G.Esemuratova shıǵarmalarındaǵı frazeologizmlerdiŇ sinonimlik qatnasları hám olardıń obraz xarakterin beriwdegi áhmiyeti haqqında sóz etpekshimiz. Bunday sinonimler frazeologizmnıń ańlatıp turǵan jeke mánili sózine qatnaslı, sonday-aq frazeologizmlerdiŇ óz ara sinonim bolıwı arqalı payda bolıwın kórip ótemiz.*

Tayanish sózler: *Leksikologiya; frazeologizm; sinonim; paradigma; obraz; psixika h.t.b*

Til baylıqlarınıń tiykarǵı kórsetkishleriniń biri- sol tildiń sinonimleri bolıp esaplanadı. Sózlik quram sinonimlerdiŇ túrlerine qansha bay bolsa, sol tildiń bay ekenligin kórsetedi. Hár bir tildiń sózlik quramında frazeologizmlerden bolǵan sinonimler belgili orındı iyeleydi. Hárqanday frazeologiyalıq sóz dizbeklerinde jay sózlerge yamasa sóz dizbeklerine salıstırǵanda emocional-ekspressivlik máni, obrazlılıq kúshli boladı. Sonıń menen birge olardıń birazlarında hár xalıqtıń milliy kaloriti de sáwlelenedi. Usınday ózgesheliklerine baylanıslı frazeologizmler stilistikalıq maqsette tilde júdá keń paydalanıladı. Sóylewshi belgili bir pikirdi, mazmundı bildiriw ushın birdey yamasa óz-ara jaqın mánige iye bolǵan leksikalıq til qurallarınıń kerekliyin tańlap qollanadı. Bunday til quralları óz-ara semantikalıq qatnasta boladı.

Tildi paydalanıwda ondaǵı til quralların tańlaw múmkinshiligi sinonimler arqalı iske asadı. Hár qıylı jaǵdaylarda pikirdi dál hám anıq bayanlaw tildi rawajlandıradı hám jetilistiredi. Kórkem sóz sheberleri óz shıǵarmalarında frazeologizmlerdi mánilik ózgesheligine, obrazlılıǵına qaray tańlap alıp qollanıwı múmkin. Óz-ara sinonim bolǵan frazeologizmler biri-birinen stillik jaqtan, mánilik boyawı jaǵınan bir-birinen ajralıp turadı.

Sinonim degende kópshilik izertlewshiler til birlikleriniń birin-biri almastıra alıw uqıplılıǵın túsinshe, al ayırımları, tek mánileri bir-birine jaqın bolǵan til birliklerin sinonim dep qaraydı. Óz-ara almastıra alıw uqıplılıǵı degende, birinshiden, sinonimlik qatnastaǵı sózlerdiŇ mánisi boyınsha birin-biri almastırıwı, ekinshiden, birdey kontekstlerde bir sózdiŇ ekinshisiniń ornına qollanıla alıw múmkinshiligi túsinedi. Usı eki faktor sinonimlerdi anıqlawdaǵı tiykarǵı ólshem bolıp esaplanadı.

Frazeologiyalıq sinonimiya máselesi kóplegen izertlewshilerdiŇ dıqqatın awdarǵan. Tilshi ilimpazlar frazeologiyalıq birliklerde sinonimiyanı belgilewdiŇ hár túrli principlerin usınadı. A.İ.Molotkov frazeologiyalıq sinonimlerdiŇ ózine tán tórt túrli ózgesheligin ajratıp kórsetedi: mánilerdiŇ birdeyligi, usaslıǵı; quramında birdey komponentlerdiŇ bolmawı;

leksika-grammatikalıq jaqtan usaslıǵı; komponentlerdi óz-ara bir-biri menen almasıw múmkinshiliginiń bolmawı. [1.17] M.M.Kopılenko hám Z.D.Popova frazeologiyalıq sinonimiyaniń quramındaǵı leksemalarına qaray parıqlanıwshı, mánisi jaǵınan jaqın bolǵan, biraq bir yamasa bir neshe semantikalıq belgilerine qaray parıqlanıwshı turaqlı túsinikler [2.34] sıpatında talqılaydı.

Qaraqalpaq tili leksikalıq sinonimlerde qanday bay bolsa, frazeologiyalıq sinonimlerde de sonday bay. Frazeologiyalıq sinonimiya degende mánileri bir-birine jaqın bolǵan, hár qıylı dúzilmege iye bolǵan frazeologizmler názerde tutıladı. Frazeologiyalıq sinonimlerdiń ózleri eki túрге bólinedi: 1. Frazeologizmlerdiń jeke sóz benen sinonim bolıwı.

2. Frazeologizmlerdiń óz-ara bir-birine sinonim bolıwı.

Frazeologiyalıq sóz dizbegi menen jay sóz arasındaǵı sinonimler leksikalıq-frazeologiyalıq sinonimler dep ataladı. [3.69] Mısalı: qas penen kózdiń arasında – tez sózi menen, úskini quyılıw-kewilsizlik sózi menen sinonim bolıp keliwi bul frazeologizmlerdiń jeke sóz benen sinonim bolıwı. Qas penen kózdiń arasında-kózdi ashıp jumǵansha; úskini quyılıw-eńsesi túsiw, bular frazeologizmlerdiń óz-ara bir-biri menen sinonim bolıwı. Óz-ara sinonim bolǵan frazeologizm sózler biri-birinen stillik jaqtan ajralıp turadı. Sonlıqtanda kórkem shıǵarmalarda olar mánilik ótkirliğine, obrazlıǵına qaray tańlap alıp qollanıladı.

Frazeologiyalıq sinonimler basqa sózlerden óziniń emocionallıq-ekspressivlik boyawı menen ózgeshelenedi. Olar basqa sózlerdiń ekvivalenti retinde stillik maqsette qollanıladı. [4.36] Frazeologizmlerdiń mánisin akademik V.V.Vinogradov ekspressivlik sinonim dep ataydı. [5.135]

Sinonim frazeologizmler kóbinese kórkem shıǵarmalarda jiyi qollanıadı. Kórkem sóz sheberleri sinonim frazeologizmlerdi qollanıw arqalı aytılıp atırǵan pikirdiń obrazlılıǵına kórkemliliğine erise aladı. Belgili qaraqalpaq jazıwshısı G.Esemuratovaniń shıǵarmalarında óz-ara sinonim bolǵan frazeologizmler kóplep ushırasadı. Olar biri-birinen stillik jaqtan, mánilik boyawları boyınsha bir-birinen ajralıp turadı. Bunday sinonimles frazeologiyalıq sóz dizbeklerin mánilerine qaray bir neshe túrlerge bólip qarawǵa boladı. İndemew, sóylemew mánilerin bildiriwshı frazeologiyalıq sinonimler G.Esemuratovaniń shıǵarmalarında hár qıylı mánilik boyawlardı beriw ushın sheberlik penen jumsalǵanın kóremiz: Bizler úyge kelgende sonsha adamnan ya erkek bolıp, ya hayal bolıp birewi illa dep awzırıńızdı ashıp, sóz baslamadıńız ğoy, tek bizler ara-tura sıbırlasıp sóylesemiz. [7.27]. Tayaǵımdı tıqıldatıp illa demesten aqsańlap jónime kete berdim. [6.10]. Heshbir bala til qatpadı. [7.167]. Jáne bir assshı sóz esitip qalarman dep, júregi zırqırıp, tili gúrmelmey, kózi móymelep atızǵa taǵı da ráwana boladı. [7.164].

Jazıwshı óz shıǵarmalarında «sóylemew, indemew» degen mánilerdi bildiretuǵın frazeologizmlerdi hár qıylı citiuaciyalardı saýkeslerin tańlap alıp jumsaǵanın kóremiz. Máselen, illa dep awzın ashpa, illa demesten, til qatpa degen frazeologiyalıq sinonimlerde bir awız sóz aytpay, indemey, sóylemey turıw mánisin beriw ushın jumsaydı. Bul frazeologiyalıq sinonimlerde mánilik boyawları bir-birine jaqın. Sonlıqtan bul

frazeologiyalıq sinonimlerdi biriniń ornına birin almastırıp qollansa boladı. Al, keyingi mısaldaǵı tili gúrmelmew degen frazeologizmniń mánilik boyawı ózgeshelew. Kórkem sóz sheberi bul frazeologizmdi tańlaǵandaǵı maqseti - qaharmannıń psixologiyalıq halatın da qosı beriw. Yaǵnıy bundaǵı qaharmannıń qorqınıstır sebebinen sóyley almay qalıw halatı berilgen.

Jazıwshı óz shıǵarmalarında qaharmanlarınıń psixologiyalıq halatların, oyın, ruwxıy dúnyasını ayqın hám názik súwretlew ushın frazeologiyalıq sinonimlerden múmkin bolǵanınsha sáykesin tańlap alıwǵa háreket etedi. Qaharmanlardıń hár qıylı jaǵdaylarǵa, sebeplerge baylanıslı qıylanıwın, azaplanıwın barlıq mánilik boyawları menen sáwlelendiriw maqsetinde birqansha frazeologiyalıq sinonimlerdi qollanadı. Biz bunı tómendegi mısallar arqalı kóriwimizge boladı: Júsem-tursam kóz aldımda Dáme turadı, onı oylaǵan sayın mayıplıǵım da qozıp, oq oynap janımdı jeydi. [6.8-bet] Ákesiniń baslap otırǵan waqtı xoshlıq toyı, alǵan hayalı Amangúl, Amangeldi, Genjegúldiń kózine kórinip, kewline quwanış baǵıshlap turmaǵanı Toydıqtıń da júregin sızlatıp, bawırın ezip jiberdi. [7.102]. Bul azaptı tek Dálibaydıń ózi ǵana sezip, júregi eziledi. [7.162]. Janına egew salǵan menen is ornına kelmeydi,— dep aqıl aytıp, tásele berip edi ǵoy, Aysultanjanımniń apası. [7.18]. Búgingi kúni erjetpegeniń qız bolǵanıńdı bilip, ishimiz iyt jırtqanday bolıp, ekewimiz de úyge sıymay otırmız... [7.164]. Eń sońında qayǵı qayıǵına mine bergenshe, ózimdi ózim qolǵa alıp, ómirimdi qayta baslayın degen sheshimge keldim. [6.8].

Bul mısallarda jazıwshı janın jew, júregin sızlatıw, bawırın eziw, júregi eziliw, janına egew salıw, qayǵı qayıǵına miniw degen frazeologiyalıq sinonimler insanniń sırtqı hám ishki qubılıslardan tásirleniwi nátiyjesindegi ruwxıy azap shegiwi, qıynalıwı, óziniń yamasa ózgelardıń is-háreketlerinen narazı bolıwına baylanıslı psixikalıq halatların bildiriwde jumısaydı.

Adamnıń ishki dúnyasına tán sezimlerdiń biri – qorqınısh. Bul sezim insanniń ruwxıy halatı menen baylanıslı bolıp, onıń hár qıylı tásirlerdiń nátiyjesinde júz bergen kewilsiz jaǵdayın kórsetedi. Adamnıń qorqınısh sezimi hár qıylı dárejede bolıwına baylanıslı olardıń frazeologiyalıq sinonimleri tilimizde júdá kóp ushırasadı. Mısallar:

Biraq, elimizde keńes húkimeti ornaǵan ala-sapıran jılları, ákeńniń kishkene «qılmısı» bolıp, aydalıp ketti, -degen waqıtta Aynagúldiń húreyi ushıp ketti, kózi jasawrap, atasınan ádewir keyin shegindi. [7.9].

Shetirekte otırǵan Aynagúldiń anası atası menen aqlıǵınıń arasındaǵı ángimeniń shala qalǵanına ókindi de, qara úyge qaray juwırıp baratırǵan Aynagúldiń izinen kóz qıyıǵın taslap qızınıń boyı kórinip kiyatırǵanına quwansa da bıyıl onıń mektepke baratıǵını esine túsip júregi suw..w.. etti. [7.10].

Nálet bolǵır Seytmurat-áy, náresteniń júregin jarıptı-ǵoy. [7.34]. Qoy, endi biysharanıń qorqqanınan kózi uyasınan shıǵıp ketti ǵoy, ha..ha..ha.. [7.106]. Bulardı fashistler kóre qoysa tıǵılarǵa tesik tappas deymen ishimmen. [9.16].

Gúlaysha Esemuratova óz shıǵarmalarında qaharmanlardıń ómiri, tirishiligindegi hár qıylı sırtqı tásirler nátiyjesinde payda bolǵan qorqıw, qáweterleniw, tınıshsızlanıw sezimlerin ayırıqsha obrazlı etip jetkeriw ushin dara sózlerdi emes, al onıń frazeologiyalıq sinonimlerin tańlaǵan. Nátiyjede qorqınısh sezimin bildiriw menen birge qaharmanlardıń xarakterin, mineziniń názik táreplerin korsetip beriwge erisken.

Ulıwmalastırıp aytqanda, frazeologiyalıq sinonimler tildiń stillik jaqtan bayıwında, pikirdi obrazlı etip beriwde áhmiyeti úlken. Sinonim frazeologizmler mánilik jaqtan qansha jaqın bolǵanı menen, bir-birinen stillik, ekspressivlik-emocionallıq boyawları menen ózgeshelenip turadı. Olar belgili bir oydı jariqqa shıǵarıp bayanlawda, ásirese onı kórkem til menen jetkeriwde úlken xızmet atqaradı. Sonlıqtan da, kórkem shıǵarmalarda frazeologizmlerdiń sinonimleri durıs tańlap qollanıw arqalı ayılajaq pikir hár tárepleme anıq hám kórkem etip beriledi.

ÁDEBIYATLARÁDEBIYATLAR:

1. Molotkov A.I "Frazeolicheskiy slovar russkovo yazika". M., 1978
2. Kopilenko M.M., Popova Z.D, " Ocherki po obshey frazeologi". Boronej, 1972
3. Qalendarov.M. Qaraqalpaq tilindegi sinonimlarding grammatikalıq, strukturalıq ham leksik-semantik o'zgeshelikleri. N., 1989.
4. Pirniyazova A. Qaraqalpaq tili frazeologiyalıq sisteması ham oning stilistikalıq imkaniyatlari. (Monografiya) -Nokis: "Qaraqalpaqstan" baspası. 2020
5. Vinogradov V.V. Ob asnovnix tipax frazeologicheskix edinits v russkom yazike. //V.V.Vinogradov. Izbranniye trudi. Leksikologiya i leksikografiya. Moskva, 1997
6. Esemuratova G. Dawirler napesi. Nokis, "Bilim", 2009
7. G.Esemuratova. Shıǵarmaları. I tom. Nókis. "Qaraqalpaqstan" baspası. 2013-jıl.

PROFESSIONAL G'IJJAK IJROCHILIK MAKTABLARI VA USLUBLARI**Mamedov Daniyar Qurbonovich***Respublika Musiqa Va San'at Kolleji**“XALQ CHOLG'ULARI” kafedrası g'ijjak mutaxassislik**fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqola O'zbekistonda g'ijjak cholg'usi ijrochiligi uslublarining turfa - xilligi, amaliyoti masalalarini tarixan hamda g'ijjakchi ustozlar maktabi silsilasida chuqur o'rganib, ilmiy yoritib berilgan. Tadqiqotning muhim jihati shundaki, nazariy-uslubiy jihatdan yoritib berilgan ko'rsatmalar ijro mobaynida ustozlar maktabi va hududiy uslublarni bir-biridan farqlagan holda g'ijjak ijrochiligini mukammal o'rganishga yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *G'ijjak tabulatura -Martle, Spiccato, Pissikato, Arco, Flageolet, Nola, Molish.Ko'nikma, ijrochilik maktablari - Andijon, Buxoro, Xorazm Musiqa - bu inson ruhiyatining ozig'i, insonning qalb tubiga yetib boruvchi, o'z ta' sir kuchi bilan insoniyatni boshqara oladigan yagona omillardan biridir. Shuning uchun ham barchamizning qalbimizda musiqaga moyillik sezadi.*

Ushbu moyillikni mavjlanishida go'daklik chog'imizda onalarimizning ayt-gan allalaridan to mumtoz musiqamiz, maqomlar va og'zaki an'adagi musiqa (folklor)larning o'rni beqiyosdir. O'zbek musiqa madaniyati an'analarga boy, janrlari xilma- xildir. Milliy musiqamiz va san'atimiz yildan yilga rivojlanib ravnaq topib kelmoqda.

Xususan, prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning 2022-yil 2 -fevraldagi

“Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora - tadbirlar to'g'risida” gi qarorning 1-ilovasida maktab o'quvchilariga milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasida kuy ijro etish mahorati o'rgatilishi belgilangan. 4-ilovasida keltirilishicha, O'zbek va jahon adabiyotining sara namunalari asosida maxsus ovoz yozish studiyalarida taniqli san'atkorlarga o'qitgan holda “Siz sevgan ijodkordan tuhfa” turku-mida audiokitoblar tayyorlash, madaniyat va san'at sohasidailmiy tadqi-qotlar va ilmiy-uslubiy manbalarni yaratishni davlat tomonidan qo'llab quvvatlashham ko'zda tutilgan. Bu esa butun san'at ahli, cholg'u ijrochilari uchun alohida e'tibordir.

Milliy cholg'ularimiz tanbur, nay, chang, rubob va boshqa cholg'ulardan taralayotgan xar bir kuy inson yuraging tub tubiga yetib boradi. Ayniqsa G'ijjakninginson ovozigaga yaqin, nozik va dardli tovushi, qochirimlarga boyligi tufayli milliy mumtoz musiqamizda asosiy o'rin tutadi.

Ko'pchilik o'zbek milliy sozlari kabi g'ijjak cholg'usi ham Markaziy Osiyo xalqlari orasida, xususan, o'zbek, tojik, turkman, shuningdek, kavkaz ozarbayjon hamda arman xalqlari orasida keng tarqalgan torli-kamonli cholg'u hisoblanadi.

Dastlabki yaratilgan g'ijjaklar 3 torli bo'lib, tuzilishi va sozlanishi boshqacha bo'lgan. XX asrning 20-yillarda g'ijjakning torlari unison sozlana boshladi, 30-yillarga kelib, diapazoni va ovoz ko'lamini kengaytirish maqsadida A.I.Petrosyants tomonidan o'zbek xalq cholg'ulari takomillashtirilishi natijasida g'ijjak soziga to'rtta tor joriy qilindi. Skripka andozasidan olingan g'ijjaklarning torlari kvinta intervali oralig'ida joylashtirildi.

Takomillashtirilgan o'zbek xalq cholg'ulari orqali XX asrda kirib kelgan yevropa nota yozuvi asosida musiqa savodini o'rganish ishlari boshlandi. O'rta Osiyo xalqlarida oldin ham nota tabulaturasi bo'lgan. Ammo, bu tabulatura saroy va xonliklarning xususiy mulki hisoblangani sababli oddiy halq bu notalarni o'zlashtira olmagan va xalq orasida saroy musiqalarini ijro etish ta'qiqlangan. Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asarida aytilishicha, g'ijjakni chala bilish barcha saroy sozandalari uchun shart bo'lgan. O'rta asrda Alijon G'ijjakiy, Xo'ja O'zbek G'ijjakiy kabi san'atkorlar mashhur bo'lgan. Qolaversa, bu tabulatura asosida maqomlar notaga olingan va aynan 20-asr boshlarida maqom san'ati "eskilik sarqiti" deb mumtoz san'atni yo'q qilishga urinishlar boshlangan. Endilikda yevropa notasi juda sodda misiqiy til bo'libkirib keldi, uni o'rganish yosh o'quvchi va ijrochilarga qiyinchilik tug'dirmaydi. Shuning uchun mohir ijrochilar va musiqashunoslar o'z ilmiy faoliyatini yoritishda, unutilayozgan musiqalarni kelgusi avlodga bus-butun yetkazish yo'lida aynan yevropa notasidan foydalana boshladilar.

O'zbek xalq milliy cholg'ulari orasida g'ijjak sozi o'zining yoqimli ovozi, mungi, nolishi va inson tovushiga hamohangligi bilan ahamiyatlidir. G'ijjakda nafaqat o'zbek mumtoz kuy-qo'shiqlarimiz, balki yevropa klassik kompozitor-larining asarlarini ham ijro etish mumkin. Qiziqarli tomoni, bu sozda hatto xilma-xil qushlar va hayvonlar ovozigga taqlid qilish ham mumkin.

Havaskorlikdan professional ijrochiga aylanish uchun shogirdan avvalambor qunt, sabr-toqat, kuch-g'ayrat, kuchli iroda, musiqiy zehn talab etiladi. Ustozi orqali shogird musiqiy savodhonligini oshirish bilan birgalikda, ijrochilik ko'nikmalari (postanovka, texnika, dinamika, pozitsiya, applikatura kabilar) ni rivojlantiradi.

Demak, professional ijrochi har qanday nota yozuvi, belgilarini tez ilg'ay olishi va ijro jarayonida ularni ko'zdan qochirmasligi, g'ijjak cholg'usida ijro etiladiganturli murakkablikdagi shtrixlarni o'zlashtirishi va shu orqali har-xil janrdagi asarlarni ijro qilishga doir ko'nikmalarni shakllantirib borishi darkor. Shu bilan birga, asarni ijro qilish paytida har bir barmoq joylashgan tovushga ravon, jozibali va ta'sirchan sadolarni hamohang qilish ham professional sozandaga qo'yiladigan talab hisoblanadi. Bu mezonlarni shu sohaning professional vakillari misolida alohida ko'rib chiqamiz. Shunday musiqachilar borki, o'limdan keyin ham xuddi hayotida bo'lgani kabio'z ijodi bilan muxlislariga zavq bag'ishlaydi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, g'ijjak cholg'usi ixlosmandi Shuhrat Yo'ldoshev, xalqning hurmat-ehtiromi ila "O'zbek Paganinisi" taxallusiga sazovor bo'lgan mohir sozandalardan biri edi.

Sh.Yo'ldoshev jahon klassik kompozitorlarining asarlarini xalq cholg'ú asbob-larida ijro etishni cholg'ú ijrochiligida qahramonlik darajasiga yetkazdi. Uning ijro mahorati nafaqat o'zbekistonlik, balki xorijlik tinglovchilarni ham o'ziga rom etdi.

Skripka uchun yozilgan ko'plab asarlarni mukammal o'zlashtirgan Sh. Yo'ldoshev jahonga mashhur skripkachilar: J.Xeyfets, L.Kogan, D.Oistrax, A.Yampolskiylar tomonidan tahrir qilingan asarlarni deyarli yoddan bilardi, ular xuddi shu asarni qaysi holatda ijro etganlar, (barmoqlarning lavhada joylashishi) , qanday barmoqlar, (bo'yin ustidagi barmoqlar to'g'ri joylashtirilgan), qanday zarbalar (ipning ustidagi kamoning turli harakati) va variantlarni chalkashtirmagan.

Albatta, bunday yuksak marralar bilan O'zbekistondagi g'ijak maktabining Professional ijrochiligining asoschilaridan biri bo'lgan ustoz, xalq cholg'ulari ijrochiligi kafedrasida dotsenti Obid Xalmuhamedovni ham unutmaslik kerak. Shuhrat Yo'ldoshev ijodiga uning katta mehnati, bilimi, dars berish uslubi, shogird bilan ishlash qobiliyati ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Quyida professional ijrochi ustozlarning o'g'itlari, amaliy bilimlarini Muvojiqlashtirib, mohir ijrochi bo'lishning boshlang'ich ko'nikmalari, g'ijak cholg'usida ijrochilik malakasini oshirish, nazariy - amaliy faoliyatlar majmuasini shakllantirish bo'yicha muntazam ravishda bajarilishi talab etiladigan shartlarni keltirib o'tamiz:

- g'ijak sozining barcha o'ziga xos xususiyatlarini bilish va ularning oilalarini tovush tembrlarini farqlash;

- turli janr va murakkablikdagi texnik, polifonik va kompozitorlar asarlaridan namunalari badiiy va texnik jihatdan mukammal, mazmunan idrok etgan holda ijro eta olish;

- yakka va ansamlda jo'rnavor bo'la olish, musqiy asarni notadan o'qiy olish;

- kuyga tavsif berish;

- xalq musiqa merosi haqida tushunchaga ega bo'lish;

- musiqaga oid atamalarni bilish;

- musiqaning ifoda vositalarini bilish;

- ijrochilik turlarini ijro sadolaridan farqlay olish;

- musiqa janrlarini bilish va ijro uslubidan ularni farqlay olish;

- har bir mahalliy uslubda o'ziga xos ijrochilik uslublari va cholg'ú asboblarini bilish;

- Farg'ona -Toshkent, Samarqand - Buxoro, Surxondaryo - Qashqadaryo, Xorazm ijrochilik uslublari xalq kuyi namunalari ijro eta olish;

- milliy musiqa amaliyotida o'zbek xalq ommaviy va kasbiy musiqa

Janrlarining mahalliy uslub variantlarini tinglab ajrata olish;

- Jahon xalqlari mumtoz musiqa namunalari va kompozitorlar asarlaridan namunalari ijro eta olish;

Ustoz professor Murod Toshmuhamedov bu masalalarda juda masulyat bilan o'z ishlarini sevib ijod qilgan. Murod Toshmuhamedov g'ijjak sozida ijro texnikasi va applikatoraga alohida e'tibor qaratgan. "Applikatura" so'zi nemischa -"aplikatur", lotincha -"apliko" qo'yimoq, bosmoq ma'nolarini anglatadi. Applikatorani to'g'ri tanlash usullari sozandaga bir tomondan qulay-lik, asarning texnik jihatdan qiyin parchalarini o'zlashtirishda va ijro etishda yengillik yaratib bersa, yana bir tomondan o'ng qo'lning tordan torga o'tavermay, yoki ortiqcha harakat qilmasdan o'sha vaziyatdan erkin chiqishni ta'minlaydi.

Murod Toshmuhamedovning "G'ijjakda an'anaviy ijrochilikni o'zlashtirish" asarida bezaklarning nota vositasida ifodalanishi haqida yoritib bergan. Bu belgilar fortepianoda ishlatiladigan mordentdan ancha farq qilgan holda g'ijjakning ijro uslubi va holatidan kelib chiqib ijro etiladi.


G'ijjak sozida saboq olayotgan bo'lajak mohir sozanda quyidagi murakkab shtrixlarni ijro jarayonida qo'llay olishi kerak:

Masalan, **Nola** - go'yoki vibrato. G'ijjak sozida pardani barmoq bilan bosib, muloyim va tez qimirlatish yo'li bilan amalga oshiriladi.

1-misol:



Molish - mazkur an'anaviy ijro bezagi tovushni chorak ton doirasida legato yordamida ko'tarish yoki tushirish bilan amalga oshiriladi.



G'ijjak sozining O'zbekistonda professional darajada shakllanishida ustoz shogird an'analari ham muhim rol o'ynaydi. Bunda har bir hududning o'ziga xos maktabi ijrochilik uslubi mavjud. G'ijjak ijrochiligining o'ziga xos uslublari, asosan, Andijon, Buxoro va Xorazm an'anaviy maktablari orqali namoyon bo'ladi. Farg'ona vodiysi hofizlik san'ati hamda surnay ijrochilik an'analari ta'sirida shakllangan Andijon maktabi (T. Jalilov, G'. Hojikulov, Ye. Ro'ziboyev, Yu. Yusupov va boshqalar) mayda urg'ular, kuy tuzilmalarini uzmasdan chalish yo'llari, surnayga xos qochirimlar singdirilganligi bilan ajralib turadi. K. Jabborov, G'. Toshmatov, M. Niyozov, M. Muhammedov ijrosida "Surnay Irog'i", "O'yin

Munojoti", "Dugohi Husayniy", "Kezarman", "Gul mavsumi" kabi g'ijjak kuylari mashhur. Mahalliy musiqa an'analari (ayniqsa, Shashmaqom yo'llari) negizida qaror topgan Buxoro maktabiga g'ijjakning xuddi titrayotgan kamonni yurg'izib sadolanishi, har bir pardani o'zida to'lqinlatib tezlashishi xos. Buxoro g'ijjakchilik maktabi namoyondalaridan Haydarqul Qorovulbegi (Buxoro amirlari saroylarida xizmat qilgan), 20-asrda Aminjon Ismatov, Samo Vohidov, Hikmat Ne'matov,

O'lmas Rasulovlar ijrosida "Surnay Irog'i", "Bahri tavil", "Kamon ufari", "Zulayho", "Noz" kabi namunalari ommalashgan. Xorazm maktabi ijro uslubi shiddatligi, kamonni urg'u bilan tortishi, ayni paytda yumshoq to'lqinlatish bilan ajralib turadi. Mazkur maktab vakillaridan 19-asrda faoliyat ko'rsatgan Patak-g'ijjakchi (mashhur Suyavbaxshi dastasida), Abdulla Mijana, Matyoqub Xarratov, Ollanazar Hasanov, Hasanboy Atayevlar talqinida Xorazm maqomlarining cholg'u yo'llari, surnay yo'llari, shuningdek, "Aliqambar", "Qalabandi", "Xarrotiy", "Gech polvon" singari kuylar mashhur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Худоев Ғ.М "Ғижжак СА боқлари" 1-2-китоблар, Ғофур-Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижод уйи, Тошкент, 2016.
2. Акбаров И. "Муסיқа луғати" Т.: Ўқитувчи, 1997.
3. Тошмухаммедов М. "Ғижжакда анъанавий ижрочиликни ўзлаштириш" Т.: Ўқитувчи, 1995.

LAVANDANING FOYDALI XUSUSIYATLARI VA YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI**Ikromova Yulduzoy Erkin qizi***JDPU, Biologiya va uni o`qitish metodikasi kafedrasida o`qituvchisi.***Hasanov Husan Shavkat o`g`li***2 – bosqich talabasi*

Annotatsiya: *O`simlik dunyosi inson sog`lig`ini saqlovchi asosiy vosita sifatida unga xizmat qilib kelmoqda. Odamlar ovqat uchun o`simlik mevasi, ildizi, bargi va gullarini yig`ib yurganlarida, ba`zilarini og`riqni qoldiruvchi, oqib turgan qonni to`xtatuvchi, yaralarni davolovchi ta`sirlari borligini, ya`ni dorivor ekanligini sezganlar va ulardan keyinchalik shifobaxsh vosita sifatida foydalanganlar. Ularning ko`pchiligini bundan uch yarim ming yil avval Misr shifokorlari qo`llaganlar va shu vaqtgacha bu o`simliklar o`zining dorivorlik ahamiyatini yo`qotmagan.*⁵ *Shunday xususiyatlarga ega o`simliklardan yana biri bu lavanda o`simligidir.*

Kalit so`zlar: *Lavanda, o`simlik, shifobaxsh, havo, yara, ta`sir, qon, dorivor, noyob, yashil, buta, ko`p, yillik.*

Insoniyat qadimdan kasallikni davolash va uning oldini olishda tabiatning in`omi – o`simlik dunyosidan foydalanib kelgan. Tabiat insonga hamma boyligini bergan. Inson o`zi uchun kerak bo`lgan – havo, suv, oziq-ovqat, kiyim-kechak, turli sohalar uchun zarur bo`lgan ashyolarni tabiatdan oladi.

Yashil o`simliklar o`z organizmidagi doim ro`y beradigan fotosintez jarayoni tufayli atmosferani kislorod bilan boyitadi va havoni ortiqcha karbonat angidridan tozalaydi.

Xuddi shunday dorivorlik va ko`plab noyob xususiyatlarga ega o`simliklardan yana biri lavanda o`simligidir.

Lavanda (lotincha *Lavandula*) - *Lamiaceae* (labguldoshlar) oilasiga mansub bo`lib, buta yoki doim yashil chala butalar turkumiga kiradigan o`simlik hisoblanadi. Taxminan 47 turni o`z ichiga oladi. Shulardan 25 dan ortiq turi dengiz sohillarida uchraydi. Lavandaning vatani O`rta Yer dengizining Ispaniya va Fransiya qirg`og`i bo`lib, u yerda toshli yonbag`irlarida yovvoyi holda o`sadi. Bundan tashqari lavanda Kanar orollari, Shimoliy va Sharqiy Afrika, Avstraliya, Janubiy Yevropa, Arabiston va Hindiston, Ukraina va Rossiya kabi davlatlarda ham o`sadi. Madaniy shakllari esa butun dunyo bog`larida o`stiriladi.

Qalamchalaridan ko`paytiriladigan lavanda butasi kurtaklar to`plamidan tashkil topgan bo`lib, diametri 1 metr hamda balandligi 50 – 70 sm gacha o`sishi mumkin. Ba`zi turlari xususan, *Lavandula angustifoliy*aning uzunligi 1,3 metrgacha yetishi mumkin. Lavanda dorivor achchiq o`simlik bo`lib, poyasi to`g`ri, barglari chiziqli, butun, chetlari bir oz

⁵“Asoratsiz dori – darmon” O.P.Pratov, M.N.Maxsumov. “O`qituvchi” – nashryoti 2006.

egilgan. Tuproqqa 2 m chuqur kirib boradi. Sershox, bir tupida 400 – 800 ta poya hosil qiladi. Mevasi qo'shaloq, 4 ta yong'oqchadan iborat, rangi sariq – jigarrang. Lavanda yorug'sevar, issiqsevar o'simlik hisoblanadi. U o'zining qurg'oqchilik hamda -30 C^0 gacha chidamliligi bilan ham boshqa ko'pgina o'simliklardan farq qiladi. Gullari binafsha rangda, 12 – 14 tadan soxta shingilga to'planib, 5 – 7 tali mo'rt g'ovaksimon boshhoqsimon to'pgulni tashkil etadi. To'pgulning balandligi 25 – 30 sm gacah yetadi(1 – rasm).

Farmakologiya, kosmetologiya, parfyumeriya hamda pazandachilik sanoat ekini sifatida yetishtiriladi. Xalq tabobatida terapevtik maqsadlarda lavanda gullari, barglari hamda novdalarining tepa qismlaridan foydalaniladi. Gullash davrida boshodagi gullarning yarmiga yaqini, ba'zan barglari hamda shoxlari ham yig'ib olinadi. Lavanda o'zida ko'p miqdorda efir moyi saqlashi bilan qadrlanadi. Efir moyining tarkibi linalool spirti va kislotalarning ester (sirka, butirik, valerik va kaproik)larini o'z ichiga oladi. Lavanda gullari tarkibida esa kumarinlar, gerniarin va ursolik kislotalari mavjud. O'simlikning yer ustki qismi organizmga tinchlantiruvchi, stressga chidamlilikni oshirishuvchi, ruhiy holatni me'yorlashtiruvchi, teri holatini yaxshilovchi ta'sir etadi. Lavanda gullari diuretik, antikonvulsant va tinchlantiruvchi xususiyatga, moyi esa antiseptik va bakteritsid ta'sirga ega. Bundan tashqari, lavanda moyi epidermal hujayralarni to'liq qayta tiklash xususiyati bilan faol yaralarni davolashda (ayniqsa, kimyoviy kuyishlarni) ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chandiqlarni kichraytirish va bo'rtmalarni so'rilishiga yordam beradi.



1 – rasm. Lavanda

Tarkibida taninlarning mavjudligi sababli, ular diareya, ayniqsa, fermentatsiya bilan sodir bo'lgan diareyaga qarshi ta'sirga ega. Ma'lum darajada, lavanda gullari ham xoleretik vosita bo'lishi mumkin. Lavanda gullari kumarinlar saqlaganligi sababli soddalashgan organizmlar va hasharotlar rivojlanishiga yo'l qo'ymaydi. Shu tufayli lavanda pedikulyoz, parazitlar va kuyaga qarshi kurashda yaxshi samara beradi. Spirtli ichimliklar bilan suyultirilgan lavanda moyi migren paytida, kuchli yurak urishi bilan, asabiylashish kuchaygan davrda, revmatizmning o'tkir xurujlarida ichiladi. Lavanda gripp bilan og'rikan bemorlarga foydali ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek ushbu o'simlik tarkibida vitamin va minerallarni ham ko'rishimiz mumkin. Lavanda ichga qabul qilish va tashqi foydalanish uchun mo'ljallangan. O'tning quruq aralashmasini mato

xaltachalarga solib, aromaterapiyada keng qo'llaniladi. O'simlikning o'zidan alohida foydalanish va murakkab retsept tarkibida qo'shimcha sifatida ham qo'llash mumkin. O'simlik gullari va barglarini choylarga qo'shib ichish tavsiya etiladi. Tashqi qo'llash uchun esa qaynatma va damlamalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'stirish texnologiyasi. Lavanda o'simligi quyosh yaxshi tushadigan va namni yaxshi o'tkazadigan tuproqlarda o'stiriladi. Lavanda o'simligi urug'idan ko'paytiriladi. Urug'lar kech kuzda dalaga ekiladi. Bunda qishlash davrida rozetka holida o'taydilar. Agarda urug'lar bahorda ekilsa, bunda urug'larni maxsus joylarda va salqin yerda saqlanadi. Nam qumni qutilarga vaqti – vaqti bilan ularni mog'orlamasligi uchun namlab va aralashtirib turiladi. Bahorda urug'lar aprelning boshlarida egat oraliqlarini 70 sm qilib ekiladi. Bir gektarga 4 – 4,5 kg urug' sarflanadi. Ekishdan so'ng sug'oriladi. Urug'lar 10 – 12 kunda unib chiqadi, 2 – 3 bargcha chiqqandan so'ng qator oralariga traktorda ishlov beriladi va kultivatsiya qilinadi. Bundan tashqari yer yumshatiladi va yagana qilinadi. Yagana qilishda bir tupda 2 – 3 tadan o'simlik qoldiriladi, ularning oralig'i 20 – 30 sm ni tashkil qiladi. Kuzda ekilgan o'simliklar may – iyun oylaridan gullaydi va bahorda ekilganlari iyul oyida gullaydi. Lavanda o'simligining ildiz tizimi yaxshi tarmoqlanganligi sababli kop sug'orishni talab etmaydi. Vegetatsiya davomida 6 – 9 marta sug'oriladi. 2 – 3 sug'orishdan so'ng, gektariga 80 – 100 kg dan ammiakli selitra va 70 – 80 kg superfosfat solinadi. Go'ngli eritma bilan oziqlantirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Холмуратов У. К., Рустамова Ш. А., Ярмухаммедова Н. А. Клинико-эпидемиологические аспекты течения бруцеллеза за последние годы по Самаркандской области //Вопросы науки и образования. - 2019. - №. 33 (83). -С. 60-73.

2. Sulaymonov I.J. NamDU —Biotexnologiya|| kafedrası dotsenti Ergashev D.T. NamDU —Biotexnologiya|| kafedrası o'qituvchisi Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi fanidan amaliy mashg'ulotlar Namangan-2020 S.52-53

3. Шамсиев А. М., Шамсиев Ж. А., Кодиров Н. Д. Патоморфологические аспекты поражения семенных вен при варикоцеле //Евразийский Союз Ученых. - 2020. - №. 4-3 (73). - С. 44-59.

4. “Dorivor lavanda o'simligi haqida umumiy ma'lumot va uning tibbiyotda qo'llanilishi” Barno Zokirovna Baxromova., Mavlyuda Shernazarovna Ernazarova Samarqand davlat tibbiyot universiteti S. 88-89-90

5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Lavanda>

TURLI XIL KIIYIMLARGA QO'YILADIGAN TALABLAR VA ULARNING TASNIFI**Ziyayeva Dildoraxon Ikromovna***Toshloq tumani 2-son kasb hunar maktabi**“Maxsus fanlar” kafedrasida o'qituvchisi*

Annotasiya: *Ushbu maqolada hozirgi kunda turli xil kiyimlarga qo'yiladigan talablar haqida bayon qilingan*

Kalit so'zlar: *Estetik ko'rsatkichlar, gigienik sifat, ekspluatasion ko'rsatkichlar, model yaratish.*

Turli xil kiyimlarga iste'molchiga oid bo'lgan va texnik-iqtisodiy talablar qo'yiladi. Ijtimoiy ko'rsatkichda buyumni ishlab chiqarish va sotishga muvofiqligini bildirgan ommaviy ehtiyojlarga mosligi, ya'ni tashqi va ichki bozorda iste'molchilarning kiyimga bo'lgan ehtiyojlari tavsiflanadi.

Funksional ko'rsatkichlar kiyimning asosiy vazifasiga, iste'molchining tashqi ko'rinishiga va uning psixologik xususiyatlariga mosligini bildiradi. Shuningdek, kiyimning kiyib yuriladigan sharoitga mosligini va qulayligini, shaklini saqlashini va hokazolarni bildiradi. Kiyimning barcha xossalari uning vazifasiga bog'liq holda tanlansa, kiyim insonning ehtiyojini qondira oladi. Ayni kiyimning vazifasi modelga, uning konstruksiyasiga va materiallariga qo'yiladigan talablarni shakllantira oladi.

Estetik ko'rsatkichlar kiyimni shaxsiy iste'mol predmeti sifatida baholashda o'ziga xos ahamiyatga ega. Estetik xususiyatga ega bo'lmagan kiyim foydasiz buyumga aylanadi, chunki u o'z maqsadli funksiyasini - insonning estetik talabini qondiradigan o'ziga xos xususiyatni bajara olmaydi. Estetik ehtiyoj, go'zallik qonunlariga ko'ra, insonning go'zallikka va ijodga bo'lgan talablarini bildiradi. Kiyim muayyan davrga xos yetakchi badiiy tarzlarga mos loyihalalanadi. Kiyimning sifati etakchi mezon ekanligini e'tiborga olib, uning shaklini yaqqol ko'zga tashlanishi, kiyimning gazlama bilan bog'liqligi hamda tanlangan ranglari va hokazolar nuqtai nazaridan moda talablariga muvofiqlik darajasini aniqlaydi. Kiyimning estetik ko'rinishi barcha konstruktiv elementlarning (detallar simmetrik joylanishi, biriktiruvchi va bezatuvchi choklarning ravonligi, astarning sifati va buyumning rangiga mosligi va h.k) o'ziga xos yechimi, ifodaliligi, buyumning haridorgir ko'rinishini ta'minlaydigan elementlari majmuiga (firma savdo belgisi, yorliq, qadoqlashga) bog'liq bo'ladi.

Ergonomik ko'rsatkichlar buyumning insonga moslashganlik darajasini bildiradi. Ergonomika (ergon - mehnat, nomog - qonun) insonni muayyan faoliyat sharoitida o'rganadigan hamda inson, buyum va atrofda muhitning o'zaro bog'lanish qonuniyatlarini o'rganadigan ilmiy fandır. Bu ko'rsatkich kiyim inson qomatiga va uni kiyish sharoitiga, statika (harakatsiz holati) va dinamika (harakat holati)da uning ayrim

(antropometrik) karakteristikalariga hamda psixo-fiziologik o'ziga xos xususiyatlariga mosligini, shuningdek, gigienik va hokazo darajasini aniqlaydi.

Psixofiziologik ko'rsatkichlar guruhi kiyimni odamning ruhiy va fiziologik xususiyatlariga mosligini aniqlaydi. Bu ko'rsatkichlarga kiyim oson kiyilishi va yechilishi, kiyim ayrim elementlarining qulayligi hamda kiyimning massasini kiritish mumkin.

Gigienik sifat ko'rsatkichlari sanitariya va gigiena me'yorlariga moslikni harakterlab, kiyim ostida qulay mikroiklimni ta'minlashi kerak. Gigienik moslik ko'rsatkichi kiyim ostidagi havo almashinuvi darajasini bildiradi. Masalan, yuqori haroratli tashqi muhitga mo'ljallangan kiyimning gigienik ko'rsatkichlari gazlamaning gigienik xususiyatlariga bog'liq. Ushbu ko'rsatkich o'z navbatida kiyim paketining havo o'tkazuvchanligiga, bug' o'tkazuvchanligiga hamda kiyimning rasional konstruktiv yechimiga bog'liq.

Ekspluatasion ko'rsatkichlar. Qator sanoat mahsulotlari kabi kiyimga ham muhim ekspluatasion ko'rsatkich bo'lgan "ishonchlilik" xosdir. Ekspluatasiya davrida kiyimning ishonchlilik ko'rsatkichi detallarning shakl saqlovchanligi, chidamliligi, choklarning pishiqligi bilan xarakterlanadi.

Texnik - iqtisodiy ko'rsatkichlar konstruksiyaning texnik jihatdan mukammallik darajasini, ishlab chiqarish va iste'molchi harajatlarini hisobga olgan holda kiyimni loyihalash va texnologik usullarini bildiradi. Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar ikkinchi darajada standartlash va unifikasiyalash, konstruksiyaning ishlov berishga qulaylik darajasi va tejamlilik ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan.

Standartlash va unifikasiyalash ko'rsatkichlari modellarning konstruktiv va texnologik jihatdan bir-biri bilan bog'lanish darajasini ko'rsatadi. Standartlashning asosiy vazifalaridan biri - barcha yechimlar sonini minimal oqilona yechimlarga keltirishdir. Shu bilan birga mahsulotni loyihalash muddatini qisqartirishda hamda ishlab chiqarishga tayyorlash va ishlab chiqarish uchun sarfharajatlarni kamaytirishda ko'rinadi. Unifikasiyalash ham standartlashning usullaridan biri hisoblanadi. Uning vazifasi mahsulotning keng miqyosda tarqalgan tur, xil va o'lcham tiplarini kamaytirishga qaratilgan. Konstruksiyaning ishlov berishga qulaylik ko'rsatkichi mahsulotni yaratish, ishlab chiqish va foydalanish bosqichlarida barcha mehnat, vaqt hamda boshqa vositalarning sarf - harajatlarini kamaytirishga qaratilgan, ya'ni ishlov berishga qulay bo'lgan konstruksiya shakli sodda, ishlov berishda kam mehnat talab qiladigan, zamonaviy texnologik jarayonlarni qo'llashga imkon beradigan va bichishda rejali bo'lishi kerak.

Iqtisodiy ko'rsatkichlar iste'molchiga va ishlab chiqarishga oid talablarni o'zaro bog'lab, mahsulotni konstruksiyalash, ishlab chiqarishda texnologik ishlarni tayyorlash va ishlov berish hamda foydalanish jarayonlaridagi sarf-harajatlarni bildiradi .

Model yaratish va ishlab chiqarishga tayyorlash

Model deb - keyinchalik yangi buyum yaratishda qo'llaniladigan to'liq andozalar komplektiga aytiladi. Kiyim turlari doimo va uzluksiz yangilanib turadi. Har yili yengil sanoatda bichig'i va fasoni xilma-xil bo'lgan yangi modellar ishlab chiqarishga joriy qilinadi.

Kiyimning asosiy boshlang'ich materiali bo'lgan gazlamalar faqat struktura, tashqi ko'rinish va rang-baranglik jihatidagina emas, balki xususiyat va tola jihatidan ham to'xtovsiz o'zgarib turadi.

"ASSYST" dasturda model o'zida barcha razmerdagi detallar shakli haqidagi, shuningdek boshqa muhim ma'lumotlarni saqlovchi faylni ifodalaydi (buyum kartasi, o'lcham jadvali, material (gazlama) turlari, razmerlar jadvali va h.k.). Bu fayllar diskda *.gem. kengaytmasi bilan saqlanadi.

Detal- ma'lum shakl va texnik tarkibiy qismlardan tashkil topgan modelning bo'lagi (bir qismi) bo'lib, o'z ichiga kertimlar, tanda ipi yo'nalishi, simmetriya o'qi, chok haqi qiymati, detal nomi va boshqa detalga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni oladi. Detal sirti ma'lum koordinatali nuqtalar, to'qri va egri chiziqlarning o'zaro bog'lanishidan tashkil topgan. Detal turlari: sodda, simmetrik bo'lak, chok qiymati bo'yicha ishlab chiqilgan detal, qirqim bo'yicha ishlab chiqilgan detal, yordamchi detal. Bichiqda detallar sonini modelga muvofiq berish mumkin.

Tanlangan tartibda detallardan foydalanishga qarab, yakuniy maxsulotni tuzish uchun detallar quyidagi turda bo'lishi mumkin:

1. Sodda detal- bu detal to'shamada bir marta chop etiladi va aynan ekranda qanday bo'lsa, shundek ko'rinishda bo'ladi.

2. Simmetrik bo'lak- bichishdan avval simmetriya chizig'iga nisbatan oynasimon aks ettiriladigan detal; bu detalda simmetriya chizig'i, uning atrofida simmetrik bo'lak quriladigan kontur bo'lagi ko'rinishida, ko'rsatilgan detalning simmetriya chizig'iga kursor yo'naltirilganda, bu detal "simmetrik bo'lak" deb hisoblanadi, bordiyu simmetriya chizig'i o'chirib yuborilsa, detal "oddiy, sodda, murakkab bo'lmagan" detalga aylanadi.

3. "S" ga karrali -detal to'shamada bir necha marta, takror- takror uchraydi, usiz ham detal dublikati oynasimon aks ettiriladi.

4. Simmetrik "Fy", "Fx", "Fxy" - detal to'shamada bir necha marta, takrortakror uchraydi va asl nusxaning oynasimon aksidir. Aks ettirishni X, Y o'qlari bo'yicha yoki har ikkala o'q bo'yicha ham bajarish mumkin.

5. Chok chizig'i bo'ylab ishlab chiqilgan detal- detalning tashqi qirqimi o'zidan chok haqi qiymatini ifodalaydi; bu detalga bichishdan oldin dastur avtomatik ravishda chok haqi qiymatii qo'shib ketadi.

6. Qirqim chizig'i bo'ylab ishlab chiqilgan detal- detalning tashqi qirqimi o'zidan qirqim chizig'ini ifodalaydi; chok haqi qiymati talab etilmaydi; umuman, barcha raqamlangan detallar "qirqim chizig'i bo'ylab ishlab chiqilgan detal" ko'rinishiga ega.

7. Yordamchi detal - bu detal faqatgina loyihalash jarayonida qo'llaniladi. Detal ko'rinishini "Detali" rejimida o'rnatish mumkin.

Nuqtalar. Detal sirtqi ko'rinishi ko'p miqdordagi to'g'ri va egri chiziqlarni o'zaro bog'lagan nuqtalardan iborat. Nuqtalar burchak hosil qiluvchi yoki chiziqlarda joylashgan bo'lishi mumkin. Har bir nuqta bazaviy nuqtaga nisbatan ikkita vertikal va gorizontal

koordinata bilan aniqlanadi. Detal sirtidagi istalgan nuqtani, uni sirtini o'zgartirmasdan surish mumkin bo'lgan nuqta bazaviy nuqta bo'lishi mumkin. Detal shaklini o'zgartirish nuqtalar turi va holatini o'zgartirish, ba'zi nuqtalarni qo'shish va olib tashlash orqali, shuningdek egri chiziqlar shaklini o'zgartirish orqali amalga oshiriladi. Bu operatsiyalarni "Redaktirovanie formi" rejimida amalga oshirish mumkin. Kiyimni ishlab chiqarish bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi.

1. Model yaratish va konstruksiyasini tuzish. Bu bosqich tikuv korxonasi tajriba sehida amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish korxonasi tajriba sehida tanlangan model eskizini dastur yordamida o'lcham kattaliklari asosida kompyuterda konstruksiyasini ishlab chiqariladi, model konstruksiyasi yordamida tanlangan model eskizini modellashtirish ishlari amalga oshiriladi. Tanlangan model eskizini namunasini tayyorlash uchun tajriba sehida 2D dasturi asosida model namunasini ishlab chiqiladi.

2. Gazlamalarni bichishga tayyorlash. Tayyorlov sehida amalga oshiriladi. Tayyorlov sehida gazlamlarni quyidagi ishlar bajariladi.

-gazlamani qabul qilish, o'rovini ochish, vaqtinch saqlash;

- gazlama sifatini tekshirish, gazlama uzunligi va enini o'lchash, sifatini tekshirilgan gazlamani saqlash;

- gazlama to'plarini hisoblash, o'shama uchun gazlamani saralash;

- tekshirilgan va tayyorlangan gazlamani bichuv sehga yuborish;

Tayyorlov sehida tekshirilgan gazlamalarni quyosh nurlaridan, pasr haroratdan, namlikdan, turli xil kemiruvchilardan himoya qilishi kerak.

3. Gazlamalarni bichish. Bichish sehida bajariladi.

4. Buyum tikish. Tikuv sehida tikiladi.

Kiyim modellarini ishlab chiqarishga tayyorlash

Tikuv korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil qilishda tajriba seh muhim uchastkalardan biri hisoblanadi. Buyumlarni konstruktiv va texnologik ishlab chiqarishga tayyorgarlik ishlari tajriba sehida amalga oshiriladi, ya'ni bu tsexda ishlab chiqarishni texnik tayyorlash ishlari bajariladi.

Bugungi kunda tikuvchik korxonalarining tajriba sexlarida yangi modellarni ishlab chiqarish uchun —Assyst CAD dasturiy ta'minoti bilan faoliyat olib borilmoqda.

Assyst CAD dasturiy ta'minoti quyidagi modullardan tashkil topgan:

- Buyumlar modelini va konstruksiyasini yaratish.
- Konstruksiyalash, modellashtirish (cad.assyst);
- Andozalarni gradasiyalash (cad.assyst);
- Andozalar joylashmasi (lay.assyst);
- Chopetishga berishni boshqarish moduli (plot.entry);
- Ma'lumotlarni konvertasiya qilish moduli (data.conv);
- Andozalarni raqamlash moduli (digi.assyst).

Tajriba sehda avtomatlashtirilgan usullarni qo'llash tsexning tizimini o'zgartiradi. Andozalar joylashmalaridan nusxa olish va trafaretlar tayyorlash operatsiyalari qisqaradi, andozachilar guruhida andozalarga ishlov berish va ularni saqlash uchun uskunalarga zaruriyat qolmaydi. Normalovchilar guruhida tajriba joylashmalarini bajarish uchun stollar kerak bo'lmaydi. Bu tizimlarni qo'llashda tikuv va gazlamalarni hususiyatini sinash laboratoriyasida o'zgarishlar bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.G.Q.Qulijanova, S.S.Musayev —Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi O'quv qo'llanma. Toshkent-2002 yil.

2. Nigmatova F.U. —Yengil sanoat maxsulotlarini loyihalashning avtomatlashtirilgan sistemasi|| fanidan ma'ruzalar matni. Toshkent-2015 yil.

3. Nigmatova F.U., Xojimatov R.S., Shomansurova M.Sh —Tikuv buyumlarini loyihalashning avtomatlashtirilgan sistemasi|| fanidan tajriba mashg'ulotlarini bajarish uchun uslubiy qo'llanma. Namangan-2016 yil.

4. M.K.Rasulova. Tikuv buyumlari texnologiyasi fanidan uslubiy ko'rsatma. T., TTESI. 2004 y

**QIZLARNI OILA VA JAMIYATDA O'Z O'RNINI TOPISHDA PSIXOLOGIK KO'NIKMA VA
MA'NAVIY YETUKLIKNI SHAKLLANTIRISH****Abdusalomova Dilnoza Abduraimovna***Toshkent viloyati, Bekobod tumani,**51-maktab amaliyotchi psixologi***Yodgorova Nodira Turg'unboyevna***Toshkent tibbiyot akademiyasi "Mikrobiologiya, virusologiya, immunologiya"**kafedrasida dotsenti, t.f.n***Qobiljonova Shahnoza Rustamovna,***Toshkent tibbiyot akademiyasi**"Atrof muhit gigiyenasi" kafedrasida assistenti***Abduvosiyeva Mushtariy Ismoil qizi,***Toshkent tibbiyot akademiyasi "Davolash" fakulteti 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Maqola hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarda jamiyatimizni rivojlantirish, bunda erkaklar bilan bir qatorda qiz va ayollarimizning faol siyosiy va ijtimoiy pozitsiyasini ta'minlash, shuningdek, jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblangan oilalarni mustahkamlashga qaratilmoqda. Mazkur jarayonda qizlarni turmushga, oilaga, jamiyatga maqsadli tayyorlash, ularning ijtimoiylashuvini natijador qilish masalalari alohida dolzarblik kasb etmoqda. Xususan, oilada farzand tarbiyasining asosiy mas'uliyati onalarning zimmasidadir. Binobarin, jamiyatdagi ma'naviy sog'lomlik bo'lg'usi onalar, jumladan, qizlarning tarbiyasiga bevosita bog'liq bo'ladi.*

Kalit so'zlar: *Psixogen va nopsixogen, psixogigiyena, o'spirin.*

**ФОРМИРОВАНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ НАВЫКОВ И ДУХОВНОЙ ЗРЕЛОСТИ
ДЕВОЧЕК ДЛЯ НАЙТИ СВОЕ МЕСТО В СЕМЬЕ И ОБЩЕСТВЕ**

Аннотация: *Статья посвящена развитию нашего общества в условиях проводимых в нашей стране социальных реформ, обеспечивающих активную политическую и социальную позицию наших девушек и женщин наравне с мужчинами, а также укрепление семей, которые считаются основным звеном общества. В этом процессе особую актуальность приобретают вопросы целенаправленной подготовки девушек к браку, семье и обществу, эффективной их социализации. В частности, основная ответственность за воспитание детей в семье лежит на матерях. Поэтому духовное здоровье в обществе напрямую зависит от воспитания матерей, в том числе девочек.*

Ключевые слова: *Психогенные и непсихогенные, психогигиенические, подростковые.*

FORMATION OF PSYCHOLOGICAL SKILLS AND SPIRITUAL MATURITY IN GIRLS TO FIND THEIR PLACE IN THE FAMILY AND SOCIETY

Abstract: *The article focuses on the development of our society in the social reforms implemented in our country, ensuring the active political and social position of our girls and women along with men, as well as strengthening families, which are considered the main link of society. In this process, the issues of purposeful preparation of girls for marriage, family, and society, and making their socialization effective are gaining special relevance. In particular, the main responsibility of raising children in the family rests with mothers. Therefore, spiritual health in the society directly depends on the upbringing of mothers, including girls.*

Key words: *Psychogenic and non-psychogenic, psychohygiene, teenager*

Yurtimizda xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini oshirish, ularning qonuniy huquq hamda manfaatlarini ta'minlash, salomatliklarini mustahkamlash, intilish va tashabbuslarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Ayol va qizlarga yuksak hurmat-ehtimom ko'rsatish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, har bir nozik hilqat vakiliga o'z iqtidori va salohiyatini ro'yobga chiqarishi, oilada va jamiyatda munosib o'rin egallashi uchun ko'maklashish, tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi amaliy ishlar yuksak olib borilmoqda va o'z samarasini bermoqda.

Bugungi texnika asri yosh avlodga zamonaviy ta'lim berish bilan birga ularni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ongi va qalbini mafkuraviy, ma'naviy va axborot tahdidlaridan ishonchli himoya qilish, ularda g'oyaviy immunitetni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor berish lozimligini.

Yuksak ma'naviy-ahloqiy fazilatlarga ega jamiyat, davlat va oilasi oldida o'z mas'uliyatini his etadigan, davlatning ichki va tashqi siyosatini to'g'ri anglaydigan, vatanparvar va xalqparvar, tashabbuskor va tadbirkor, zamonaviy bilim va yuksak insoniy fazilatlarga ega, irodasi baquvvat, iymoni butun hamda vijdoni pok shaxslarni tayyorlashdan iboratdir.

Qizlarning odob-ahloqiga ta'sir etuvchi omillar quyidagilar:

- Oila;
- Ta'lim muassasi;
- Jamo'a (muhit).

Bugungi kunda turmushga chiqmagan qizlar oilaviy hayotning ma'naviy, axloqiy, iqtisodiy xususiyatlari, oilani rivojlantirish, oilada tinchlik va totuvlikni saqlash, oilada farzand tarbiyasini amalga oshirish ishlariga tayyor bo'lishlari zarurligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda. Shuningdek, bo'lajak kelin va kuyovlarni baxtiyor oila, oilaviy hayot, turmush, ro'zg'or tutish, oila a'zolari bilan o'zaro munosabatlarda "muvaffaqiyat kaliti"ga erishish mahoratiga o'rgatish, jamiyatimizda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qator oilaviy

muammolar, manfaatlar to'qnashuvi, kelishmovchiliklar, jumladan, ajrimlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu o'quv-uslubiy majmua turmush qurmagan qizlarimizning oila va jamiyatga muvaffaqiyatli ijtimoiylashishga oid bilim, ko'nikma hamda malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi. O'quv-uslubiy majmua turmushga chiqmagan qizlarni jamiyatga va oilaga tayyorlashga mas'ul bo'lgan mahalla raislarining oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalar bo'yicha o'rinbosarlari, ayollar maslahat kengashlari, ota-onalar va keng jamoatchilikka mo'ljallangan.

Abu Ali ibn Sino, agar har qanday narsa va hodisa ichki yoki tashqi sabablar bilan harakatga keladigan bo'lsa, demak, insonning yashashi va harakatida ham birorta sabab bo'lishi kerak, bunday sabablardan biri ruhiy quvvatdir deb ko'rsatadi.

Qizlarga mustaqil bilim olish, o'z faoliyatini o'zi tashkil qilish, o'zini o'zi boshqarish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va xokazolarni o'rgatishdir.

Turmushga chiqmagan qizlarni oilaviy hayotga, turmushga, kelinlikka, jamiyatga tayyorlash masalasiga xalqimiz qadim-qadimdan muhim masala sifatida qarab kelgan. Turmushga chiqmagan qizlar oilaviy hayotning ma'naviy, axloqiy, iqtisodiy xususiyatlari, oilani rivojlantirish, oilada tinchlik va totuvlikni saqlash, oilada farzand tarbiyasini amalga oshirish ishlariga tayyor bo'lishlari zarur. Shuningdek, bo'lajak kelin va kuyovlarni baxtiyor oila, oilaviy hayot, turmush, ro'zg'or tutish, oila a'zolari bilan o'zaro munosabatlarda "muvaffaqiyat kaliti"ga erishish mahoratiga o'rgatish jamiyatimizda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qator oilaviy muammolar, manfaatlar to'qnashuvi, kelishmovchiliklar, ajrimlarning oldini olishda muhim.

Oilada qiz bolaga e'tibor muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, qiz bola bo'lajak ona, yor, opa va singildir. Oilada tinchlik-totuvlik, saramjon-sarishtalik, ozodalik, farzandlar tarbiyasi, hattoki, sog'lom muhit ham xotin-qizlar, demakki, buvijonlarimiz, onalarimiz, singillarimiz, kelinlarimiz zimmasiga tushadi. Har bir ota-ona o'z bolasiga sog'lom tarbiya berib voyaga yetkazsa, farzandning mustaqil hayotga toza ruh, olam-olam orzu-intilishlari bilan qadam qo'yayotganini ko'rsa, uning hayoti ma'no kasb eta boshlaydi. Farzandlarni to'g'ri tarbiyalash, ayniqsa jismoniy, ma'naviy fazilatlarni ularda tarbiya qilish doimo ota-onaning asosiy maqsadi bo'lib kelgan.

Oiladagi sog'lom muhit, odamiylik, insonparvarlik munosabatlari nafaqat qizlarning balki farzandning ruhiy dunyosiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'spirinlarga oila qurish haqida tushuncha berishda baxtli, tinch-totuv yashash, bir-biriga ishonch, sadoqat bo'lishi kerakligini uqtirish bilan birga, ularni oilaviy turmushda yuz berishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklardan ham ogohlantirish kerak, albatta. Ularga oilada bo'lib turadigan janjallarda ohirini o'ylab ish tutish zarurligini uqtirish lozim.

Oila – ijtimoiy zarurat! Ma'lumki, ta'biatdagi butun mavjudot, tirik organizmlar borki, barchasining juftlikda yashashi hayotiy qonuniyatdir. Shunday ekan, insoniyat tabiat sarvari sifatida kishi, shaxs tariqasida shakllanib chiqishiga qadar ham shunday tabiiy zaruratga ehtiyoj sezgan.

Yoshlarni turmush qurishga muvaffaqiyatli tayyorlashni ko'zlab ish tutishi uchun o'spirin yigit va qizlarning jinsiy tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish, oilaviy turmushning quvonchlari va tashvishlariga doir muayyan darajada ma'lumot berish, ularga bardoshli va matonatli bo'lish hamda qiyinchiliklarni mardonavor yengish yo'llarini tushuntirish maqsadga muvofiq.

Ibn Sino "Eng yuksak sevgi bu insoniy sevgi bo'lib, bunday sevgi kishini saxovatli qiladi. Uni oqko'ngil va jozibali kishiga aylantiradi", - deb ta'kidlaydi. Mutafakkirning talqin etishicha, sevgi inson zimmasiga juda katta axloqiy va huquqiy ma'suliyat yuklaydi. U inson baxtining negizi deganda oshiqlikni emas, balki oshiq-ma'shuqlikni tushunadi. Oshiq-ma'shuqlik bilan turmush qurish oilani mustahkamlashning asosi sifatida ta'kidlanadi.

Nikohdan o'tishga qadar yetarli fursat o'tishi bo'lajak er xotinlar bir-birlarini xarakter va odatlarini yaxshiroq bilib olishlariga zamin yaratadi. Oila qurishga jiddiy munosabatda bo'lmaslik ko'plab ko'ngilsizliklarning sababi hisoblanadi. Nikohdan o'tishga qadar shaxslar o'zlari tanlagan kishining irsiyatini bilishlari lozim. Afsuski, shunday kasalliklar borki, ular nasldan naslga o'tadi. Qarindosh-urug'dan qiz olish yoki qiz berish odati qat'iy qoralanishi va undaan butunlay voz kechish kerak. Chunki ayrim ota-onalar shunday nikohlarga rozilik berib, natijada nogiron va kasalmand farzand dunyoga kelishiga sababchi bo'ladilar.

Psixogigiyenaning eng muhim vazifalaridan biri har tomonlama to'la-to'kis jinsiy hayotni qaror toptirishda yordam berishdan iborat. Bu sohadagi buzilishlar ko'pincha ancha-muncha ruhiy jarohatlar va asab buzilishlariga olib keladi. Noto'g'ri olib borilgan jinsiy hayot ko'pincha kishini og'ir iztirobga solib, u ko'pgina kelishmovchiliklarning sababchisi hisoblanadi. Ayniqsa, jinsiy hayotdagi chekinishlar va bu hayotning estetik jihatlarini bilmaslik zamirida erkakda va ayolda jinsiy sovuqlik kabi buzilishlar kuzatiladi. Ayrim shaxslarda jinsiy moyillik ustunlik qilishi natijasida u jinsiy hayotga ko'proq e'tibor beradi. Bunday holatshaxsda patologik rivojlanish belgisi borligini ko'rsatadi. Tibbiyot xodimlari jinsiy funksiyaning psixogen va nopsixogen buzilishlarida, normal jinsiy rivojlanishdan va jinsiy hirsni qondirishdan patologik chetga chiqishlarda psixoterapevtik yordam ko'rsatishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Luiza Xeyning "Hammasi yaxshi bo'ladi" asari.
2. Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari.
3. Горовик, А. А., & Турсунов, Х. Х. У. (2020). Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере Scratch. *Universum: технические науки*, (8-1 (77)), 27-29.
4. Tursunov, H. H., & Hoshimov, U. S. (2022). TA'LIM TIZIMIDA KO'ZI OJIZ O'QUVCHILARNI INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA O'QITISH TEXNOLOGIYALAR. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(5), 990-993.
5. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. *Scientific Impulse*, 1(2), 535-537.

**VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINING OLDINI OLISHDA ICHKI ISHLAR
ORGANLARI XODIMLARINING O`RNI****N.T.Usmonova***Jizzax viloyati Zarbdor tumani IIB JXX HPB VYMB**inspektor-psixologi leytenant***S.V.Qo`chqorova***Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani IIB**JXX HPB VYMB inspektor-psixologi leytenant*

So`nggi yillarda respublikamizda yoshlar siyosati eng ustuvor vazifa hisoblanib kelmoqda. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning "Agar farzandlarimizga to`g`ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqa uni yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo`lib turmasak, ularni ilm-u hunarga o`rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo`yishimiz hech gap emas" deya ta`kidlagan fikrlaridan ham yoshlarning huquqiy bilimlarini oshirish, vatanparvar etib tarbiyalash, ular o`rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish dolzarb masalaga aylanganligini, hamda bu boradagi qarashlarga enidilikda jiddiy yondashuv ostida qarashimizni anglab olsak bo`ladi.

Shu o`rinda huquqni muhofaza qiluvchi targ`ibot organlari o`smir yoshlar o`rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashish emas, balki jinoyatchilikning oldini olish, profilaktik chora-tadbirlar ko`rishga e`tiborni kuchaytirdilar. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish va ularning sodir etilishiga sharoit tug`diruvchi vaziyatlarni bartaraf qilish davlat va jamiyat oldida turgan asosiy muammolardan biri sanaladi. Chunki voyaga yetmagan shaxslarning jinoyat sodir etishlari kelgusida ularning retsivist jinoyatchi bo`lish ehtimolini oshiradi hamda bu holat mamlakatning kelajakdagi taraqqiyotiga o`zining salbiy ta`sirini o`tkazadi. Umumiy jinoyatchilikdan farqli ravishda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi mamlakatning kelgusidagi taqdiri bilan bog`langan bo`lib, ushbu muammoga bugungi kunda alohida e`tibor bilan yondoshilmasa uning millat kelajagiga salbiy ta`siri ortib ketishi mumkin.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.04.2021 yildagi PQ-5050-son "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta`minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo`yicha qo`shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to`g`risida"gi qaroriga asosan, 2021-yilda umumiy o`rta ta`lim muassasalarining 2 000 ta psixolog shtat birligini joriy yilning 1-iyulidan qisqartirish evaziga 1 100 ta inspektor-psixolog shtat birligi kiritiladi va 2022-yilda qo`shimcha 900 ta shtat birligini kiritish orqali ularning soni 2 000 tagacha yetkaziladi. Shuningdek, yangi joriy qilingan tizim asosida, inspektor-psixologlar zimmasiga har bir o`quvchi kesimida umumiy o`rta ta`lim muassasalarida psixologik muhitni yaxshilash, voyaga yetmaganlar orasida qonun buzilishlariga murosasiz munosabatda bo`lish hissini shakllantirish, muammoli o`quvchilar

bilan ularning yashash joylarida ota-onalari ishtirokida manzilli ishlash vazifalarini yuklash belgilandi. Bu boradagi faoliyatini samarali tashkil etish uchun Ichki ishlar vazirining tegishli buyrug'i bilan "Ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha bo'linmalari faoliyatini tashkil etish bo'yicha vaqtinchalik nizom" tasdiqlanib, ularning faoliyatini tashkil etish mexanizmi belgilab berildi. Nizom asosida voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha bo'linmalarining asosiy vazifalari etib, voyaga yetmaganlar o'rtasida kriminogen vaziyat to'g'risidagi axborotni kompleks va tizimli tahlil qilish, mavjud kuch va vositalardan foydalanish samaradorligini baholash, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik sodir etilishiga olib keluvchi sabablar va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish, voyaga yetmaganlar, ularning ota-onasi yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzilishi bilan bog'liq murojaatlarini ko'rib chiqish; huquqbuzarlik yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakat sodir etgan voyaga yetmaganlarga nisbatan ta'sir choralari qo'llash to'g'risida vakolatli organlarga yoki voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalarga taqdimnoma va takliflar kiritish, voyaga yetmaganlarni Markazlarga, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga, o'quv-tarbiya muassasalariga belgilangan tartibda joylashtirish uchun taaluqli hujjatlarni tayyorlash va joylashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, voyaga yetmaganlarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud ularning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan, ular bilan shafqatsiz muomalada bo'layotgan ota-onalar yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar bilan profilaktik tadbirlarni tashkil etish; voyaga yetmaganlarning huquqini ximoya qilish choralari ko'rish belgilab berildi. Shuningdek, ushbu Nizomda inspektor-psixologlarning faoliyat samaradorligini belgilovchi indikatorlar sifatida quyidagilar belgilandi: ta'lim muassasasi ichki nazoratida va voyaga yetmaganlar komissiyasi hisobida bo'lgan o'quvchilar sonining kamayishi, voyaga yetmaganlar o'rtasida turli g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar, ulardagi addiktiv xulq-atvor, asotsial xulq-atvor, suitsidal xulq-atvor, jinoyatchilik darajasining pasayishi, addiktiv xulq-atvor (ingl. Addiction-qaramlik) - insonning muayyan turdagi harakat yoki holatga nisbatan qaramligi; misol uchun, psixotrop vositalarga, internetga, pornografik materiallarga qaramlik, asotsial xulq-atvor (ingl. Asocial-jamiyat talablariga zid,) - insonning jamiyatda o'rnatilgan tartib va qoidalarga zid bo'lgan, ma'naviyatsiz va huquqqa zid xulq-atvori. Ushbu xulq-atvor ko'p hollarda uydan ketib qolish, "o'z dunyosiga" berkinib olish, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olmaslikda, o'zini-o'zi o'ldirishga suiqasd qilishda namoyon bo'ladi. Suitsidal xulq-atvor - insonning o'zini-o'zi o'ldirishga suiqasd qilish yoki o'zini-o'zi o'ldirish haqida fikrlaydigan, rejalashtiradigan va amalga oshiradigan xulq-atvor.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, joriy etilgan mazkur tizimlar samarasida, hozirda inspektor-psixologlar umumta'lim maktablarida faoliyat yuritib, har bir o'quvchi kesimida ularning turmush-tarzi hamda odob-axloq normalariga munosabatini o'rganib, voyaga

yetmaganlar o`rtasida jinoyat va huquqbuzarlik sodir etilishi, turli ta`qiqlangan oqimlarga aralashib qolishining oldini olish, yetuk, barkamol shaxs bo`lib kamol topishi hamda hayotda o`z o`rnini topishga yo`naltirishga katta yordam berib kelmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O`zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo`llab-quvvatlash to`g`risida”gi Farmoni, 2017 yil 6 iyul.

2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5050-son “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta`minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo`yicha qo`shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to`g`risida”gi qarori, 02.04.2021 yil.

3. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko`rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarori, 03.08.2021 yildagi 490-son.

THE ROLE OF INNOVATION IN THE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY**Abdulloyev Javlonbek**

Annotation: *This article analyzes the fact that innovation is becoming one of the most characteristic features of the development of the economy and as a factor accelerating market development. There are also suggestions and recommendations that can be achieved through the widespread use of innovation in the modern world - the rapid development of entrepreneurship.*

Keywords: *innovation, capital, innovation process, production factors, innovative strategy, innovative entrepreneurship.*

INTRODUCTION

Currently, innovation is becoming one of the most characteristic features of the development of the economy. Recently, this name was reminiscent of something exotic, unknown and not so obvious even among professionals, but now both the innovation itself and its concepts are rapidly conquering the world. The international capital market, which plays a serious role in the innovation process and makes innovation a strategic resource for enterprises, is expanding, new financial structures are helping it in this regard. The experience of developed countries shows that innovation is often hampered by the direct negative attitude and position of people. However, a paradoxical situation is developing in Uzbekistan, which means that the whole society is expressing a positive attitude and support for innovative processes. In particular, it is reflected in many normative legal acts adopted in Uzbekistan and in the draft laws that are widely discussed in social networks. Decree of the president of the Republic of Uzbekistan "on state program on implementation of action strategy on five priority areas of development of the Republic of Uzbekistan in 2017-2021 "year of active entrepreneurship, innovative ideas and technology support "of the president of the Republic of Uzbekistan dated January 22, 2018, Decree of the president of the Republic of Uzbekistan No. PF-5975 of March 26, 2020 "on measures to radically update the state policy on the development of the economy and poverty reduction", No. PP-4653 of March 26, 2020" on the organization of activities of the Ministry of Economic Development and poverty reduction of the Republic of Uzbekistan and its system organizations", No., Among them are such regulatory documents as the resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan on February 17, 2021 " on the effective organization of activities of the agency for the development of entrepreneurship under the Ministry of economic development and poverty reduction of the Republic of Uzbekistan". The purpose of the adoption of these documents is to create favorable conditions for the development of entrepreneurial activity, the emergence and development of new entrepreneurs, to promote the potential

and effectiveness of the innovative system, to create a regulatory, financial and information environment favorable for innovation. Also, to increase competitiveness and productivity in the industry, promote the increase in the share of high-tech products, increase production and increase the share in the structure of production and exports, expand the application of innovative technologies and advanced management of the group.

The aim of the research work is to promote the innovative development of the economy, increasing the potential and efficiency of the system through the creation of new entrepreneurs. And the objectives of the study are to research the stages of increasing competitiveness and productivity in the industry and to substantiate its specifics; stimulating the increase in the share of high-tech products, increasing production and increasing the share in the structure of production and exports, expanding the application of innovative technologies and advanced management, consists in identifying the factors that influence it.

ANALYSIS OF LITERATURE ON THE TOPIC

Some authors believe that there is both a traditional economy and a new economy developing on a different basis. In our opinion, it will be appropriate to use the positive aspects of both without contrasting these two models, since at the heart of the traditional economy a new one will demonstrate that it will gradually develop. Indeed, it is a fact that in the modern world innovation has become a factor of production. As you know, traditionally there are three factors of production: land, labor and capital. The first to call them J. B. Sey had analyzed.[1] at present, these factors usually include the ability of entrepreneurs and, according to some authors, also the information factor, thereby emphasizing the role of information in the development of the economy. In our opinion, replacing the opportunities of entrepreneurs with innovations or both new it will be more correct to associate the factor with traditional factors as well. Currently, through the study of production factors, the analysis is carried out in greater depth and each factor decomposes. Land or natural factors-use as the basis of entrepreneurship are factors that do not provide long-term competitive advantages. In addition, many types of natural resources are not restored and may end after a while. On the other hand, the innovation factor is practically inexhaustible, and it brings innovation, which can be introduced into production; their expansion can provide long-term competitiveness, as it is currently based on New, especially advanced factors. In fact, such a point of view cannot be called "completely new." Analyzing the factors of production, the aforementioned "Sey" emphasizes the role of the entrepreneur, since it coordinates the following factors of production: land, capital and labor, as well as the factor of Labor, which he used very widely, including not only labor, but also scientific conclusions and knowledge necessary for the organization of production and production of products .

This opinion was expressed by the English scientist G. A. Gobson expressed more vividly and also included creative abilities in the factors of production.[1] analyzing the part of the economic system in which new products appear, new markets appear, new technologies are introduced, he called it the "progressive sphere of production." Now we call it an innovative economy.

Of course, in the process of studying such a phenomenon as innovation, two scientists, namely N.Kondratiev and J of Austria.A.The names of the Schumpeter should not be forgotten. It was Schumpeter who was the first to describe the concept of innovation in his research "theory of Economic Development".[3] he interpreted innovation as a scientific and organizational combination of existing production factors aimed at solving commercial problems. Schumpeter directly noticed the source of development of economic systems in innovation. Because specific content innovation is a change that they have highlighted, paying attention to five typical changes:

Providing new technologies, new technological processes or new production markets;

Introduction of products with new features;

Use of fresh raw materials;

Changes in the organization of production and material and technical supply of production;

The emergence of new markets.

In addition, he took advantage of the concept of innovation and interpreted it as changes, the purpose of which is to introduce and use new types of consumer goods, vehicles in the form of organizing new production and new production.

In the description of innovation, Schumpeter has always emphasized the role of the entrepreneur in this process, since it is the entrepreneur who is the driving force, practicing new inventions and being the beneficiary as a reward.

Not all inventions become innovations. Innovations are inventions that bring profit and satisfy market demand. In other words, thanks to science, an idea arises that comes true, and the next step is to commercialize the idea, transforming the invention into innovation, generating income. It says: if science is a process that transforms money into knowledge, innovation is a process that transforms knowledge into money with added value. Kondratiev substantiated the idea that economic cycles (waves) have different lengths: long - 48-55 years, medium - 7-11 years, and short - 3-3.5 years. Its most important contribution is related to the study of long waves. To substantiate his theory, he analyzed a huge number of factual materials that covered the four most developed countries - Great Britain, France, Germany and the United States. The studies carried out were related to the dynamics of prices, interest rates, wages, volume of foreign trade and the dynamics of the main industrial goods. The period of time under analysis was extended to 140 years. The study confirmed the existence of long waves and, as one of the reasons, noted science, its discoveries, the unevenness of the development of Science and technology, innovations,

etc. (Kondratiev N. (1925)). [3] Kondratiev discovered empirical patterns associated with long waves. Before the development of the wave and at its beginning, deep changes occur in the economic life of society associated with significant changes in technology (significant technological discoveries and inventions have occurred). He considered scientific and technical innovations to be the main factor. Innovation brings excitement by changing the economic environment from its trend to a higher trend. Kondratiev also showed that innovations are unevenly divided by time. They appear in groups or, in modern terms, in clusters. Therefore, in Kondratiev's study, we can find one of the first examples of using the cluster approach. Currently, Kondratiev's recommendations can also be used to develop innovative strategies.[4] the role of technological cycles is manifested in the development of the economy and society, which, on the one hand, increases the mass of capital production, and also increases its technological level. On the other hand, due to the improvement in education and qualifications, the qualification level of the workforce and management increases. Over time, with a high level of achievement of the technological level of production, the innovative characteristics of the labor force are the fastest growing characteristics, since skilled labor not only absorbs new technologies faster and uses them more efficiently, but also creates these technologies in production.

Schumpeter C.A. in his work "business cycles" (1939) N. Combining Kondratiev's Long-Wave Theory with his own theory of novelty, he developed the initial cyclic theory of development as a result.[4] in his opinion, the cyclical development of the economy is largely due to the internal mechanism of the system, and this is an innovative process.

Research methodology

The article used methods of scientific abstraction, analysis and synthesis, induction and deduction. The data of this study were obtained from official sources, a comparative analysis of the scientific and theoretical views of well-known economists on the role of innovations in the development of the economy, a generalization of foreign experience and the study of innovative entrepreneurship based on the results obtained on the achievements achieved in our country.

ANALYSIS AND RESULTS

If we compare the situation in developed countries with innovative processes in our country, then at present the developed countries of the world have been under the influence of an innovative economy and the fifth technological cycle (long wave) for more than 15 years. It's just that countries that have access to the fifth wave, even then, what should they do?

Will they be able to reach these countries, starting their scientific research in new high-tech areas in the first place? As you can see, it is very problematic. However, this does not prevent these countries, in particular in our country, from using technologies created by other countries and using them in the development of their economies, trying to surpass developed countries to create as many conditions as possible for foreign

investment to enter the country. Some time ago, this experiment was carried out in Japan, South Korea and other countries. In fact, the opportunities offered by innovation and the positive aspects of globalization have been captured, first of all, by the countries of Southeast Asia (often called "tigers"), such as South Korea, Taiwan, Hong Kong, Singapore, and also the Celts are considered "Tiger"-Ireland, one of the leaders in the field of innovation. These countries can serve as a paradigm for Uzbekistan, because our country will be able to successfully develop only if it chooses an innovative path using its unique non-traditional resources with its small market, poor traditional resources.

The competitiveness of the country develops on the basis of the competitiveness of individual enterprises. Each enterprise uses its own strategy to achieve the advantages provided by competitiveness. However, the nature of the evolution and development of successful companies will be similar, as companies create competitive advantages based on innovation. The reason for the weakness of innovative processes in the enterprises of our country is due to the influence of the following factors:

- the low number of scientists working in the industrial sector, as well as the low proportion of scientists and researchers in the workforce;

- not entering the field of high-tech patenting;

- weak cooperation between the manufacturing sector and universities;

- the relative failure of the promotion of innovation and the functioning of mechanisms to support entrepreneurship;

- complex procedures for starting a business; insufficient quality of technological education.

From world experience, the concept of the so - called "European Innovation Paradox" should also be noted-on the one hand, when assessing the share of investments in education and science in the gross domestic product, as well as, In most EU countries, the percentage of people with higher education in the population is even better than in the United States or Japan. Europe is also superior to them in terms of indicators of scientific potential (for example, Nobel Prize winners, SCI publications, the number of scientists with a doctoral degree). Nevertheless, the productivity of the economy in the European Union is two times lower than in the United States, its trade balance with the United States is negative. Students from different parts of the world are trying to study in US higher education institutions. The United States itself is considered a very successful country in the use of innovations, commercializing knowledge not only created in its own country, but also created around the world. The best specialists in the field of higher education and research (project managers, researchers, technology specialists with higher education) move to the United States. Europe is betting on training in US enterprises and training in higher educational institutions. According to these and similar facts, the term "European Innovation Paradox" also appeared. From the above, we can conclude, innovation is the main driving force. Thus, innovation provides an opportunity to develop a competitive

economy. In recent years, this has been understood not only by economists, but also by politicians. To achieve the main goals, it is necessary to focus 3% of the gross domestic product on research work, increase the level of employment by 70%, reduce bureaucracy, eliminate corruption and carry out incentives for entrepreneurship. If these problems are solved, our economy will achieve great success in developing innovatively in our country. It is envisaged to allocate funds from state budgets for research and innovation and increase the volume of its provision. In particular, three main areas will be priority: investing in education and the formation and reproduction of intellectual property; strengthening competitiveness in industry and service; Organization of monomarkets in the labor market

As you can see, in all the cases mentioned above, increasing competitiveness is associated with innovation. For an effective exchange of knowledge between countries and individual enterprises, it is a necessity to conduct research and create a coordinated and common space for the expansion of knowledge. We are talking not only about supporting technology research and production, protection of intellectual property rights, but also about ensuring the spread and spread of innovation, because where innovation is introduced, the effect will be as expected. A new trend has been formed on the use of innovations in the Uzbek industry. Prior to this, sectors related to the processing of natural resources, using cheap labor, prevailed. However, today Uzbekistan aims to take a fundamentally new approach to the use of Natural Resources. A vivid example of this is the establishment of the production of products of high added value on the basis of deep natural gas processing of the new UzGTL plant. Thanks to such large projects, Uzbekistan is gradually abandoning the export of natural gas raw materials and reducing the import of petroleum products. This suggests that a significant contribution is being made to strengthening our energy independence. The UzGTL complex, which is considered one of the largest investment projects not only in Uzbekistan, but also within the CIS countries, is an example of innovative production. Also, one of the most modern and innovative in the CIS is the central control remote control of the enterprise and the central laboratory of the plant. New enterprise GTL, that is, on the basis of "gas – to-liquid" technology, produced 3.6 billion meters of natural gas per year, 1.5 million tons of finished products-aviakerosin, diesel it has the capacity to produce fuel, naphtha, liquefied gas. Such a plant has so far been built in only 4 countries in the world – Qatar, Nigeria, JAR and Malaysia. Oil products and hydrocarbon raw materials are produced here, replacing imports with a total value of US \$ 1 billion or more than 12.8 trillion soums per year. The extraction of value-added products from natural gas based on GTL technology is carried out in three stages. Modern types of fuel made on the basis of this technology are environmentally quality and clean. This, in turn, also corresponds to the principle of non-harm to nature, which today has become an urgent issue. Take GTL diesel fuel, for example. It has a high technical description and practically does not contain sulfur content. Likewise, GTL kerosene offers airlines a safe and profitable way to reduce emissions into the atmosphere.

At the same time, electricity is produced autonomously at the expense of excess steam generated during production. That is, the issue of providing electricity to the plant "Uzbekistan GTL" was also solved in an innovative way. Thus, the enterprise not only independently produces the electricity necessary for its activities, but also, if necessary, supplies the additional volume of electricity generated to national power networks. In addition, on the basis of innovative technologies, modern high-quality UzGTL products are produced from recycled gas. At the same time, in order to increase the production of nafta polymer products produced at the UzGTL plant, the production capacity of the "Shurtan gas chemical complex" is sent for processing to expansion facilities, thereby creating a single petrochemical cluster.

It should be noted that in the creation of the UzGTL synthetic liquid fuel production project, advanced technological solutions from leading companies such as Sasol (South Africa), Haldor Topsøe (Denmark), Chevron (USA) and Honeywell were used. UzGTL products that meet high international standards are supplied primarily to cover the domestic needs of the Republic for petroleum products, in particular diesel fuel and kerosene, as well as liquefied gas. In addition, there will also be the possibility of export, as the products produced are of high quality.

Separately, it should be noted that the UzGTL plant is an example of structural changes carried out in Uzbekistan in the field of deep processing of hydrocarbon raw materials and an indicator of the pace of development of the petrochemical industry of our country.

CONCLUSIONS AND SUGGESTIONS

